


3

DINIY EKSTREMIZM  
VA TERRORIZMGA  
QARSHI KURASHNING  
MA'NAVIY-MA'RIFIY  
ASOSLARI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI  
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA  
QARSHI KURASHNING  
MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI



«Toshkent islam universiteti»  
nashriyot-matbaa birlashMASI

Toshkent – 2005



66.4(0)  
D 53

**Mas'ul muharrir:**

Z. Husniddinov,  
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:**

B. Abduhalimov,  
tarix fanlari doktori  
A. Sh. Jo'zjoni,  
yuridik fanlari nomzodi

Kitobda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, bunda ma'naviy-ma'rifiy omil bilan bog'liq masalalar tizimli tahsil qilingan. Diniy e'tiqodning mazmuni, mamlakatimizda vijdon erkinligining siyosiy-huquqiy asoslari va bu borada olib borilayotgan amaliy ishlar yoritilgan.

Shu bilan birgalikda, diniy ekstremizm va terrorizmning mohiyati, tarixiy va g'oyaviy ildizlari, jahon dinlari tizimida islomning tutgan o'rni, zamonaviy musulmon olamiga xos bo'lgan xususiyatlar uzviy birlikda tadqiq etilgan.

Diniy ekstremizm va terrorizmning dunyo davlatlariga tug'dirayotgan tahdidi, jahon hamjamiyati tomonidan uning oldini olish borasida olib borilayotgan amaliy ishlar, O'zbekistonning bu boradagi qat'iy siyosati aniq misollarda ochib berilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni kamol top-tirishdagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Din ishlari bo'yicha qo'mita tavsiya etgan*

© «Toshkent islom universiteti»  
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.

## K I R I S H

*Xalqlarimizning tabiatiga mutlaqo yot bo‘lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning min-taqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug‘dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak. Xalqlarimiz tafakkurida yuksak axloqiy ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustahkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur.*

***Islom Karimov***

Din kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlagan. Jumladan, ota-bobolarimizning muqaddas e’tiqodi bo‘lgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. U tufayli xalqimiz ming yillar mobaynida boy ma’naviyati va merosi, o’zligini omon saqlab keldi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, odamlarning e’tiqodi va diniy hissiyotlaridan foydalanib, ekstremistlar va terrorchilar tomonidan islom bayrog‘i ostida sodir etilayotgan jinoyatlar ularning asl qiyofasini namoyon etmoqda deyish mumkin. Ayni paytda, bunday jarayonlar kishilarni doimiy ogoh bo‘lishga, haqiqiy diniy qadriyatlarni ularning soxta va g‘arazli talqinlaridan farqlashga yordam beradigan bilimlarni egallahsga undaydi.

Shundan kelib chiqib, kitobda o‘zaro uzziy bog‘liq bir qator masalalarni tizimli yoritishga alohida e’tibor berildi. Xususan, dinning e’tiqodning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatidagi asl mohiyati haqida bilimga ega bo‘lish turli soxta g‘oya va da‘vatlardan saqlanishga yordam berishi shubhasiz.

Din va davlat munosabatlari hamma vaqt dolzarb bo‘lib kelgan. Turli davrlarda xilma-xil mazmun va shakl kasb etgan bunday munosabatlar mustaqil O‘zbekiston sharoitida vijdon erkinligi konstitutsiyaviy asosda to‘la-to‘kis ta’milangan, diniy tashkilotlar faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilganida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur sohaga oid qonunlarni buzganlik uchun huquqiy javobgarlik belgilangani ham bu munosabatlarning asl mohiyatini ko‘rsatadi, deyish mumkin.

Islomdagagi asosiy oqimlar, fiqhiy mazhablar, aqidaviy ta’limotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish ham bugungi jarayonlarning mohiyati, diniy ekstremizmning g‘oyaviy ildizlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Buyuk ajdodlarimizning islom ilmlari va madaniyati rivojidagi yuksak o‘rnini anglab yetish esa bunday g‘oya va harakatlarning xalqimizning buniyodkorlik va bag‘rikenglik an‘analariga mutlaqo zid ekanini tushunishga ko‘maklashadi. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy

musulmon olamiga xos xususiyatlari, islomning G'arb dunyosida tarqalishi barobarida «islamofobiya» namoyon bo'lishining sabablari haqida mu-lohaza yuritishga undaydi.

Kitobda diniy mutaassiblikning jahon hamjamiyati, jumladan, musulmon dunyosi uchun tug'dirayotgan tahdidlari ham yirik diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyati misolida ko'rsatib berilgan. Global muammoga aylangan diniy ekstremizm va terrorizmni barcha sog'lom kuchlar birgalikda harakat qilibgina yenga olishi mumkin. Shundan kelib chiqib, bu borada BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar olib borayotgan ishlar haqida ham batafsil fikr yuritilgan.

Shuningdek, mintaqamizda diniy ekstremizm va terrorizmning namoyon bo'lishining o'ziga xos xu'susiyatlari, yoshlar va xotin-qizlarning bunday kuchlarning asosiy nishoniga aylanishi sabablari, g'araz maqsadlarda buzib talqin qilayotgan «xalifalik», «shahidlik» kabi islomiy tushunchalarning asl mazmuni tahlil qilingan va «jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining mohiyati ochib berilgan.

Insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashda O'zbekistonning o'rni e'timodli ekanini xalqaro siyosatchilar va nufuzli mutaxassislar ham ochiq e'tirof etishmoqda. O'zbekistonning bu boradagi qat'iy siyosati, Mar-kaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni haqida ham atroflicha mulohaza yuritilgan. Ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohot-lar, din sohasidagi ilmiy asoslangan siyosatning ahamiyati, fuqarolar-da mutaassib g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish-ning dolzarb vazifalariga diqqat qaratilgan.

Kitobda ko'tarilgan masalalar shubhasiz murakkab va serqirra mazmunga ega. Bir tadqiqot doirasida ularning barcha jihatlarini qamrab olish, to'liq yoritib berish nihoyatda qiyin, to'g'rirog'i mumkin emas. Shunday bo'lsa-da, bayon etilgan fikrlar ularni ozmi-ko'pmi tushunib olishga yordam beradi deb o'yaymiz.

Z.Husniddinov, A.Abduvohidov, A.Hasanov, Z.Munavvarov, A.Ochil迪耶夫, U.G'afurov, Sh.Ismoilov, Sh.Yovqochev, B.Karimov, O.Yunusova, A.Azimov, O'.Hasanboyev, E.Ibragimov, D.Rahimjonov, H.Yo'Idoshxo'jayevdan iborat mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan mazkur kitob o'quvchilarda qiziqish uyg'otishiga, dinlar, xususan, islomning insonparvarlik mohiyati hamda diniy ekstremizm va terrorizmning g'ayriinsoniy jihatlarini teranroq va chuqurroq anglashga xizmat qiladi, deb umid bildiramiz.

## I bob. DAVLAT VA DIN. O'ZBEKISTONDA DAVLATNING DIN VA DINIY TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATI

**E'tiqod tushunchasi.** E'tiqod (arabcha «i'taqada» fe'lidan) *ishonch, imonli bo'lish* ma'nolarini anglatadi. Keng ma'noda e'tiqod inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, his va iroda vositasida anglangan bilim, g'oya va shu asosda shakllanadigan maqsadlar majmuini hamda ularning to'g'rilingiga ishonch bilan bog'liq bo'lgan psixologik holatni ifodalaydi. Bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirib olinganidagina *e'tiqodga* aylanadi. Umuman olganda, e'tiqod shaxs, guruh va ommani ji psolashtiruvchi, odamlarni ijtimoiy hayotning faol a'zosiga aylantiruvchi omil hisoblanadi.

E'tiqod inson voyaga yetishi bilan bog'liq holda to'plangan bilimlar, o'ziga xos ehtiyoj va manfaatlar, hayotiy tajriba asosida shakllanib, mustahkamlanib boradi va shaxs faoliyatining izchil, mantiqiy, maqsadli bo'lishiga olib keladi.

Ijtimoiy jihatdan e'tiqod insonning faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Zero, e'tiqod faqat amaliy faoliyat jarayonida o'zligini namoyon qiladi.

Yuqoridagi sifatiy xususiyatlar bilan bir qatorda jur'atsizlik, qat'iyatsizlik va befarqlik kabi holatlар ham mavjudligi va ular e'tiqodning zaifligini ko'rsatishini ta'kidlash zarur. Bunday kishilar ko'pincha boshqalarga ergashib yoki taqlid qilib yashaydilar. Sharoitga qarab goh u, goh bu tomonga og'adilar. Bunday e'tiqodiy zaiflik, bo'shlik shaxs kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar e'tiqod mutaassib, irqiy, millatchilik, tor siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan cheklangan bo'lsa, bunday holda u buzg'unchilik, beqarorlikka xizmat qiladi, rivojlanishga to'siq bo'ladi. Taraqqiyot, hurlikka yetaklovchi ishonch va e'tiqod bilan buzg'unchi, aldamchi, adashtiruvchi, yolg'on «e'tiqod»ni farqlash juda muhim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sog'lom e'tiqod shaxs dunyo-qarashi tizimida muhim o'rinni egallaydi. Uning ahamiyati **birinchidan**, shaxs dunyoqarashidagi barqarorlikni belgilovchi halqa sifatida chiqishida, **ikkinchidan**, mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan cho'chimaslikka, ularga qarshi tura olish va bartaraf etishning oqilonha yo'llarini izlashga, **uchinchidan**, xulqidagi sobitlik, izchillik va amaliyotdagi faollilikni ta'minlashga xizmat qilishida ko'rindi.

Shuning uchun, kishilarda ijtimoiy qadriyatlар, buyuk kelajak, taraqqiyotga bo'lgan ishonchni, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga bo'lgan e'tiqodni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Din e'tiqodning o'ziga xos ko'rinishi sifatida.** Har qanday e'tiqod diniy bo'lavermaydi. Ammo din ham e'tiqodning o'ziga xos ko'rinishi sifatida jipslashtiruvchi xususiyatga ega. Diniy e'tiqod bu – inson irodasidan yuqori turgan zotga imon keltirish, undan madad olish, asotiriy voqeа-hodisalarning takror sodir bo'lishi va unga daxldorlik hamda muayyan tasavvur, aqida, muqaddas kitob, payg'ambar, avliyo va hokazolarga ishonch demakdir.

Diniy e'tiqodda muayyan timsollar (buyum, harakat, so'z, matnlar) diniy ma'no va mazmun kasb etadi. Ularning majmui diniy yo'naliшning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Har bir din yoki diniy konfessiya (yo'naliш)ning sobit aqidalari mavjud.

Islom dinida imoni mufassal quyidagi aqidani – Alloh, Uning farishtalari, muqaddas kitoblari, payg'ambarlari, oxirat kuni, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohnинг irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lгandan keyin tirlishga ishonishni o'z ichiga oladi.

**Dinning bag'rikenglik mohiyati.** Insonning aqliy va hissий qobiliyatlaridan tashqari barcha dinlarning zamirida uchinchi – cheksizlikni idrok qilish qobiliyati ham bor. Insoniyat dinga, e'tiqodga muhtoj. Zero, hammaga ideal kerak. Dinlarning kelib chiqishi bir, ammo bashariyat turli dinlarga e'tiqod qiladi, hatto bir xalq, millat ham turli diniy ta'limotlarga ergashadigan hollar mavjud. Barcha dinlarda ezgulik g'oyalari ustuvor, «yaxshilik qil, yomonlik qilma» demagan birorta diniy ta'limot yo'q. Barcha dinlarni, hatto eng qadimgilarini ham bag'rikenglik ruhida o'rganmoq zarur.

Diniy mavzuni yoritishda bag'rikenglik (tolerantlik), sabr-toqatlilik, inson, jamiyat, dunyo haqidagi qarashlarning o'zaro mubohasasi usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Diniy va nodiniy dunyoqarash shakllarining o'zaro o'xshash tomonlariga urg'u berish darkor.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik va murosa borasida nafaqat MDH davlatlari, balki butun dunyoga namuna bo'limoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus patriarxi Aleksiy II, Xillari Klynton va Madlen Olbrayt, lordaniya shahzodasi Hasan bin Tallol kabi dunyo miqyosida katta obro' va nufuzga ega insonlar ham yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tdilar. Albatta, xalqimizga xos bu xislat bir zumda paydo bo'lgan emas, balki uzoq tarixiy asoslariga ega.

IX asrdan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida islom dini sunna yo'naliшining hanafiy (Imom A'зам) mazhabi qaror topdi. Hanafiylik o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlarga nisbatan erkinlik berish bilan boshqa mazhablardan ajralib turadi. Bu ta'limotni takomilga yetkazgan vatandoshlarimiz – Abu Mansur Moturidiy, Abulmu'in Nasafiy va Burhoniddin Marg'inoniy kabi allomalar musulmonlar orasidagi g'oyaviy tarafkashlikka barham berish, islom dinining «ahli sunna val-

jamoa» yo‘li barqaror bo‘lib qolishiga katta hissa qo‘shdilar. Buyuk islom ulamolari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo hukmdorlari ham bu yo‘lda kurashdilar. X asr o‘rtalarida islom dunyosida shia yo‘nalishi (Shimoliy Afrika, Misr, Suriya, Hijozda – fotimiylar, Yamanda – zaydiylar va hatto abbosiylar poytaxti Bag‘dodda – buvayhiylar) ustunlikka erishgan bir paytda Markaziy Osiyoda tohiriy, somoni, g‘aznaviy va qoraxoniy hokimlari «ahli sunna val-jamoa» aqidasini qat’iyat bilan himoya qildilar.

Xususan, o‘z davrining ramzi bo‘lgan Amir Temur e’tiqod va ma’naviyatning katta ahamiyatini to‘g‘ri idrok etgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Sohibqironni haqli ravishda e’tiqodi komil inson sifatida ta’riflaydi. Eng muhimi, Amir Temur «ahli sunna val-jamoa» e’tiqodiga sodiq, diniy aqidaparastlikka qarshi qat’iy bo‘lgan, islom dinini mutaassiblikdan xoli, erkin tushungan. Uning komil e’tiqodi boshqa dinlarni rad etish hisobiga bo‘lmagan va shu jihatdan ham, u nafaqat o‘z asri, balki hozirgi zamon kishisi uchun ham namunadir.

Mustaqillik tufayli o‘zligimizni anglash, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash jarayoni kechayotgan hozirgi paytda umuman dinga va ayniqsa, ota-bobolarimiz dini bo‘lib kelgan islomga munosabat tubdan o‘zgardi. Bu sohadagi yutuqlarni sanab o‘tirishga hojat yo‘q. Ularni ko‘rmaslik mumkin emas, ko‘rolmaslik mumkindir, balki. Ammo masalaning boshqa tomoniga e’tiborni jalb qilish muhim. Siyosiy mustaqillikka erishgan barcha yosh davlatlarda yuz bergani kabi bizning mamlakatda ham ta’lim yo‘nalishi mazmun-mohiyatining o‘zgarishi, davlat tili, an‘analar, milliy madaniyatga e’tiborning ortishi, bularning hammasi, diniy omil ahamiyatiga davlatning munosabatini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarda kutilmagan voqealarga ham duch kelindi. Xalqaro terrorizm bilan uyushib ketgan diniy ekstremizm endilikda umumbashariy muammoga aylandi. Uning yechimi bir mamlakatning qo‘lida emas, balki xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Ana shunday murakkab vaziyatda ham, O‘zbekiston hukumati diniy bag‘rikenglik siyosatini olib bormoqda. Respublikada islom bilan bir qatorda boshqa noislomiy konfessiyalar ham emin-erkin faoliyat ko‘rsatmoqda. Fuqarolarga millati, irqi, dinidan qat’iy nazar, teng huquqlar qonun orqali kafolatlangan. Buni diyorimizga ochiq qalb bilan kelayotgan har bir mehmon o‘z ko‘zi bilan ko‘rmoqda va e’tirof etmoqda.

**Dunyoviy davlat va din.** Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan, ma’naviy hayotdagi yangilanish jarayonini, tub o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo‘lgan munosabat tubdan

o'zgardi: sobiq sovet tizimining dinka ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyilini uning asosini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyati aralashmaydi»<sup>1</sup>

Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkam qo'yilgan. Avvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'i nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda respublikamizda 15 ta noislomiy konfessiyaga mansub 186 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham buning amaliy ifodasidir. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ta'kidlash zarur. Zero, biror dinka e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Din va jamiyat hayotidagi dialektik aloqadorlikdan din va dunyoviy davlat munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyil – din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rganish, bashorat qilish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishdir.

Davlatning dinka bo'lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

I.A.Karimovning Oliy Majlisning o'n to'rtinchisi sessiyasida so'zlagan nutqida bu tamoyil o'zining yorqin ifodasini topgan: «Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yanmiz»<sup>2</sup>. Bu fikrlar hayotiy voqelikka aylanmoqda.

Dunyoviy davlatning dinka bo'lgan munosabatida dindorlarning huquqiy maqomi va davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishidek ikki muhim jihat ham bor.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2003.-B. 13.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning bukilmas irodasiga bog'liq.-T.: O'zbekiston, 2004.-B. 8.

Konstitutsiyamizda bu masalalar o‘z yechimini topgan va u dun-yodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to‘la javob beradi. Har qanday dinga e’tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e’tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo‘yilishini ta’minlovchi Konstitutsiyaning 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi»<sup>3</sup>

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o‘z ifodasini topgan:

— dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;

— diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

— diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;

— ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;

— dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish<sup>4</sup>

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o‘rinda ma’naviy-axloqiy jihatni o‘z ichiga oladi.

Hech qaysi din o‘zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining barchasini qamrab olishga da‘vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo‘lmay qoladi. Xuddi shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan<sup>5</sup>

O‘zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag‘rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki konstitutsiyaviy dunyoviy-ma’rifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroti tamoyiliga rioya qiladi.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2003.-B. 8.

<sup>4</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O‘zbekiston, 1997. - B. 43-44.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2003. - B.12.

**«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun.** Ushbu qonun 1991-yilda qabul qilingan bo‘lib, 1993-yilda kiritilgan ba’zi qo’shimcha va o‘zgartirishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo‘lib keldi.

1990-yillarning boshlarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiste’mol qilinishi, masjid qurish kampaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5000 tagacha yetdi. Ularning aksariyati hujjatlari to‘liq rasmiylashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta’minlanmagan (95,8% diniy ma’lumotsiz) va zarur sharoitlar bo‘lmas halda faoliyat yurgizib, turli “peshvo”lar masjidlarni o‘z uyalariga aylantirishga harakat qildilar.

Ba’zi diniy tashkilotlarning rahbarlari xorijiy fuqarolar bo‘lib, aslida hech qanday diniy ma’lumotga ega bo‘lmay, moliyaviy yordam ko‘rsatish hisobiga respublika hududidagi diniy tashkilotlarga rahbarlik qilib olib, buzg‘unchilik, missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanar edilar. Ularning asosiy maqsadi turli yo‘l va usullar bilan o‘z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat edi.

Davr talablari asosida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunni tubdan o‘zgartirish zarurati tug‘ildi va 1998-yil I-may kuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Kiritilgan o‘zgartirishlar nimalardan iborat edi?

Jumladan, Qonunning 8-moddasiga asosan, diniy tashkilotlar 18 yoshga to‘lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo‘lmas halda ularning tashkilotlarning rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga istisno holatda xorijiy fuqarolar nomzodlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishib olinishi belgilab qo‘yildi<sup>6</sup>.

Shuningdek, tegishli diniy ma’lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga istisno holatda xorijiy fuqarolar nomzodlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishib olinishi belgilab qo‘yildi<sup>6</sup>.

Qonunning 9-moddasiga muvofiq diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o‘zlariga zarur bo‘lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o‘quv yurtlari tuzishga haqlidir.

Qonunning 5-moddasida bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi.

Ushbu moddaning mazmuni va ahamiyatini tushunish uchun missionerlik va prozelitizm nima ekanini bilib olish kerak. Missionerlik –

<sup>6</sup> *Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri).* O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: 1998. - B. 8.

bu boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxsni o'z diniga og'dirib olishlik bo'yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat. Prozelit – bu o'z dinidan kechib, boshqa dinga o'tgan odam.

Qonunning 16-moddasiga asosan: «Diniy tashkilotlar uchun yer ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi».

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo'lgan 19-moddasi ham bir qadar o'zgartirildi: «Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruva organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir». Mazkur qoida O'zbekiston hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishini tartibga soladi.

**O'zbekistonda diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish tartibi.** Respublikamiz fuqarolarining dinka e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarini birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi<sup>7</sup>

Mamlakatimizda diniy tashkilotlarni tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki faoliyatini tugatish Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 20-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi qaroriga asosan olib boriladi.

Diniy tashkilotlar, yuqorida qayd qilinganidek O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo'Imagan fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi mumkin. Tashkilot ustavi qabul qilingandan keyin bir oy muddatda barcha zarur ta'sis hujjatlari Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralariga taqdim etilishi zarur. Bir diniy tashkilotning a'zosi bir vaqtning o'zida boshqa diniy tashkilotning a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Markaziy boshqaruva organi O'zbekiston Respublikasining kamida 8 ta hududiy tuzilmasi (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi)da faoliyat ko'rsatayotgan tegishli konfessiyalarning ro'yxatidan o'tkazilgan diniy tashkilotlari va diniy o'quv yurtlari vakillari ta'sis konferensiysi tomonidan tuziladi va Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

<sup>7</sup> *Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: 1998. - B. 5.*

Boshqa diniy tashkilotlar ustavi Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan, Din ishlari bo'yicha qo'mita yoki uning joylardagi vakili bilan kelishilgan holda, davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Taqdim etilgan hujjatlar bir oy muddatda ko'rib chiqiladi hamda ustavni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda diniy tashkilotlarga Adliya vazirligi yoki uning joylardagi idoralari tomonidan guvohnoma beriladi.

Tegis... hollarda diniy tashkilot faoliyatini tuga i va tarqatib yuborish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan qabul qilinadi.

**O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi diniy tashkilotlar.** Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlari nafaqat qonun bilan mustahkamlab qo'yilgani, balki amaliyotda uning asosiy tamoyillariga qat'iy rioya qilinayotgani hayotiy dalillar bilan tasdiqlanayotganini ta'kidlash zarur.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda diniy tashkilotlarning soni o'sdi. 1990-yilda respublikada 119 ta diniy tashkilot, 2 ta diniy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 2186 ta diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yirigi O'zbekiston musulmonlari idorasи, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rtta Osiyo Yeparxiyasi, Yevangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati. Shuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan<sup>8</sup>

O'tgan yillar davomida diniy o'quv yurtlarining ishi ham rivojlan-tirildi. Mustaqillikkacha bor-yo'g'i 2 ta diniy o'quv yurti ishlagan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 13 taga yetdi. Ilk marta diniy o'quv yurti talabalariga sti pendiya berish ta'sis etildi.

Toshkent islom institutini 1975–1990-yillar orasida 153 kishi, «Mir Arab» madrasasini 1950–1990-yillar orasida 272 kishi, umuman olganda, sobiq sovet davrida diniy bilim yurtlarini jami 425 kishi bitirgan bo'lsa, mustaqillik yillarda, respublikadagi 10 ta madrasa va Toshkent

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarning ro'yxatga olinishi haqida ma'lumotnomasi. 2005-yil 14-yanvar.

islom institutini 1991–2004-yillar orasida 5058 kishi bitirib chiqdi. Shu jumladan, imomlarning diniy ma'lumoti darajasi sezilarli oshirilishiga erishildi<sup>9</sup>. Bugunga kelib, ularning 90 foizdan ziyodi maxsus diniy ma'lumotga ega.

Fuqarolarga haj ibodatini ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Shu o'rinda 1994-yildan hojilar uchun imtiyozli valyuta konvertatsiyasi tashkil etilganini alohida qayd etish lozim. Ushbu maqsadda o'tgan yillarda 47 milliondan ortiq AQSH dollari ajratildi. 1991-yilda hajga boruvchilar soni 1500 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1996-yildan esa bu raqam yiliga 3800 ni tashkil etmoqda. Mustaqillik davrida jami 45 mingdan ortiq kishi haj ibodatini ado etdi<sup>10</sup>.

Yuqoridagi kabi o'zgarishlarni boshqa konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, 1998-yildan Pravoslav hamda Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsata boshladi, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasining 125 yilligi va Yevangel-Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi.

Bularning bari Xelsinki Yakunlovchi akti, Vena va Kopengagenda qabul qilingan hujjatlarda qayd etilgan shaxsning vijdon va din erkinligi borasidagi tamoyillarga to'la muvofiq keladi. Lekin ming afsuski, yuqorida zikr etilgan erkinliklarni suiste'mol qiladigan, ulardan o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanadiganlar ham mavjud. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Biz din bundan buyon ham aholini eng oliv ruhiy, axloqiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafborimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunchilikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yamaymiz. Chunki bu holni davlatimiz xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz»<sup>11</sup>.

1966-yil 16-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar pakti»ning 18-moddasiga muvofiq ravishda, O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni 3-moddasida: «Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin»ligi belgilangan<sup>12</sup>.

Mazkur qonunning 23-moddasiga ko'ra «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan

<sup>9</sup> O'zbekiston musulmonlari idorasini ta'lim tizimi. - T.: 2003. - B. 20.

<sup>10</sup> O'zbekiston musulmonlari idorasini ta'lim tizimi. - T.: 2003. - B. 16.

<sup>11</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - B. 44.

<sup>12</sup> Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri), O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: 1998. - B. 3.

mansabdar shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar». Bu modda qonun oldida barcha bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

1998-yilning 1-may kuni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy (184, 184-1, 201, 202-1, 240, 241-moddalar) va Jinoyat (141, 145, 156, 216, 217, 229-2, 244-1-moddalar) kodekslariga ham qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, quyidagi noqonuniy faoliyatlar uchun solinadigan jarimalarning miqdori ko'paytirildi:

- jamoat joylarida ibodat liboslarida yurish (diniy tashkilotning xizmatidagilar bundan mustasno);

- diniy marosim, namoyish va boshqa urf-odatlarni bajarishda qonun-qoidalarni buzish;

- O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan diniy tashkilot va jamoalarning faoliyatida ishtirok etishga jalb etish;

- prozelitizm va missionerlik faoliyatini yuritish;

- diniy ta'lmidtan saboq berish tartibini buzish.

Shuningdek, jinoyat kodeksi ham ma'muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng amalga oshiriladigan javobgarlik bo'yicha yangi moddalar bilan to'ldirildi.

**Diniy qadriyatlar va jamiyat ma'naviy hayoti.** Uzoq vaqt davom etgan masifikativ tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan tarixiy qadriyatları va o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Buyuk istiqlol esa ularning har tomonlama rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Eng avvalo, asrlar davomida umummilliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan diniy bayramlar – Ramazon va Qurbon hayitlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari (№ 193, 11.04.1991-y.; № 221, 20.06.1991-y.) bilan dam olish kuni deb e'lon qilingani va ular ommaviy ravishda, emin-erkin nishonlana boshlanganini ta'kidlash zarur.

Din sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o'rghanish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beباho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi<sup>13</sup>.

Ijtimoiy hayotni isloh qilish va yangilash jarayonida ma'naviy qadriyatlarning qudratli qatlamlari ham ochildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qator Farmon va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Farmoyishlari qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Imom Termizi, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulkholiq

<sup>13</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid. barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston. 1997. - B. 137.

G'ijduvoniy, Xoja Ahror Valiy kabi mutafakkirlarimizning yubileyлari o'tkazildi. Ulkan va boy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lmish islom nazariyasi, tarixi, falsafasi, huquqshunosligi, madaniyati va axloqi masalalarini chuqur o'rganish ilmiy tadqiqotlarda markaziy o'rin egallay boshladi.

Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Imam Buxoriyning hadislar to'plami 4-jildda, Burhoniddin Marg'inoniyning «al-Hidoya», Imam Termiziyning «Sunan at-Termiziy», Abu Lays Samarqandiyning «Tanbehul-g'ofilin» asarlari, Bibliya (Yangi ahd), shuningdek, Qadimiy ahdning ba'zi qismlari (Sulaymon hikmatlari, Rut, Ester va Yunus payg'ambarlar tarixi) ilk marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilganini ham ana shunday ijobiy natijalar sirasiga qo'shish mumkin.

Eski masjid, maqbara va ziyoratgohlar ta'mirlanib, yangilari bunyod etildi, diniy bilim yurtlari tarmog'i kengaytirilib, sifat va saviyasi takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmoniga binoan tashkil etilgan Toshkent islom universiteti ko'p qirrali ta'lim beruvchi, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy markazga aylandi. Bu yerda diniy va dunyoviy bilimlarni hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ma'rifiy islomni xalq orasida targ'ib eta oladigan mutaxassislarni tayyorlovchi tizim shakllandi, qiyosiy dinshunoslik va islomshunoslik sohalarida magistrlik, nomzodlik va doktorlik izlanishlari tashkil qilindi.

Universitetda davlat va jamoat tashkilotlarining mas'ul xodimlari dinning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, din niqobi ostidagi ekstremistlar jaholatiga qarshi ma'rifiy javob berish ko'nikmalari bo'yicha bilimlарини chuqurlashtirishlari uchun doimiy malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

## II bob. JAHON DINLARI TIZIMIDA ISLOM

**Jahon dinlari.** Milliy, irqiy mansubligidan qat'i nazar, butun Yer yuzi bo'ylab yoyilgan dinlarni jahon dinlari deb atash keng tarqalgan. Hozirda xristianlik, islam va buddaviylik ana shunday dinlardan hisoblanadi.

Bugungi kunda xristianlik 254 ta mamlakatda tarqalgan bo'lib, unga 2 milliard kishi e'tiqod qiladi. Islomga 172 ta mamlakatda yashovchi 1,3 milliard, buddaviylikka esa 86 ta mamlakatda istiqomat qiluvchi 700 million kishi e'tiqod qiladi.

### Xristianlik

Jahon dinlaridan biri bo'lgan xristianlikda pravoslavlik, katoliklik va protestantlik kabi uch yo'nalish mavjud bo'lib, ularning har biri o'z navbatida turli oqim, guruh va sektalardan iborat.

Xristianlik O'rta Osiyo mintaqasiga milodning ilk yillardan kirib kela boshlagan. Ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshiga kelib, Turkistonda 306 ta cherkov faoliyat ko'rsatib, 391 ming kishi pravoslavlikka e'tiqod qilgan. Bundan tashqari mintaqada 10,1 ming pravoslavlikka mansub bo'lgan «staroobyardchi»lar, 8,2 ming lyuteranchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar istiqomat qilgan.

**Katoliklik.** Katoliklik (yunon. umumiy, jahon) oqimi pravoslavlik va protestantlik kabi jahonda keng tarqalgan asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. 1054-yilda cherkovlarning bo'linishidan keyin vujudga keldi. Katolik cherkovi qat'iy markazlashgan bo'lib, yagona jahon markazi – Vatikan shahri (davlati) va rahbari – Rim papasi hisoblanadi.

Dunyoda 800 millionga yaqin katoliklar bor. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Boltiqbo'y va boshqa Yevropa mamlakatlari, Avstraliya hamda Lotin Amerikasi mamlakatlarida katoliklik hukmron diniy ta'limot hisoblanadi. Vatikan turli o'lkalarda o'zining yuzdan ortiq gazeta va jurnallarini nashr etadi. Hozirda Vatikan radiosи 32 tilda eshittirishlar olib boradi. Shuningdek, «Adjensia Internationale Fides (AIF)» nomli axborot agentligiga ega.

Bugungi kunda yurtimizda 4 ta Rim-katolik cherkovi va 1 ta markaz faoliyat ko'rsatmoqda.

**Pravoslavlik.** Xristianlikdagi uch asosiy yo'nalishdan biri bo'lgan pravoslavlik Rim imperiyasi parchalangandan keyin (395-y.) uning Sharqiy tarmog'i sifatida cherkovlar bo'linishi oqibatida (1054-y.) rasmiylashgan. Pravoslavlik dastlab Vizantiya imperiyasining davlat

dini bo'lgan. Uning oliv maqsadi xalqning ongida xudoga haqiqiy e'tiqod va insoniylikning yuksak tuyg'ularini shakllantirishdir. Bu oqimda yagona diniy markaz, cherkovlarning yagona boshlig'i yo'qligi bilan katoliklikdan farqlanadi.

Asosan Sharqiy Yevropa va Yaqin Sharqda keng tarqalgan pravoslavlilik Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya va Amerika kabi 15 avtokefal cherkovlarga bo'lingan. Pravoslavlukka mansub cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (Moskva patriarchati) 19 ming cherkov va 127 yeparxiyaga birlashgan bo'lib, shundan 150 dan ortiq cherkov va 5 yeparxiya xorijda faoliyat olib boradi.

Jumladan, bugungi kunda respublikamizda 31 ta cherkov, 3 ta monastir, 1 ta seminariya va 1 ta markaz faoliyat ko'rsatmoqda.

**Protestantlik.** Xristianlikdagi uch asosiyo yo'nalishdan biri bo'lgan protestantlik («protest» – norozilik) XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan noroziliklar natijasida yuzaga kelgan.

Protestantlik xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax (katolitsizmdagi a'rofдан tashqari) haqidagi, vahiy va boshqa shu kabi masalalarda umumxristian tasavvurlarini e'tirof etadi. Lyuteranchilik, swinglichilik, kalvinizm, unitarizm, sotsinchilik, anabaptizm, mennonchilik va anglikanlik protestantlikning ilk shakllari edi. Keyinroq baptistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, Iyegov shohidlari, mormonlar yoki «Oxirat avliyolari», «Najot armiyasi», «Xristian fani», pyatidesyatniklar kabi «diniy uyg'onish» hamda ilk xristianlik va Reformatsiya ideallariga qaytish shiori ostida tashkil topgan «so'nggi protestantlik» shakllari paydo bo'ldi.

Hozirda protestantlik dunyoning barcha qit'alarida tarqalgan. Protestantlikning jahon markazi – AQSHda bo'lib, bu yerda baptist, adventist, iyegov shohidlari kabi oqimlarning qarorgohlari joylashgan. 1948-yildan protestantlarning Jahon cherkovlari kengashi faoliyat olib bormoqda.

Protestantlik ilohiyoti xristian maskurasingin bir ko'rinishi sifatida muayyan taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. XVI asr ortodoksal ilohiyoti (M.Lyuter, J.Kalvin), XVIII–XIX asrlardagi yangi protestantlik yoki liberalizm ilohiyoti (F.Shleyermixer, E.Tryolch, A.Garnak), birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan «inqiroz ilohiyoti» yoki «dialektik ilohiyot» (K.Bart, P.Tillix, R.Bultman), ikkinchi jahon urushidan so'ng tarqalgan radikal yoki «yangi» ilohiyot (D.Bonxeffer va boshqalar) shular jumlasidandil.

Bunday oqimlarning ayrimlari O'zbekistonda ham rasman faoliyat yuritmoqda. Ular qatorida koreys protestant cherkovlari, adventistik,

baptistlik, Yevangel xristian-baptistlar cherkovi, to'liq injil xristianlari (pyatidesyatniklik), lyuteranlik, metodistlik, novoapostollik cherkovi, iyegov shohidlari kabilarning 124 ta cherkovi, 2 ta markazi va 1 ta seminariyasini aytib o'tish mumkin.

## Buddaviylik

Eramizdan avvalgi VI–V asrlarda Hindistonda yashagan Buddha Siddhartxa Gautama asos solgan buddaviylik jahon dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanadi.

Manbalarda uning Shakyamuni (shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand), Buddha(nurlangan), Dji pa(g'olib), Bxagavan (tantana qiluvchi), Gautama (urug' nomi) kabi nomlari keltirilgan.

Buddaviylik – diniy-falsafiy ta'lilot bo'lish bilan bir qatorda axloqiy me'yor, urf-odat, an'ana va san'atning o'ziga xos turlari, dunyoga munosabat va amaliy harakatlar uslublarini qamrab olgan ijtimoiy-madaniy tizim hisoblanadi.

Budda ta'lilotining mazmun-mohiyati *4 haqiqatda* mujassamlashgan, deb aytish mumkin. Jumladan, *birinchi haqiqatga* ko'ra «Azob-uqubat mayjuddir». Zero, har qanday hayot qyinoq, azob-uqubatdir. Kasallikka uchrash, yomon narsalarga duch kelish, o'zi xohlagan narsaga ega bo'lolmaslik kabi holatlar ham uning ko'rinishlaridir. Hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmasa-da, muayyan hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shundan kelib chiqib, buddaviylik dunyonи bor holicha qabul qilishga da'vat qiladi.

*Ikkinci haqiqatning* mohiyati «qiynoqlar sabablarining mavjudligi» dadir. Inson doimo hayotining davomiyligini ta'minlaydigan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Mana shu moddiy va ma'naviy ehtiyojlar «qiynoq»larning sabablari deb talqin qilinadi.

*Uchinchi haqiqatga* ko'ra, «qiynoqlarni tugatish mumkin». Bundan bu dunyo ne'matlardan butunlay forig' bo'lish va «men» degan fikrdan ajralib, inson his-tuyg'ularining to'la tugashi nazarda tutiladi.

*To'rinchchi haqiqat* mohiyatiga ko'ra, «qiynoqlardan qutulish yo'li mavjud»dir. Bu yo'l – to'g'ri tushunish, to'g'ri niyat qilish, o'zini to'g'ri tutish, to'g'ri anglash, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, to'g'ri fikr yuritish, to'g'ri gapirish kabi sakkizta bosqichda o'z ifodasini topgan. Bu yo'ldan borgan inson Buddha yo'lini tutadi.

Buddaviylik ta'lomi asosan Tripitakada(uch savat, uch qismidan iborat bo'lgani uchun shunday nom berilgan) mujassamlashgan. Buddaviylikning mazkur yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. Ular – Buddha targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), rohiblik axloqi va xonaqohlar nizomlariga

bag'ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddaviylikning falsafiy va ruhiy muammolarni bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidharma matnlari(abxidharma-pitaka)dan iborat. Shuningdek, Buddahayotigategishli rivoyatlar ham Tri pitakada jamlangan.

Bugungi kunda buddaviylar asosan Shri-Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Mongoliya, Koreya, Vietnam, Yaponiya, Birma, Tailand, Laos kabi davlatlarda va Rossianing Buryatiya, Qalmiqiston mintaqalarida istiqomat qiladilar.

Jahon dinlari ichida eng qadimiysi hisoblangan buddaviylik davrlar osha o'zi tarqalgan hududlar xalqlari qadriyatlariga katta ta'sir o'tkazib kelgan. Shuningdek, buddaviylikning asl vatani Hindiston bo'lsa-da, hozirda Yevropa va Amerika qit'alarida ham budda jamoalari mavjud.

Hozirda respublikamizda bitta buddaviylik jamoasi rasmiy ro'yxatdan o'tib, faoliyat ko'rsatmoqda.

## **Islom**

Islom dini (arab. – bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch dindan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15–16 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda bu ko'rsatkich Yer yuzidagi har besh kishidan birini tashkil etdi. 2025-yilda esa, dunyo aholisining 30 foizini Islomga e'tiqod qiluvchilar tashkil etishi mumkin.

Misr, Kuvayt, Saudiya Arabistoni kabi bir qator mamlakatlarda islom davlat dini (yoki rasmiy din) sifatida tan olingen bo'lsa, ayrimlarida «islom» so'zi davlatning rasmiy nomi tarkibiga kiritilgan: Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi.

1969-yilda tuzilgan Islom konferensiyasi tashkiloti(Munazzamat al-mu'tamar al-islomi)ga 57 mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1996-yildan a'zodir. Bundan tashqari, xalqaro nohukumat musulmon tashkilotlari orasida Islom olami uyushmasi, Islom olami kongressi, Islom olami tashkiloti, Yevropa islom kengashi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ular, asosan, islomni targ'ib qilish va yoyish, diniy arboblarning xalqaro uchrashuvlarini tashkil etish, turli mamlakatlardagi islom jamoalariga yordam berish bilan shug'ullanadilar.

Tojikistonning Tog'li Badaxshon hududida tarqalgan shialikning ismoiliylik oqimini hisobga olmaganda, mintaqamiz davlatlari aholisasi asosan sunniyliking hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi aholisining milliy tarkibi to'g'risidagi 2005-yil 1-yanvar holatiga bo'lgan ma'lumotlarga tayanib, mamlakatimiz aholisining taxminan 92 foizidan ortiqrog'ini musulmonlar tashkil etadi, deyish mumkin.

Sunniylik islomdagi asosiy yo‘nalishdan biri bo‘lib, unda hanafiylik, molikiylik, shofiiylik, hanbaliylik kabi 4 ta fiqhiy hamda ash‘ariya va moturidiya kabi 2 ta aqidaviy ta’limot bor.

**Hanafiylik.** Ushbu mazhabning asoschisi Abu Hanifa Nu‘mon ibn Sobit hisoblanib, u 699-yilda Kufa shahrida tug‘ilib, 767-yilda Bag‘dodda vafot etgan.

Hanafiylikda Qur’on va Sunnaga asoslanish bilan bir qatorda sahobalar so‘zi, ijmo, qiyos, istehson, urf-odat ham keng qo‘llanilgani va odamlarga yengilliklar yaratilgani bois Yer yuzi bo‘ylab keng tarqalgan.

Hoji Xalifa o‘zining «Kashfuz-zunun» asarida hanafiy mazhabi haqida quyidagi fikrni bildirgan edi: «To‘rt mazhab ichida birinchi o‘rinda turadigan va haqiqatga eng yaqin bo‘lgani, Abu Hanifa asos solgan mazhabdir. Negaki, ushbu mazhab boshqalaridan ittifoqqa asoslangani, ustuvorligi, oliv iste’dod mahsuli bo‘lgani, nazariyalarining kuchliligi va ilm al-ahkom sohasida to‘g‘ri fikrlar yuritilgani va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi».

Abu Hanifa shariat hukmlarini chiqarishda o‘ziga xos bir ilmiy uslubga asos soldi. Uning mohiyati Abu Hanifaning o‘zi tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarda yaqqol ifodasini topgan: «Birinchidan, Qur’onga murojaat qilaman. Kerakli hukmni undan topolmasam, Payg‘ambar Sunnalariga va ul zotdan ishonarli roviylar orqali rivoyat qilingan sahih asarlarga (hadislarga) murojaat etaman. Ulardan ham topolmasam, sahobalar so‘zlarini nazardan o‘tkazib istaganimni olaman, istamaganimni tark etaman. So‘ngra sahobalar so‘zlaridan boshqalarning so‘zlariga o‘taman. Ibrohim Naxa’iy, Sha’biy, Hasan Basriy va ibn Siyrin kabi mujtahidlarga kelganda, men ham ular kabi ijтиҳод qilaman».

Rivoyatchilardan Sahl ibn Muzohim: «Abu Hanifa har doim eng ishonchli rivoyatlarga tayangan, odamlarning o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga uringan. U qiyosga<sup>14</sup> asoslanib ish olib borardi, qiyos noqulay bo‘lganda istehsonga<sup>15</sup> o‘tardi, u orqali ham muammo o‘z yechimini topmasa, xalq orasida amalda bo‘lgan urf-odatga murojaat qilardi», — deb ta‘kidlagan edi.

Hanafiylik mazhabining shakllanishida movarounnahrlik, xususan, Samarqand va Buxoro ulamolarining hissasi katta bo‘ldi. Bu mazhabning shakllanishida islomning Amudaryodan shimoldagi yerlarga kirib kelish jarayonlarining ta’sirini ko‘rish mumkin. Islomni yangi qabul qilgan, ammo diniy amallarini to‘liq bajarmagan aholini musulmonlar qatoriga kiritish mumkinmi yoki yo‘qmi? Ular jizya solig‘ini to‘laydimi, yo‘qmi?

<sup>14</sup> Islom huquqida Qur’on va sunnada topilmagan masalaning yechimini topishda mazkur manbalarga qiyosan hukm chiqarish usuli.

<sup>15</sup> Islomning asosiy manbalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yechimi ko‘rsatilmagan masalalar ni yaxshi deb bilish, yaxshisini qabul qilish yo‘li bilan hal qilish.

Bu kabi masalalarini hal qilish uchun, avvalambor, imon tushunchasiga aniqlik kiritish lozim edi.

Islomdagi uch mazhab – hanbaliylik, molikiylik, shofiiylikda amal imonning tarkibiga kiradi deyilsa, hanafiylikda imon kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash imonli bo'lishga kifoya deyildi va bu ta'limot Qur'on oyatlari va hadislar asosida isbotlab berildi. Bu esa, bir tomonidan, fath qilingan yerlardagi mahalliy aholi tomonidan islomni qabul qilishni osonlashtirsa, ikkinchi tomonidan, jizya solig'idan ozod etardi. Shuning uchun ham, hanafiylik xalifalik markazidagi jizyani qabul qiluvchi taraf tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi va unga qarshi boshqa mazhab ta'limotlari ilgari surildi.

Hanafiylik o'z davrida Iraq, Misr, Mavarounnahr, Xuroson va Turkiya hududlarida, Abbosiylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Ayyubiylar, Mamluklar, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar davlatlari va Usmoniylar imperiyasida rasmiy mazhab sifatida qabul qilingan bo'lib, hozirgi kunda ham ko'plab musulmon o'lklarida keng tarqalgan.

Bugungi kunda Yer yuzidagi jami musulmon – sunniylarning 47% hanafiylik mazhabida e'tiqod qiladilar, deb hisoblanadi.

**Shofiiylik.** Mazkur mazhabning asoschisi Muhammad ibn Idris ibn al-Abbos ibn Usmon ibn Shofiiydir. U 767-yili Falastin (G'azza)da tug'ilib, 820-yilda Misrda vafot etgan.

Shofiiylarning diniy-huquqiy ta'limoti ko'proq molikiylarga yaqin turadi. Jumladan, shofiiylikda qiyos va ra'y (Qur'on va sunnada bo'limgan masalalar bo'yicha, o'z aqliga tayanib, hukm chiqarish)ni cheklab qo'llash kuzatiladi. Ular Qur'on va sunnaga yagona manba sifatida qarab, sunna Qur'oni to'Idiradi, xolos, uning o'zi hukm chiqarish uchun asos bo'lolmaydi, deb hisoblaydilar. Shuningdek, shofiiylikda madinalik rivoyatchilar aytgan hadis yoki ularning ijmolariiga tayanib ish ko'rish ustuvor hisoblanadi. Hozirda shofiiylik Misr, Indoneziya, Shimoliy Kavkaz musulmonlari orasida, Sharqiy Afrika mamlakatlarining ba'zilarida, qisman Suriyada va janubiy arab sultonliklarida tarqalgan bo'lib, jami musulmon sunniylarining taxminan 27% shu mazhabda e'tiqod qiladi, deb baholanadi.

**Molikiylik.** Ushbu mazhabga 713-yilda Madinada tavallud topib, 795-yilda vafot etgan Malik ibn Anas al-Asbaxiy asos solgan. Molikiy mazhabi hozirda asosan Afrika qit'asi, jumladan, Marokash, Jazoir, Tunis, Sudan, Senegal, Jibuti, Surinam, Nigeriya, Niger va Liviya kabi davatlarda yetakchi bo'lib kelmoqda.

Molikiylik tarafdorlari ilk islom davrida shakllangan fiqh me'yorlarini tan oladi, fiqhning asosiy manbai sifatida Qur'on va sunnaga tayanadi, faqat Madina shahrining olimlari yakdillik bilan ma'qullagan qoidalarni

ijmo' deb hisoblaydi. Shu bilan birga, musulmonlarning umumiy manfaatlariga javob beruvchi shariat hukmlariga monelik qilmaydi. Hozirda jami musulmon – sunniylarning taxminan 17% shu mazhabda e'tiqod qiladi.

**Hanbaliylik.** Ushbu mazhab 780-yilda Bag'dodda tug'ilib, shu yerda 855-yilda vafot etgan Ahmad ibn Hanbalning huquqiy qarashlari va fatvolarini namoyon etadi. Hozirda hanbaliylik faqat Saudiya Arabistonida rasman e'tirof etilgan bo'lib, boshqa mamlakatlarda uning tarafdorlari kam uchraydi.

Bu mazhab ko'proq hadislarga tayanishi bilan boshqalardan farq qiladi. Unda hadislar mohiyatiga yuqori o'rinn beriladi va ularga «qanday» deb savol bermasdan to'g'ridan-to'g'ri ishonish va ergashish zarur hisoblanadi. Hozirda jami musulmon – sunniylarning 1,5% shu mazhabda e'tiqod qiladi.

Sunniylikda fiqhiy maktablardan tashqari 2 ta aqidaviy ta'lilot – Ash'ariya va Moturidiya mavjud bo'lib, ular asosan Allohnинг zoti va sifatlari, imon, taqdir, oliv hokimiyat (imomat) masalalarida bir-biridan farq qiladi.

**Ash'ariya** – Abul Hasan Ali bin Ismoil (873–935) asos solgan kalom ilmlaridan biri bo'lib, uning yirik vakillari qatorida Boqiloniy (vaf. 1013), Abdul Qohir Bag'dodiy (vaf. 1037), Juvayniy (vaf. 1085), Shahristoniy (vaf. 1153) va Faxriddin Roziy (vaf. 1209) kabi olimlarni sanab o'tish mumkin.

Ash'ariy tarafdorlari moturidiylardan Allohnı aql bilan tanish vojibligi, muqallid (tili va amalida musulmon ekanini isbotlamagan, lekin o'zini musulmon hisoblaydigan kishi) imonining joizligi, imonning ozayib-ko'payib turishi kabi o'nlab aqidaviy masalalarda farq qiladilar.

Ongni, ya'ni aqlni diniy an'anachilikdan (naql)dan ustun qo'yish va shariatni musulmonlar hayotini boshqaruvchi, deb hisoblash ushbu ta'lilotning asosini tashkil etadi. Taqlidni, ya'ni diniy aqidalarga ko'r-ko'rона ergashish, ularga tanqidiy yondashmasdan bo'ysunish, itoat etishni inkor qilish va hatto, muqallidlarni (taqlid qiluvchilarni) mo'minlar emas, deb hisoblash ham ushbu ta'lilotga xos xususiyatlardandir.

**Moturidiya** – buyuk imom – «Imom al-huda» («Hidoyat yo'li imomi»), «Imom al-mutakallimin», («Mutakallimlar imomi») nomlari bilan mashhur bo'lgan Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy (870–944) asos solgan ta'lilotdir.

U Samarqandning Moturid qishlog'i (hozirgi Jomboy tumani)da tavallud topib, 944-yili shu yerda vafot etgan va shahar chekkasidagi

Chokardiza («chokar» askar, «diza» qal'a yoki «Chohidigari janna», ya'ni «jannat 'ul-boqiya» — Alloh rozi bo'lgan zotlar jannati) qabristoniga dafn etilgan.

Moturidiya ta'lomitida sof din doirasidan chiqmagan holda aql-idrok va mantiqqa asoslangan bilim ulug'lanadi. Mu'taziliylikda imonning shartlari 3 ta, ya'ni til bilan iqror, dil bilan tasdiq va amal bilan ijro etish, deyilsa, moturidiylikda bundan farqli ravishda imonning shartlari 2 ta, ya'ni til bilan iqror etish va dil bilan tasdiqlash deb ta'rif qilinadi. Shuningdek, moturidiylikda har bir insoning taqdiri Alloh tomonidan belgilab qo'yilganiga qaramay, u o'z xatti-harakatlari uchun javobgar, ya'ni imtihonlar uchun yaratilgan insonga dunyo sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tishi va to'g'ri yo'lni topishi uchun keng imkoniyatlar berib qo'yilgan, u o'z faoliyatida erkin, Qur'oni karim azaldan mavjud va boshqa narsalarga o'xshab yaratilmagan, deb hisoblanadi.

**Shialik.** Islomdag'i ikki yirik yo'nalishdan biri bo'lgan shialik, hokimiyat masalasida musulmon jamoasida yuzaga kelgan ixtilof natijasida vujudga kelgan.

«Shia» so'zining to'liq shakli «Shi'at Ali» («Ali tarafдорлари гурухи») bo'lib, bu nom Ali ibn Abi Tolib (656–661) va uning avlodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan.

Shialikda imomat masalasi assosiy diniy arkonlardan hisoblanib, u jamiyat manfaatlaridan emas, balki din asoslardan kelib chiqadi. Unga ko'ra, rahbar jamoa tomonidan saylanmay, balki u meros sifatida o'tadi. Mazkur ta'lomitga binoan, Muhammad payg'ambar Alini imom etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlariga qonuniy meros sifatida vasiyat yo'li bilan uzatiladi. Shuningdek, imomlik payg'ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanadi.

Shialar aynan ushbu masalada o'zaro bir necha firqalarga bo'linib ketganlar. Jumladan, rofiziylar («inkor etuvchilar», «tan olmaydiganlar») Muhammaddan keyingi chahoryor xalifalardan Abu Bakr va Umar ibn Xattob hokimiyatini tan olmaydilar va payg'ambar o'zidan keyin hazrati Alini voris qilib qoldirgan, deb da'vo qiladilar. Shuningdek, zaydiylik, isnoashariylik, ja'fariylik, ismoiliylik, fotimiylik kabi guruhlarda ham imomat masalasida o'ziga xos talqinlar mavjud.

Shialik Eronda hukmron e'tiqod hisoblanadi. Iroq, Afg'oniston, Hindiston va Pokistonda ham shialar bor. Ozarbayjon va Tojikistonda (Pomirda ismoiliyliar) ham aholining muayyan qismi shialikka e'tiqod qiladi. Manbalarda Yer yuzida 97 milliondan ortiq musulmonlar shialikka mansubligi qayd qilinadiki, bu jami islomga e'tiqod qiluvchilarning taxminan 7,5 foizini tashkil etadi.

**Xorijiylik.** Islomda dastlab paydo bo'lgan yo'nalish xorijiylikdir. Xorijiyilar — ajralib chiqqanlar, ya'ni isyonchilar degan ma'noni

anglatadi. Xalifa Ali ibn Abi Tolib va Muoviya tarafдорлари билан xalifalikda hukmronlik uchun kurash ketayotgan bir davrda vujudga keldi. Ular xalifa diniy jamaa tomonidan saylanadi va unga bo‘ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto, qul yoki habash bo‘lsa ham) xalifa qilib saylanishi mumkin; agar xalifa jamaa manfaatlarini himoya qilmasa vazifasidan bo‘shatiladi va hatto, qatl qilinadi; e’tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim, deb hisoblaganlar. E’tiqodsiz va gunohkor kishilarni jazolashda murjiiyalar (jazo muddatini kechiktirishni istovchilar) tarafдорларига qarshi turganlar.

VIII asr ikkinchi yarmiga kelib, yo‘nalish o‘z rahbarlari nomi bilan ataluvchi Azraqiy, Ibodiy, Sufriy kabi guruhlarga bo‘linib ketdi. Olimlarning fikricha, ichdan bo‘linish hamda ummaviy va abbosiy xalifalarning VII—IX asrlarda xorijiylarga qarshi keskin kurash olib borishi natijasida ularning katta qismi qirib tashlandi, qolganlari Shimoliy Afrikada o‘z davlatini vujudga keltirdi. Hozirda xorijiylarning ibodiy sek-tasi Mag‘rib mamlakatlarida (Jazoir, Tunis va boshqalar), Ummon va Tanzaniyada uchraydi.

### **III bob. ISLOMNING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI: TARIX VA HOZIRGI ZAMON**

**Islomgacha bo'lgan davrda dinlarning rivojlanishi va jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni.** O'tmishda mintaqamiz, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida turli o'ziga xos diniy qarashlar va unga asoslangan urf-odat va an'analar mavjud bo'lgan. Xususan, tadqiqotchilar O'zbekistondagi ibtidoiy dinlar sifatida fetishizm, totemizm, animizm, shamanizm, magiya va sehrgarlik turlarini sanab o'tadilar.

**Fetishizm** (fr. fetiche – «but», «sanam», «tumor», umuman muqaddas buyum) mohiyatan tabiatdagi jonsiz narsalarga sig'inish hisoblanib, unga ko'ra alohida buyumlarda kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqeа-hodisalarni o'zgartirish qudrati mavjud bo'ladi. Bunday e'tiqod shaklini ibtidoiy davr insonining bilimsizligi bilan emas, balki o'z hayotini muayyan darajada tartibga solish, unga ma'nomazmun bag'ishlash, o'tkinchi olamdagи o'rnni aniqlash, unga bo'lgan munosabatini oydinlashtirishga intilishining hosilasi deb qarash o'rinni bo'ladi. Bu kabi e'tiqod shakllarini, albatta, jahon dinlariga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ularda mazkur dinlarga xos bo'lgan va hayotning deyarli barcha—ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy jihatlarini qamrab olishdek mukammal tizim yo'q.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va an'analarida, turli tumor, ko'zmunchoq va har xil ramzlarga bo'lgan munosabatida ham saqlanib qolganki, bundan o'z davrida u kishilar hayoti, dunyoqarashi va xulqini belgilashda nechog'li muhim ahamiyat kasb etgani haqida xulosa chiqarish mumkin.

**Totemizm** (Shimoliy Amerikada yashagan Ojibva hindu qabilasi tilidan olingen bo'lib, «uning urug'i» ma'nosini anglatadi) mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishdir. Ushbu e'tiqod shakliga ko'ra, faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliqlarigina totemni yeyishlari mumkin bo'lganini e'tiborga olmaganda, totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni ozuqa sifatida iste'mol qilinishi taqiqlangan. Hozirda ham ko'plab xalqlarda totemizmning unsurlari saqlanib qolgan. Hindlarda sigirni muqaddaslashtirish, qirg'izlarda oq bug'uning afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanishi kabi ko'rinishlarda uchraydigan bunday unsurlar bugungi kunda ham kishilar dunyoqarashi, ma'naviyatida sezilarli o'rinni egallab kelmoqda.

**Animizm** (lotincha «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi) ruhlarga sig'inish, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy qarashlar shakllaridan biri

hisoblanadi. Animizmda tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va Yer, Quyosh va Oy, yomg‘ir va shamol, momaqaldoiroq va chaqmoq kabilar ilohiylashtirilib, ularda ruh mavjud deb bilingan. Ayni paytda, animizm doirasida relefning ayrim alohida qismlari – tog‘lar va daryolar, adir va o‘rmonlar kabi odam e‘tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo‘linib, hatto, ko‘p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o‘xhash narsalar ham jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shundan kelib chiqib, har qanday voqeа-hodisalarga e‘tibor bilan munosabatda bo‘lingan, qurbanliklar qilingan, ruhlar haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan. Animizm bugungi kunda ham kishilar ma’naviyati, kundalik xulqi va faoliyatida muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Jumladan, o‘lganlarning hurmatini o‘rniga qo‘yib, ular haqida faqat yaxshi xotiralarni eslash, o‘tganlar ruhi doimo tiriklar bilan birgaligi, Yer, suvdan oqilona foydalanmaslikning gunoh hisoblanishi to‘g‘risida tasavvurlarning ildizlari animistik qarashlarga borib taqalishini ta‘kidlash zarur.

**Shamanizm** (tungus tilida «shaman» so‘zi – «sehrgar» ma’nosini anglatadi) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta’sir etish maqsadida sehrgarlik afsun, magiyaga asoslangan holda amalga oshiriladigan marosimlar, urf-odatlar majmui sifatida chiqadi. Unda ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog‘lanish asosiy amaliyot hisoblanadi.

O‘z vaqtida, Markaziy Osiyoda sehrgarlik marosimlarini yakka holda yoki jamoa bo‘lib amalga oshirish amaliyoti keng tarqalgan. Afsungarlik ko‘zlangan maqsadga qarab biror bir zarar yetkazish niyatida qilinadigan yovuz dushmanqa qarshi masalan, qurol-aslahalarni sehrlashda qo‘llanilgan harbiy, «issiq» yoki «sovuq» qilish uchun ishlatiladigan sevgi, davolashda ishlatiladigan tibbiy afsungarlik kabi shakkarda namoyon bo‘lgan. Sehrgarlikdan yomg‘ir chaqirish yoki shunga o‘xhash holda ob-havoni o‘zgartirish maqsadlarida ham foydalanilgan. Mintaqalarning xalqlari hayotida hozirda ham shamanizm unsurlarini uchratish mumkin. Xususan, kishilar orasida yovuz va sevgi afsungarligining kuchiga ishonch hanuz sezilarli ta’sirga egaligini qayd etish lozim.

**Zardushtiylik** Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi II—I ming yilliklarda vujudga kelgan. U dunyodagi eng qadimiylardan biri hisoblanib, unga mil. av. XII—VI asrlarda Markaziy Osyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osyo xalqlari e’tiqod qilganlar.

Zardushtiylik boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosa va bilvosita eng ko‘p ta’sir o‘tkazgan dindir, deyish mumkin. Zardushtiylikda har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tananing qayta tirlishi, tana va ruh qayta birlashib

mangu yashashi haqidagi ta'limotlar mavjud. Zardushtiylik dini Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa, mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblan mish «Avesto»da u «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi ma'nolarda talqin etiladi.

Zardushtiylik shuningdek, «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» degan nom bilan ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyoti — Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu — «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir.

Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan monoteistik ta'limot hisoblanadi.

Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilishi, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ilik, hayot va o'lim o'rtasidagi abadiy kurashi haqidagi g'oyalalar yotadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Aximan) ifodalaydi.

Zardushtiylikda imon fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligiga asoslanadi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, Quyoshga qarab, uni olqishlab sig'inishi shart hisoblangan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur — suv, olov, yer va havo ulug'lanadi.

«**Avesto**» zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblanadi. U «Apastak», «Ovisto», «Ovusto», «Abisto», «Avasto» kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. «Avesto» Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

U bizgacha to'liq holda yetib kelmagan. Avesto haqida Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistoning) 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtda Abistoning beshdan uchi yo'qolib ketdi».

Bizgacha yetib kelgan Avesto, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U «Avesto 30 nask (bo'lim) edi, majusiyalar (zardushtiylar) qo'lida 12 nask chamasi qoldi», — deb yozgan.

VIII asrda O'rta Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan.

Zardushtiylik o'sha davrda Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayotida

muhim ahamiyat kasb etdi. U behuda qon to'kuvchi qurbanliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etdi. Shu o'rinda zardushtiylikda ilgari surilgan «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» kabi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ta'kidlash zarur.

**Buddaviylik** O'zbekistonning janubiy hududlarida eramiz boshlarida tarqala boshlagan. Uning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda kushonlarning hukmronligi bilan bog'laydilar. Imperator Kanishka (I asrning oxiri – II asrning boshlari) davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan. Jumladan, Kanishka zarb qildirgan tangalarda boshqa ilohiyotlar bilan bir qatorda Buddha tasviri ham uchraydi. Xitoylik Syuan-Szyan bergen xabarga ko'ra, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta buddaviylik xonaqohi (sangarama) va mingta rohib faoliyat olib borgan.

Buddanining hayotiy aylanishlar bosqichlarini ifodalovchi ho'kiz, sher, fil, ot ramzları keng tarqalgan (masalan, fil – Yer uzra ko'tarilgan Buddha ramzi).

XX asrning boshlaridayoq Amudaryoning o'ng qirg'og'ida buddaviylikka mansub ko'plab qimmatbaho metallar – oltin yoki kumush-dan yasalgan ko'psonli tangalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklar topilgan.

Surxondaryo (Qora-tepa, Fayoz-tepa, Dalvarzin-tepa, Qorovul-tepa) va Farg'onona vodiysi (Quva)da topilgan Buddanining oltin suvi yuritilgan haykallari, bronza shamdonlar, turli haykalchalar, hunarmandchilik buyumlari va fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari o'sha davr hayotiga xos madaniyat va turmush tarzini aks ettiradi.

Hozirda Toshkentdag'i O'zbekiston tarixi muzeysi zalida mashhur Ayritom hoshiyalaridan mohirona olingen va bir paytlar buddaviylik ibodatxonalarini bezab turgan me'moriy-tasviriyy bezak qismi hisoblangan nusxalar hamda alohida bo'laklarini tomosha qilish mumkin.

Milodning birinchi asrlarida Amudaryo havzasidagi yerlarda hukmron din sanalgan buddaviylik arablar kelishiga qadar saqlanib turgan va buddaviy rohiblar katta mavqega ega bo'lganlar.

Sufiylikdagi ayrim tariqatlarning shakllanishida buddaviylikning ta'sirini ko'rish mumkin. Xususan, hayot mashaqqatlariga bardoshlilik, o'zini qiyinchiliklarga solish yo'li bilan nafsnı tarbiyalash, tarkidunyochilik kabi jihatlar buddaviylikka ham xos jihatlardan edi.

**Xristianlik** ta'limotining Markaziy Osiyo mintaqasida tarqalishida unga e'tiqod qilgan jamoalarning Sharq va Janubga harakatlari davrida amalga oshirgan keng missionerlik faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Sharq davlatlarida birinchi yuz yillikdayoq tarqalgan xristianlik siyosiy

sabablar bilan bog‘liq holda bir necha bor rivojlanish va tanazzulga uchrash davrlarini boshdan kechirdi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyo janubiy chegaralari ning yaqin yerlarida joylashgan jamoalar bu yerda xristianlikning paydo bo‘lishida asosiy o‘rinni egallaganlar.

Ko‘p sonli manbalar nufuzli obro‘ga ega bo‘lgan, xristianlikka e’tiqod qilgan forslar haqida ma’lumot beradi. Tadqiqotchilarining fikricha, nasroniylik Eronda shunchalik kuchayganki, hatto u zardushtiylikning o‘rnini ham egallashi mumkin edi, ammo arab yurishlari bunga o‘za’sirini o‘tkazdi.

VII asrda – patriarx Iyeshuyab II davrida (628–643) mintaqada nasroniy jamoalari soni ko‘paygan. Bu davrda Samarqandda mitropoliya faoliyat ko‘rsata boshlagan bo‘lsa, ilk o‘rtta asrlarda (IV–VIII asr) Sug‘d, Usrushana, Shosh, Xorazmda nestorian xochlari suratlari, tasviri tushirilgan tangalar zARB etilgan.

Sug‘dga ko‘chib kelgan nasroniylar bilan birga ularning urf-odatlari ham kirib kelgan. VI – VII asrlarga taalluqli Misrdagi muqaddas Mina<sup>16</sup> ibodatxonasi dagi kabi keramikadan ishlangan nasroniylikka xos haykalchaning Samarqandda topilishi shundan dalolat beradi.

Jizzax viloyatida Vinkerd nomli nasroniy aholisi yashagan. Bu aholi hunarmandchilik bilan ham shug‘ullangan. Vazkerd hududidagi g‘or devorlarida Ezgulik, Sara va Yelizavetaning uchrashuvi, Iso tug‘ilishi ifodalangan suratlarning topilishi ham o‘lkada xristianlik, u bilan bog‘liq an‘analarning rivoj topganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoga arablarning kirib kelishi xristianlik nufuzining asta-sekin kamayishi va islom dinining keng qaror topishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, islomga qadar xristianlik vakillari Markaziy Osiyoda ziyoli va hunarmandlardan iborat bo‘lib, bu din mintaqada ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelguniga qadar mintaqada moniylik, mazdakiylik kabi dinlar ham mavjud edi.

Moniylik dinining asoschisi Surayk Patik (216–277) hisoblanadi. Keyinchalik unga Moniy – «Ruh» Jaqabi berilgan. Uning arabiylashtirilgan nomining to‘la shakli X asr arab tarixchisi Ibn an-Nadimning «Fihrist» kitobida Moniy ibn Fattaq Bobak ibn Abi Barzom deb zikr etilgan.

**Moniylik** dinining asosini nur va zulmat o‘rtasidagi azaliy kurash, nuring zulmat ustidan g‘alaba qozonishiga ishonish g‘oyasi tashkil etadi. Moniylik zardushtiylikdagi dualizm – yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan qorong‘ilik, ruhiy olam bilan moddiylik orasidagi kurash va

<sup>16</sup> Mina – avliyoning ikki yelkasida xoch, oyoqlari ostida ikkita yotgan tuya tasviri ifodalangan buyum.

xristianlikdagi missiya (xaloskorning kelishi) haqidagi ta'limotlarni o‘zida mujassam qilgan. Moniy o‘zini «Samo nuri elchisi» deb hisoblagan hamda o‘z ta’limotida odamlarni urushmaslikka, mol-dunyo to‘plamaslikka da’vat etgan.

**Mazdakiylilikning** asoschisi – Mazdak (470–529) bo‘lib, bu din asosida xudo oldida har qanday inson teng, jamiyat boyliklari hamma uchun barobar degan g‘oya yotadi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy tengsizlik yovuzlik alomati deb hisoblangan. Jamiyat a‘zolari o‘zar o‘yordam,adolat va tenglikka chaqirilgan. Boylikka ruju qo‘yish, shaxsiy manfaatlar uchun kurash inkor etilgan. Bu din V asr oxirlarida Markaziy Osiyo va Eron hududlarida ijtimoiy tengsizlikni yo‘qotish uchun kurash sifatidagi harakatga aylangan.

499-yili Sosoniy podshohlaridan Qubod I mazdakiylar yordamida taxtni egalladi, natijada mazdakiylar mavqeyi kuchaydi. Mazdakiylar bu mavqedan foydalanib, boylarni talon-taroj qila boshladilar. VI asrning 30-yillari arafasida Qubod I ning vorisi Xusrav mazdakiylar harakatini bostirdi.

Qayd etilgan fikrlar Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelishi arafasida mintaqada dinning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

Zikr etilgan dinlar Markaziy Osiyo hududida islomdan avvalgi ma’naviy-ijtimoiy hayotni belgilovchi asosiy omil bo‘lgan edi. Ammo bu dinlar shiori ostida talon-taroj qilish, bosqinchilik harakatlarini amalga oshirish ishlari uzoqqa cho‘zilmadi. Vaqtning o‘zi bu kabi salbiy holatlarning yo‘qolib ketishiga olib keldi.

Markaziy Osiyoning islomlashuv jarayonidan keyin ham avvalgi dinlardagi ezzulik, insonparvarlik, bag‘rikenglik jihatlari turli ko‘rinishlarda saqlanib qoldi.

**Hozirgi O‘zbekiston hududida islom tarixi.** Islom dinining Markaziy Osiyoda tarqalishi bevosita arablarning bu o‘lkaga kirib kelishi va ularning hukmronligi davri bilan bog‘liq. Arablarning Markaziy Osiyoga yurishlari 643–644-yillarda boshlangan bo‘lsa-da, mintaqaning arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704–715) davrida amalga oshirildi. Arablar bosib olgan yerlar «Mavarounnahr» («Daryo ortidagi yer») va arablarga bo‘ysunmagan hukmdorlar yerlari «Arodi at-turk» («Turklar yerlari») deb ataldi. Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kechdi.

Abu Muslim (747–755) qo‘zg‘olonigacha Markaziy Osiyoda islomdan avvalgi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig‘ishdek vazifalarini bajarish orqali o‘z mavqelarini saqlab turdilar.

Arab va arab bo‘limgan musulmonlarning teng huquqliligi uchun kurashning boshlanishi ham aynan shu davrga to‘g‘ri keldi. Bu harakatda murjiiyalar yetakchi o‘rinni egalladilar va o‘lkada arab bo‘limgan musulmonlar haq-huquqlarining arablar tomonidan poymol etilishiga qarshi faol harakat (820–840-yillar) olib bordilar. Xususan, Murjiyy al-Horis ibn Surayj qo‘zg‘oloni (734–746) Movarounnahr aholisi tarafidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi. Murjiylarning islom amallarini bajarmagan kishi imondan ajralmasligi haqidagi qarashlari esa yerli aholining islomni qabul qilishini osonlashtirdi. Shuningdek, bu ta’limot yangi shakllanayotgan islom jamiyatida arab va ajam (arab bo‘limgan) xalqlarining teng huquqliligi milliy-madaniy qadriyatlarining saqlab qolinishini ta’minalashga imkon yaratib berdi. Abu Muslim harakati (749-yil) g‘alabasi oqibatida buning amalda ta’milanishi murjiyyilik g‘oyalarining siyosiy-ijtimoiy sohadan ilohiyot fani jabhasiga ko‘chishiga zamin yaratdi.

Islom ilmlari VIII asrda Xuroson orqali Movarounnahrga kirib kelgan bo‘lsa, IX asrdan boshlab mazkur ilmlar mintaqaning o‘zida rivoj topa boshladidi. Bu davrga kelib, avval islom olamida tan olingan olti sahih hadislar to‘plami (as-sihoh as-sitta), so‘ngra ularning qatoriga uch to‘plam qo‘shilib to‘qqiz kitob (al-kutub at-tis‘a) shakllandi. Ulardan uchtasi movarounnahrlik ulamolar – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiylar tomonidan jamlandi.

Aynan shu davrdan to mo‘g‘ullar bosqinigacha bo‘lgan davrda Movarounnahrda islom dini turli siyosiy sabablarga ko‘ra Xurosandan ayri holda rivojlandi va islom yerlik aholining «o‘z dini»ga aylandi.

Mo‘g‘ullar bosqini barcha soha kabi islom dini va ilmlari rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Yerlik ulamolar qirildi va qolganlari uzoq o‘lkalarga safar qilishga majbur bo‘ldilar.

Temuriylar sulolesi va undan keyingi davr Movarounnahrda tasavvuf yo‘nalishining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Chor Rossiyasi va Sovet davlati hukmronligi vaqtida islom dinini xalq hayotidan uzoqlashtirishga harakat qilish, islomiy qadriyatlarning cheklanishi va din ulamolarining yarim yashirin faoliyatga o‘tish davri bo‘ldi.

Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarga erkinlik berilishi islomning jamiyatdagi o‘z o‘rnini egallahiga imkon yaratdi. Shu bilan birga yashirin holatda rivoj topgan va din niqobidagi turli mafkuralarning ta’sirida shakllangan qarashlarning yuzaga chiqishiga ham qulay sharoit yuzaga keldi.

Diniy mutaassiblikka beparvolik bilan munosabatda bo‘lish ham, diniy e’tiqodni umuman taqiqlash ham faqat salbiy oqibatlarga olib kelishi tabiiy. Shundan kelib chiqib, mustaqil O‘zbekiston din sohasida sobiq

ittifoq davridagi dinni umuman yo'q qilib yuborishga intilishdek ateistik yondashuvdan farqli ravishda, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnnini to'g'ri belgilash va ayni paytda, din niqobi ostidagi har qanday g'arazli harakatlarning oldini olishga qaratilgan siyosatni amalga oshira boshladi.

**Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning islom ilmlari va madaniyati rivojidagi o'rni.** Markaziy Osiyoga VII asrda kirib kelishni boshlagan islom dini VIII—IX asrlarda o'zining ilmiy rivojlanish davrini o'tadi. Xususan, IX asrda Markaziy Osiyoda hadis ilmi gullab-yashnadi. Yurtimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy (810—870), Imom Termiziy (824/825—892), Imom Dorimiy (794—869) kabi muhaddislar islom olamida tan olingan, Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turuvchi hadis to'plamlarini tuzdilar. Arabiston yarim orolidan Xuroson orqali kirib kelgan islom ilmlari Movarounnahr ulamolari tomonidan rivojlantirilib, o'zining eng yuqori cho'qqisini egalladi. Imom Buxoriy «al-Jome as-sahih», Imom Termiziy va Imom Dorimiy «Sunan» hadis to'plamlarini tuzdilar.

Manbalarni o'rganish VIII—XII asrlar mobaynida Movarounnahrda 3000 dan ortiq ko'zga ko'ringan muhaddislar yashab, faoliyat yuritganliklarini ko'rsatadiki, bu ham mazkur davrda islomiy ilmlar rivojlanish darajasi haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Hadisshunoslik bilan bir qatorda o'lkada fiqh ilmi ham rivoj topdi. Abu Hanifa ilgari surgan islom huquqidagi erkinlik tamoyillari o'lkamizdan chiqqan «Shamsul Aimma» — Saraxsiy (1009—1094), Burhoniddin Marg'inoniy (1123—1197) kabi ulamolar tomonidan takomillashtirildi. Imom Moturidiy (870—944) va Abu Hafs Nasafiy (1068—1142) kabi olimlar hanafiy mazhabi asoschisining islom aqidasiga oid ta'limotlarini rivojlantirib, mukammal holatga keltirdilar.

IX—XI asrlar esa islom falsafasining rivojlanish davri bo'ldi deyish mumkin. Bu sohada ham Markaziy Osiyolik allomalarining xizmatlari katta edi. Jumladan, Sharqda «Muallimi soniy» (Ikkinch muallim) nomini olgan Abu Nasr Forobiy (873—950) o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida ideal jamiyat kishilarining qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlarini ilgari surdi. Yunon falsafasini mukammal o'rganib, unga monand ravishda islom falsafasini rivojlantirgan Abu Ali ibn Sino (980—1037) tabiiy fanlar bo'yicha ham jahon ilmi xazinasiga o'zining bebaho hissasini qo'shdi.

Abu Rayhon Beruniy (973—1048) o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Saydana», «Qonuni Mas'udiy» kabi asarlari orqali o'z davriga qadar yashab o'tgan olimlarning bizgacha saqlanib qolmagan asarlarida mavjud bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni kelajak avlodlarga yetkazdi.

Islomdagi yirik yo‘nalishlardan biri bo‘lgan tasavvuf bo‘yicha buyuk ajdodlarimiz qoldirgan o‘chmas izlari kelajak avlodlar uchun yo‘lchi yulduz vazifasini o‘tadi va o‘tamoqda. Abdulxoliq G‘ijduvoniy (1103–1179), Najmuddin Kubro (1145–1221), Bahouddin Naqshband (1318–1389), Xoja Ahror Valiy (1404–1490) kabi sufiy avliyolarning diniylik va dunyoviylikni barobar olib borish, halol mehnat bilan kun kechirish, o‘z xalqi, vatanini uchun fidoyilik kabi g‘oya va ta’limotlari hozirga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Yuqorida zikr etilgan sohalar bo‘yicha ilm-fanning o‘lkamizda taraqqiy topishi shu mintaqaning qadimiyligi boy madaniy, ma’naviy, iqtisodiy imkoniyatlar zaxirasiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qayd etilgan ayrim dalillar ham islom ilmlari va musulmon madanjati rivojiga markaziy osiyolik mutafakkirlarning qo‘sishgan hissasi nechog‘lik salmoqli bo‘lganini tasavvur qilish imkonini beradi.

**Tasavvuf ilmi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. Bundaykorlik va bag‘rikenglik an‘analarining takomillashuvi.** Tasavvufga asos bo‘lgan tarkidunyochilik kayfiyatları islom bilan deyarli bir davrda yuzaga keldi. Abu-d-Dardo, Abu Zarr al-G‘iforiy, Huzayfa kabi sahabalar sufiylikning ilk namoyandalari hisoblanadi. Sufiylikning islomdagi mistik-asketik oqim sifatida shakllanishi VIII–IX asrlarga tegishli. Bu davrda sufiy yoki tasavvuf atamalari hali keng tarqalmagan va uning o‘rnida zuhd (tarkidunyochilik) yoki zohid, obid so‘zlarli ishlatalar edi.

Tasavvufning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishiga zamin yaratgan omillar qatorida o‘sha davr musulmon jamiyatlaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi va uning natijasida kelib chiqqan ma’naviy-g‘oyaviy izlanish hamda boshqa dinlarning, xususan, xristianlikning ta’sirini ko‘rsatish mumkin.

Sufiylik ta’limoti mu’taziliylardagi ilohiyotga oid mavhum fikrlar, obro‘li shaxslarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, muqaddas matnlarga so‘zmaso‘z itoat etishdan farqli o‘laroq, insonga asosiy ob‘ekt sifatida qaraydi. Xususan, insonning amallarini boshqaradigan ruhoniyatining mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga e’tibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his etish, Allohga bo‘lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo‘lgan intilish ularga xos xususiyatlardan edi. Shuning uchun ham, ziyrak psixolog, «qalblar va fikrlar ilmi» («ilm al-qulub val-xavotir»)ga asos solgan Hasan Basriy (vaf. 728) sufiylikning asoschilaridan hisoblanadi.

IX asr davomida Basra, Bag‘dod va Xuroson sufylari orasida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg‘in harakatlar davom etdi eng nufuzli mакtablar yuzaga keldi. Sufiyning «ahvol»,

«maqomot»lariga batafsil tavsiflar berildi. Boshqa mistik ta’limotlar kabi sufiy bosib o’tganida «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishiga sabab bo‘ladigan yo‘l (tariq) belgilab berildi.

Tasavvufda Allohgaga yetishish faqatgina yuzini ko‘rish bilan emas, unga qo‘silib ketish (fano/baqa) bilan bo‘lishi ham mumkin degan fikr ilgari surildi. Insonning Xudo bilan qo‘silib ketishi haqidagi g‘oyalarni ilgari surib, «Anal-Haq» (Men – Haq, ya’ni xudoman) degan Mansur Xalloj kabi kishilarning qatl etilishi esa boshqa sufiyarlarni hushyorlikka – shariat chegarasidan chiqmay faoliyat yuritishga chaqirdi.

X asr oxiri XI asr Tusiy (vaf. 988), Kalabodiy (vaf. 990 yoki 995), Abu Tolib Makkiy (vaf. 998), Sulamiy (vaf. 1021) kabilalar o‘z asarlarida tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar. Tasavvuf ta’limotining islomdag‘i yo‘nalish sifatida tan olinishida esa Abu Homid G‘azoliy (vaf. 1111), Abdulqodir Jiloniy (vaf. 1161) kabi ulamolarning xizmatlari katta bo‘ldi.

XII asr o‘rtalari XIII asr boshlarida sufiyalar tashkil etgan zoviyalarda<sup>17</sup> xususan, shaharlarda tasavvuf tariqat (suluk)lari vujudga kela boshladi. Bag‘dodda paydo bo‘lgan dastlabki suxravardiya va qodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi.

Har qaysi alohida mintaqada sufiylik tariqatlari ta’limotlari mahalliy xususiyatlar, an’analar hamda islomdan avvalgi diniy ta’limotlar ta’sirida rivojlandi. Xususan, Hindistonda sufiylik qarashlari rivojida (XIV–XVI asrlar) buddaviylik va hinduiylikka xos tasavvurlar o‘z ta’sirini o‘tkazganini yaqqol ko‘rish mumkin.

XII–XIII asrlarda Ibn Arabiy «falsafiy» tasavvufning asosiy qoidalarini bayon qilib berdi. U «vahdatul-vujud» g‘oyasini ilgari surdi. «Komil inson», «borliqning birligi» (vahdatul-mavjud), «Mutlaqning o‘zini namoyon qilishi – jilolanish» (tajalli) va «nurlanish» kabi g‘oyalarni bahs va munozaralar manbayi bo‘lib qoldi.

Tasavvuf g‘oyalari ko‘pdan-ko‘p she’riy asarlarda ham o‘z ifodasini topdi. Sufiylik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors she’riyatiga (Jaloliddin Rumi, Sanoiy, Sa’diy, Amir Xisrav Dehlaviy, Hofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), shuningdek, ma’lum darajada arab she’riyatiga singib ketdi. Turkiy xalqlarning (birinchi navbatda Alisher Navoiy), Bolqon yarim oroli, Shimoliy Hindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida ham shunday holat yuz berdi.

Tasavvuf avval boshda mo‘min-itoatkorlik va dunyo halovatidan kechishni targ‘ib qilgan bo‘lsa, butun tarixi davomida bir necha bor isyonkorlik harakatlari (Andalusiyadagi «muridlar isyonii» (XII asr), Onado‘lida shayx Badriddin (1416-yilda o‘ldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat,

<sup>17</sup> Zoviya – darvishlar, qalandarlar, shuningdek, g‘arib va miskinlar to‘xtaydigan, istiqomat qiladigan uy, qalandarxonasi, darvishxona. Musulmon mamlakatlari xonaqoh, tak‘ya, rabot nomlari bilan ham yuritiladi.

bobiylar, shoziliylar va h.k.)ning, keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi kurash (sanusiylar, qodiriylar) masfkurasiga aylandi.

XIV asrga kelib tasavvufda dunyo va oxirat ishlarini barobar olib borish lozimligi g'oyasi ilgari surildi. Buni Markaziy Osiyoda tasavvuf rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan Bahouddin Naqshband hazratlarining «Dil ba-yoru, dast ba-kor», ya'ni «Ko'ngil Allohdha, qo'l ishda bo'lsin» degan shiorida ham ko'rish mumkin.

XV asrda tasavvufda tarkidunyochilikdan farqli, dunyo boyligiga muhabbat qo'yungan holda ko'p molu davlatga ega bo'lish tariqatda bo'lishga xalal bermasligi haqidagi ta'limot rivoj topdi. Xoja Ahror Valiyning «Zuhd mol yo'qligi birla emas, balki ko'ngilda yolg'iz Allohni tutishda. Dunyoni sevguchi darvish, agarchi nihoyatda faqir bo'lsa-da, zohid emas. Hazrati Sulaymon alayhissalomni shuncha mulku podshohlig' birla zuhd egasi derlar», degan so'zlarida ham buning ifodasini ko'rish mumkin.

Islom dini Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, bosh-qamintaqalar, xususan, Xuroson va Movarounnahrga kirgan chog'ida mahalliy xalqlar turli diniy aqidalarga e'tiqod qilar edilar. Islom asosiy hukmron dinga aylangach yerlik aholi bu dinni qabul qilish bilan birga zardushtiylik, xristianlik, buddaviylik kabi avvalgi dinlarida mavjud bo'lgan dunyoga berilmaslik, xolislik, birovlar ko'ngliga ozor bermaslik, sadoqatlilik, bag'rikenglik, insoniylik kabi jihatlarni islomiy ko'rinishda saqlab qolishga harakat qildilar.

Mintaqaning ilk islomlashuv davrida musulmonlik faqat namoz o'qish yoki zakot berish kabi kishilarning zohiriy amallariga qarab belgilanish holati yuzaga keldi. Xuddi ana shu davrda tasavvuf namoyandalari bu kabi yuzakichilikka qarshi, dindan asosiy maqsad – qalb pokligi, ixlos va umuman, inson ichki dunyosining go'zal bo'lishi tushunilishi lozimligiga e'tiborni qaratdilar.

Nasabnama, shajara va manoqiblarda<sup>18</sup> nomlari zikr etilgan Safiyuddin O'rungqo'yloqiy, Hakim ota, Dukchi Eshon kabi tasavvuf namoyandalarining faoliyati kishilarga ilmu hikmat o'rgatish, faqirlarga yordam berish, ariqlarga suv chiqarish, qo'riq yarlarni obod qilish kabi insonparvarlikdan iborat bo'lgani tasavvuf tariqatlarining bунyodkorlik va bag'rikenglik mohiyatini yanada yaqqolroq ko'rsatadi.

**Hozirgi davrda mintaqalari xalqlari hayoti va kishilarning ma'naviy-axloqiy qarashlari shakllanishida islom dinining o'rni va ahamiyatining o'sishi.** XIX asrning dastlabki yillardan islom dini tarqalgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Yuzaga kelayotgan yangi sharoitga diniy-falsafiy, huquqiy me'yorlarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» («islom modernizmi») nomini oldi. Bu jarayon hanuz davom etmoqda.

<sup>18</sup> Manoqib – biror avliyo yoki buyuk shaxsning ijobiloy xislatlari haqidagi qissalar to'plami.

XX asrga kelib dunyoda islom omilining ta'siri kuchaydi. Bunga sabab qilib, bir tomondan, dunyoda bu dingga e'tiqod qiluvchilar ning soni ko'payib borayotgani, ikkinchi tomondan, turli rasmiy va norasmiy islomiy tashkilotlar faoliyatining kuchayishi ko'rsatiladi. Ushbu jarayon XIX asr oxirlarida islom olamida faollashgan diniy islohotchilik harakatlari bilan bog'liqdir. XX asr oxiri – XXI asr boshida bu harakatlars turli ko'rinishda davom etdi.

XIX asrning boshlarida Misrda boshlangan mustamlakachilikka qarshi g'oyaviy kurash panarabizm (arab birligi) g'oyasini keltirib chiqardi. XIX asrning ikkinchi yarmida esa bu g'oya Jamoliddin al-Afg'oniy (1839–1897) ilgari surgan panislomizm bilan almashdi.

XX asrdan boshlab ko'pgina musulmon mamlakatlarda yangi tijorat, jinoyat va fuqarolik kodekslari joriy qilindi. Faqat nikoh, ajralish, meros masalalari shar'iy yo'l bilan hal qilinar edi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlariga kelib, Janubi-Sharqiy Osiyoda, xususan, Singapur, Malayziya va Indoneziyada islom islohotchilik harakatlari jonlana boshladi. Ular, asosan, islomni zamonaviy fan-teknika yutuqlariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, diniy e'tiqodga oid asarlar faqat arab tilida emas, balki mahalliy tillarda ham bo'lishi lozimligiga ko'proq e'tiborni qaratdilar.

• XX asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg'onishi, diniy ma'naviyatga qaytish davri bo'ldi. 1970–1990-yillarda dunyoda yuz bergan hodisalar ommaviy axborot vositalarida «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi shov-shuvli xabarlarning tarqalishiga sabab bo'ldi. Jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga katta qiziqish bilan qarash bilan birga diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi salbiy hodisalarni katta xavotir bilan kuzatmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy e'tiqod bilan bog'liq har qanday muammo nihoyatda nozikdir. Chunki bu mintaqada dinning chuqur tarixiy ildizlari mavjud. Muayyan kuchlar hozirgi kunda diniy qadriyatlardan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

So'nggi o'n yilliklar mobaynida dunyoda din omilining faollashuvu sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronlik qilgan sobiq sho'ro tuzumida ham diniy hayot hech qachon to'xtab qolgan emas. U o'ziga xos shaklu shamoyil kasb etgan edi, xolos. «Biroq 80-yillarning oxiri – 90-yillarning boshlari, bir tomondan, jamiyatda dinning mavqeyi qayta tiklangan, ikkinchi tomondan esa, ana shu asosda mojarolar chiqishi uchun sabablar shakllangan davr bo'ldi»<sup>19</sup>

XX asr oxiriga kelib sotsialistik va kapitalistik tuzumlar orasidagi raqobat barham topganidan so'ng dunyodagi diniy holat ham o'zgardi.

<sup>19</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. - B. 38–39.

Sobiq sovet hududida tashkil topgan mustaqil davlatlarda milliy qadriyatlarning qaytishi bilan diniy an'analar ham qayta tiklandi.

Shu bilan birga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinish ba'zan juda mudhish holatlarning yuz berishiga olib keldi. Bunda o'tgan davrdan meros qolgan dindan xabarsizlik mutaassib guruhlarga qo'l keldi. Hozirgi kunga kelib mintaqada, xususan, O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohaning rivojlanishi diniy fundamentalizm xavfining oldini olishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Ammo g'arazli kuchlar ham o'z maqsadlariga erishish yo'lida yangi-yangi uslublarni, hiyla-nayranglarni o'ylab topishlari ham tabiiy. Bu kabi salbiy holatlarning paydo bo'lishi va rivoj topishiga yo'l qo'ymaslik esa doimo hushyorlikni talab etadi.

Ayni paytda, bir haqiqatni alohida qayd etish lozim. Otabobolarimiz dini bo'lmish islom dini har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlardan xalos bo'lishiga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Mustaqillik sharofati tufayli kishilarimiz ana shu ma'rifatdan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehr-oqibatlilik tuyg'ularining kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Shunday ekan, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, turli mutaassib oqim va harakatlarning g'arazli maqsad, intilishlardan qat'iy nazar, diniy tuyg'uga ega bo'lgan, yaxshi ishning oqibati mukofot bo'lishiga, yomonlik esa jazosiz qolmasligiga ishongan kishilardan iborat jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayoti va ijtimoiy jarayonlar kechishida islom dini o'ziga xos o'ringa ega bo'lib qolaveradi.

#### IV bob. ZAMONAVIY MUSULMON OLAMI

**Aholining ko‘pchiligini musulmonlar tashkil etadigan mamlakatlar: geografik va etnomadaniy tafsiflar.** Jahonda 1,3 milliarddan ortiq kishi islomga e’tiqod qiladi. Musulmonlarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i Osiyoda, qariyb 30 foizi Afrikada istiqomat qiladi. Dunyodagi musulmon jamoalari mavjud bo‘lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko‘pchiligini tashkil qiladi. Jumladan, Indoneziyada 210 million, Pokistonda 150 million, Bangladeshda 110 million, Nigeriyada 80 million, Eron va Turkiyada 65 milliondan, Misrda 60 million, Marokash va Jazoirda 30 milliondan, Saudiya Arabistonida 17 milliondan ortiq musulmon istiqomat qiladi. Hindistondagi musulmonlarning soni 140 milliondan ortgan.

Bulardan tashqari Kavkaz (Ozarbayjon) hamda Rossiyaning Tatariston, Boshqirdiston, Shimoliy Kavkaz (Checheniston, Ingushtiya, Kabardin-Balqar) kabi bir qator mintaqalari, Markaziy Osiyo davlatlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Zikr qilingan mintaqalar va mamlakatlarga xos geografik va etnomadaniy xususiyatlar, ularda islom dinining o‘rnvi va roli keng qamrovli masala bo‘lgani hamda batafsil tahlil etish qiyinligi sababli ularga xos ayrim umumiylari va xususiy jihatlar haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Arabiston yarim oroli, Shimoliy Afrika va Osiyo davlatlarida islom.** Mazkur mintaqada joylashgan va musulmonlar aholining ko‘pchiligini tashkil etadigan davlatlar hayotida islom dini muhim mavqeni egallab kelmoqda. Tarixiy taraqqiyotning muayyan davrlarida mazkur o‘rin juda kuchli, ba’zi paytlarda o‘rtacha, ayrim vaqtlarda esa birmuncha past bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ammo har uchala sifatiy holatda ham islom omili mintqa xalqlarining kundalik hayoti va turmush tarzida mustahkam mavqega ega bo‘lgani shubhasiz. Bu esa, o‘z navbatida, murakkab tarixiy vaziyatlarda islom omilining ijtimoiy-siyosiy sahnadagi faollashuviga zamin yaratib kelmoqda. Buni turli misollarda ko‘rish mumkin. Masalan, 1960-yillarda neft qazib olish va uni eksport qilish **Saudiya Arabistonini** boy mamlakatlar qatoriga olib chiqdi. Mamlakatda ta’lim sohasining o‘sib borishi, sanoatning zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi, xo‘jalik va ma’muriy ish yuritishning yangi shakllarining vujudga kelishi, saudiyaliklarning G‘arb mamlakatlariga borib tahsil olishlari, ajnabiyy mutaxassislarning mamlakatga kelib ishlashlari, radio, televide niye va kompyuterlardan foydalanish Saudiya Arabistonida diniy ulamolarning ta’sirini birmuncha kamaytirdi. Shunga qaramay, 1960-yillarda hukumat foydadan olinadigan soliqni joriy qilganda ulamolarning e’tirozlari bilan bu soliq faqat ajnabiylardan olinadigan bo‘ldi. Mazkur misolni ham

din va ulamolarning jamiyat hayotidagi ta'sir kuchining isboti sifatida qarash mumkin.

Shialik azaldan kuchli mavqega ega bo'lgan **Eronda** ham XX asrning so'nggi choragigacha bo'lgan davrda bu ta'sir birmuncha susaygan bo'lsada, aslo yo'qqa chiqmadi. Shialik ruhoniylari davlatda asosiy rahbar kuchga aylanishiga olib kelgan 1978-79-yillardagi inqilob buni isbotlab berdi. 1979-yilning martida o'tkazilgan umumxalq referendumi esa Eronning Islom respublikasiga aylanishiga olib keldi. Shundan so'ng qabul qilingan yangi Konstitutsiya ruhoniylarning qonunchilikda yak-kahokimligini yana qaytadan tikladi. Shu tariqa ko'pchilik shia ruhoniylarning diniy va dunyoviy hokimiyatning ajralmas ekani haqidagi g'oyalari amalda o'z ifodasini topdi.

XX asrda insoniyat hayotida sodir bo'lgan keskin ijtimoiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti din, uning jamiyat va kishilar hayotidagi o'rni masalasida ham o'z ifodasini topdi va ruhoniylar orasida g'oyaviy jihatdan an'anachilar, fundamentalistlar va modernistlardan iborat uch yo'naliшhning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ular orasida muayyan farqlar borligi shubhasiz. Shunga qaramay, masalan, Eron ulamolari ichida bu ayniqsa yaqqol ko'rinadi, ularning har uchalasiga ham davlatni boshqarishda asosiy mas'uliyat ruhoniylarning yelkasida bo'lishi lozim degan qarash xosligini ta'kidlash zarur. Shunday bo'lsada, zamonaviy ilohiyotchilar orasida diniy va siyosiy hokimiyat ruhoniylarning qo'lida jamlanishi shart emas, eng asosiysi, biri ikkinchisiga tazyiq o'tkazmasligi uchun diniy institutlar va hukumat orasida hokimiyatni qat'iy tarzda taqsimlab berish lozim, degan qarashlarni ham uchratish mumkin.

Mintaqa davlatlari hayotida islomning o'rni haqida gap ketar ekan, hozirgi davrda uning davr o'zgarishlariga moslashuv jarayoni davom etayotganini ham ta'kidlash zarur bo'ladi. Ma'lumki, islom sudxo'rlikni (foiz olishni) taqiqlaydi. Lekin hozirgi zamon iqtisodiyoti sarmoya bozorisiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki uni foyda olish tizimi boshqaradi. Shunday vaziyatda diniy talabni aylanib o'tishga xizmat qiladigan va ayni paytda, foiz vazifasini bajaradigan bank xizmati uchun badal (vznos) yig'ish tartibi o'ylab topildi.

Shu bilan birga, islomni amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarga hamohang talqin qilishga munosabat hamma mamlakatlarda ham bir xil deb bo'lmaydi. Xususan, shia nazariyotchilari, islomdagi har qanday islohotlar o'rinsiz, deb hisoblaydilar. Chunki ularning fikricha, islom qonunlari «yuqoridaq nozil qilingan», shuning uchun ham, ular isloq qilinishi mumkin emas. Saudiyyada 1930-yillarda asos solingan, ulamolar rahbarligida jamiyatda axloq me'yorlarini, odamlarning yurish-turishlarini nazorat qiluvchi «ijtimoiy axloq komitetlari»ning hanuz faoliyat olib borayotganini ham ana shu qatorga kiritish mumkin.

Tarixiy tajriba iqtisodiyotda muvozanatning buzilishi, ijtimoiy sohada esa kuchli tabaqalanishning yuzaga kelishi, aholining qashshoqlashuviga kabi omillar diniy ekstremistik harakatlar paydo bo'lishiga zamin yaratishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham, diniy ekstremistik harakatlar o'z faoliyatining dastlabki davrida ijtimoiy masalalarga alohida e'tibor berish orqali o'z tarafdarlarini ko'paytirishga intiladi. Keyinroq, mustahkam oyoqqa turib olgach, ularning asosiy maqsad-muddaovalari o'zini namoyon qila boshlaydi. Bu mulohaza yuritilayotgan mintaqaga ham bevosita daxldordir. Masalan, **Misrda** tashkil topgan «Musulmon birodarlar» ham ilk davrda kambag'allarga yordam berish, bepul mакtab ochish va tibbiy yordam ko'rsatish ishlari bilan shug'ullangan va bunday tadbirdar tashkilot a'zolarining ko'payishiga hamda uning omma orasida obro'sining oshishiga olib kelgan edi.

Bugungi kunda keng ijtimoiy tayanchga va o'z g'oyalarni tashviqot qilish uchun katta nashr imkoniyatlariiga ega diniy ekstremistik harakatlar Saudiya Arabistoniga uchun ham jiddiy tashvishga aylanganini ta'kidlash zarur.

Mintaqa dinning siyosiy omilga aylanishi, diniy ekstremistik harakatlar salbiy oqibatlarining yorqin misolini berish bilan bir qatorda ular bilan murosa qilishga intilish nimalarga olib kelishi mumkinligining ham yaqqol namunasini beradi deyish mumkin. Xususan, Misr Prezidenti Anvar Sadat kommunistik g'oyalarni va dahriylikka qarshi kurashda foydalanish uchun 1971-yilning yozida «Musulmon birodarlar» bilan aloqa o'rnatdi va ushbu tashkilotning asoschisi Hasan al-Banno bilan faxrlanishini e'lon qildi. Berilgan imkoniyatlari ekstremistlar tomonidan yangidan-yangi talablarning qo'yilishiga zamin yaratdi. Bu o'z navbatida diniy tashkilotlar faoliyatining davlat tomonidan yangidan qat'iy nazorat ostiga olinishiga, diniy ma'ruzalar ustidan senzura o'rnatilishiga olib keldi. Oqibatda Anvar Sadat o'z raqiblariga qarshi kurashda foydalanishga intilgan islomiy guruuhlar tomonidan o'limga mahkum etildi.

Islom omili mintaqada mamlakatlarining tashqi siyosatida ham muhim o'rinni egallaydi. Xususan, Falastin muammosini hal qilishda davlatlar islom omili bilan hisoblashishga majbur bo'lmoqda. Anvar Sadatning 1977-yil 20-noyabrda Quddusda bo'lishi va bu joyni «tinchlik shahri», uch dinning birgalikda mavjudligining yaqqol ramzi» deb ta'kidlashi misrliklar tomonidan kufr deb qabul qilingani, Isroiil bilan o'rnatilgan tinchlik shartnomasi esa islomga xiyonat va arablar ishiga nisbatan sot-qinlik deb baholangani ham buni tasdiqlaydi.

Afg'onistonda sho'ro qo'shinlariga qarshi olib borilgan harakatning ushbu mintaqada mamlakatlari tomonidan mujohidlarning islom uchun «ateizm» va «kommunizm»ga qarshi olib borayotgan kurashi deb qaralgani va faol qo'llab-quvvatlanganini ham islom omilining ushbu mamlakatlar tashqi siyosatiga ta'sirini ko'rsatuvchi misol sifatida qarash mumkin.

Ayni paytda, ushbu mamlakatlarning o‘zaro munosabatida mintaqqa, arab dunyosi va musulmon olamida yo‘lboshchilik qilish uchun kurash ham muhim ahamiyat kasb etayotganini ta‘kidlash zarur. Saudiya—Misr, Saudiya—Eron, Saudiya—Liviya munosabatlarda bunday ziddiyatlarni yaqqol ko‘rish mumkin. Bunday ziddiyatlar Eron—Iraq, Iraq—Kuvayt urushi davrida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lgan edi. Bu jarayonlarda ham tabiiy ravishda islam omilining ta’sirini ko‘rish mumkin. O‘zaro munosabatlarda islam omili vaqtı-vaqtı bilan jonlanadigan «kim ko‘proq islamga rioya qilmoqda» degan savol atrofisidagi bahslarda ham yorqin ko‘rinadi. Xususan, Liviya va Saudiya rahbarlari bir-birlarini bir necha bor islam qonun-qoidalaridan chekinishda ayblaganliklarini ko‘rsatish mumkin.

Payg‘ambar Muhammad vatani, ikki buyuk muqaddas makon — Makka va Madinaning Saudiya Arabistoniga yerlarida joylashishi ushbu mamlakat rahbarlarining musulmon olamida o‘z mavqelarini mustahkamlash va Arab Sharqida yo‘lboshchilik vazifasini o‘tashga intilishiga zamin yaratmoqda. Ma’lumki, hozirgi kunda ham **Saudiya Arabistonida** Qur‘on asosiy qonun vazifasini bajarmoqda. Shariah sudlarida islamning barcha yo‘l-yo‘riqlari va qoidalariga amal qilinadi. Shundan kelib chiqib, Saudiya hukmron doiralari o‘zlarini musulmon olamining barcha mintaqalarida islam asoslarini va muqaddas joylarni qo‘riqlovchilar deb ko‘rsatish hamda «musulmon birdamligi» g‘oyasini targ‘ib qilish yo‘lidagi harakatlarini bir zumga bo‘lsa ham to‘xtatmayotganliklarini ta‘kidlash zarur.

Islam omilining o‘rni va unga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, yana bir jihat, ya‘ni ushbu mamlakatlarda turli mazhablarga e’tiqod qiluvchi musulmonlarning mavqeい masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Buni Iraq va Saudiya Arabistonida shia musulmonlarga bo‘lgan munosabat misolida ham ko‘rish mumkin. Yaqingacha Iroqda shialar turli darajadagi bosim ostida yashab kelgan bo‘lsalar, saudiyaliklarning shialarni kam maosh to‘lanadigan ishlarda ishlatishlari, hattoki, shariat sudlarida shialar tomonidan beriladigan ma’lumotlar e’tiborga olinmasligi bunday munosabatni yaqqol namoyish etadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda islam omili amaldagi siyosiy partiyalar masifikasiy dasturlarda ham muhim o‘rin egallaganini qayd etish lozim. Masalan, Misrdagi 12 ta partiyadan 7 tasining, jumladan, hokim «Milliy demokratik partiya»ning tamoyillarida «Islam shariati — qonunchilikning asosiy manbai», deb rasman qayd etilgani, qolgan 5 ta partiyaning tamoyillari ham shariatga muvofiq ravishda tuzilgani buning isboti bo‘la oladi.

Islamning jamiyat hayotidagi o‘rnining o‘zgarishi masalasini aholisining ko‘pchiligini musulmonlar tashkil qiladigan **Turkiya** misolida ham ko‘rish mumkin.

O‘z davrida musulmon olamining madaniy-diniy, iqtisodiy-siyosiy markazi bo‘lib kelgan Usmonli turklar imperiyasining vorisi bo‘lgan Turkiya Respublikasi murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. O‘zining G‘arbg‘a moyilligi, demokratiya va dunyoviylik ustuvorligini ta‘minlashga harakat qilishini namoyon etayotgan bugungi Turkiyaning shakllanishida XX asr boshlarida amalga oshirilgan jarayonlar muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustafa Kamol Otaturk va uning safdoshlari islomni dunyoviy davlat qurishdek maqsadlariga erishishda asosiy to‘siq bo‘ladi deb hisoblab, uni ijtimoiy-siyosiy minbardan siqib chiqarish va mamlakatda din ustidan to‘liq nazorat o‘rnatishga harakat qildilar. 1922-yil 1-noyabrda Otaturk va uning do‘stlari sultonlikni yo‘q qildilar. 1923-yil 29-oktyabrdagi tuzumi Respublika deb e‘lon qilindi. Shariat va vaqf ishlari boshqarmasi o‘rniga Din ishlari bo‘yicha vazirlilik tashkil etildi. Barcha maktablar maorif vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi. 1926-yil 1-yanvardan boshlab Turkiya Grigorian kalendariga o‘tdi. 1928-yil 10-aprelda mamlakat Konstitutsiyasidan «Turkiya Respublikasi dini – islomdir» degan ibora olib tashlandi. 1934-yilga kelib, an‘anaviy ismlar va titullar ham bekor qilindi.

Ayni shunday harakatlar natijasida Turkiya dunyoviy davlat tizimini qabul qildi. Bu islomning siyosiy jarayonlarga ta’sirini birmuncha susaytirdi. Shunday bo‘lsa-da, saylovchilarning ishonchini qozonish maqsadida ba’zi konservativ partiyalar Otaturkning din borasidagi siyosatidan uzoqlasha boshladilar. Otaturkning o‘limidan so‘ng esa, Respublika xalq partiyasining ko‘zga ko‘ringan a’zolari ham islomni keragidan ortiq siqib chiqaribmiz, degan fikrni ayta boshladilar. Biroz vaqt o‘tib, imomlar tayyorlaydigan oliy diniy mакtab tashkil qilindi.

Shundan keyin, asta-sekin islomiy tashkilotlar soni ham ko‘paya bordi. Ular kam ta‘minlangan talabalarga moddiy va moliyaviy yordam ko‘rsatib, o‘z ta’sirlarini maorif sohasiga ham o‘tkaza boshladilar. Pirovard natijada bugungi kunda Turkiyada dunyoviy tizimni qo‘llab-quvvatlaydigan, an‘anaviy islomiy qadriyatlar ustuvorligini ta‘minlash tarafdori bo‘lganlar va radikal oqimdag‘i musulmonlardan iborat uch toifa shakllandi. Bu uch toifaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri turlicha bo‘lsa-da, ularning har birining jamiyatda o‘z o‘rni va mavqeい borligini va o‘z tarafdarlariga ega ekanini qayd qilish zarur.

Islomning jamiyat hayotidagi o‘rni va mavqeini Afg‘oniston misolida ham ko‘rish mumkin.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining 50 foizini pushtunlar, 25 foizini tojiklar, qariyb 20 foizini o‘zbeklar tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarni hazoriyalar, jamshidlar, feruzkuxi, taymoni va temuri kabi qabilalarni o‘z ichiga oladigan chor-aymoqlar hamda turkmanlar, Pomir guruhiга kiruvchi niristoniy, lag‘mon, vaxaniy, shug‘nonlar kabi elatlar egallaydi. Mamlakatda juda kam sonli bo‘lsa-da, beluj, hind va qirg‘iz millatlari vakillari ham yashaydi.

Juda oz miqdordagi hindlar, sikxlar va yahudiylarni inobatga olmaganda, mamlakat aholisi to'laligicha islomga e'tiqod qiladi. Ularning ko'pchiligin sunniy-hanafiylar, taxminan 13 foizini ja'fariy va 2 foizini ismoiliy shialar tashkil etadi.

Afg'onistonda islom dini jamiyat hayotida doimo yuqori va mustahkam mavqega ega bo'lib kelgan. Hatto Omonulloh Xon o'tkazgan islohotlar, Savr inqilobi davrida ham uning ta'sir darajasi nisbatan barqaror bo'lib keldi.

Sho'ro qo'shinlarining mamlakatga kiritilishi esa islomiy harakatlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. «Afg'oniston islom harakati», «Ittihodu islomiy», «Hizb islomiy xolis», «Harakatul inqilobil islomiy», «Maxozi milliy islomiy», «Jabhayi najoti milliy» kabi diniy-siyosiy harakatlar va partiylar yuzaga keldi.

Sho'ro qo'shinlari Afg'onistonni tark etganidan so'ng, mamlakat istiqbolini belgilashga turlicha yondashuvlar, etnik va diniy mazhabchilikdagi kelishmovchiliklar o'zaro nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga zamin yaratdi.

Islomiy guruhlar o'rtasidagi ko'p yillik to'qnashuvlarga barham berilib, 1992-yilda o'zaro kelishuv imzolangan bo'lsa-da, ziddiyatlarning saqlanib qolishi va ayrim davlatlar o'zlarining g'arazli maqsadlaridan kelib chiqib qo'llab-quvvatlashlari natijasida 1996–2001-yillarda mamlakatda «Tolibon» radikal harakatining ustuvor bo'lishiga hamda mutaassiblik qarashlari va amaliyotining joriy etilishiga olib keldi. Mamlakatda ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, teatr, kino, musiqa, radio va televideniye tanazzulga yuz tutdi. Ma'naviy va ma'rifiy hayotning qashshoqlashuvi, diniy ekstremistik kuchlarning faolla-shuvi va jangarilar tayyorlaydigan markazlarning ko'payishi sodir bo'ldi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng boshlangan aksilterror operatsiyasi «Tolibon» harakatining yo'q qilinishiga yo'l ochdi.

Bugungi kunda Homed Karzay boshchiligidagi hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatda ham islom omiliqning kuchli ta'sirini ko'rish mumkin. Shunday bo'lsa-da, diniy ekstremistik harakatlar tomonidan sodir etilayotgan terrorchilik xurujlari mamlakatda barqarorlik yuzaga kelishini ta'minlash uchun uzoq kurash olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakat aholisining asosiy qismini (56%) panjobliklar, qolgan qismini patani, balaki, muvojari, pushtun, belujlar hamda boshqa millat va elat vakillari tashkil qiladigan **Pokiston** ham ko'p millatli va ayni paytda, eng yirik musulmon mamlakatlaridan biridir. Mamlakat aholisining 97% islomga e'tiqod qilgan holda, mutlaq ko'pchilik sunniylikning hanafiy mazhabida, 1,1% ja'fariy va 1,1% ismoiliy shialar hisoblanadi.

Pokiston diniy ekstremistik qarashlar va harakatlar kuchli mavqega ega bo‘lgan mamlakatlardan biri deyish mumkin. Ularning ichida 1941-yilda tashkil etilgan «Jamoati islomiya» eng kattasi va kuchlisi hisoblanadi. Partiya o‘zining g‘oyalari va faoliyatini jihatidan «Musulmon birodarlar» harakatiga yaqindir. «Jamoati islomiya»ning asosiy maqsadi mamlakatda islom tartibini o‘rnatishdir. Bu tashkilotning ta’siri talabalar orasida ayniqsa kuchlidir.

Ayni paytda, mamlakatda xalq va ayniqsa, yoshlar orasida ta’sir doirasi kuchli bo‘lgan «Tablig» harakati bilan bir qatorda «Jaysh-e Muhammad», «Harakatul mujohidin», «Sipoh-e sahaba», «Jamoat-e ulamo-e islomiy» kabi guruhrular ham mavjudligini qayd etish lozim. Bunday harakatlar tabiiy ravishda nafaqat mamlakat, balki mintaqaga davlatlari xavfsizligi va barqarorligiga ham jiddiy tahdid solayotganini ta’kidlash zarur.

Buni islom rasmiy din hisoblanadigan va aholisining 88,3% hanafiy mazhabiga e’tiqod qiladigan **Bangladeshda** ham Pokistondagi «Jamoati islomiya»ning sho‘basi hisoblangan Bangladesh «Jamoati islomiya» tashkiloti keng faoliyat yuritayotganida ham ko‘rish mumkin.

Hozirgi paytda a’zolar sonining ko‘payishi va mamlakatning barcha hududlariga tarqalishi natijasida bu tashkilot hukumat boshqaruv organlariga ham o‘z ta’sirini o’tkazmoqda. Mazkur tashkilot oxirgi paytlarda mamlakat siyosiy partiyalari tarkibidan o‘rin oldi. Hukumat hamda parlamentning boshqa a’zolari bu tashkilotning ta’sir doirasining kengayishiga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish yo‘lida har xil qonunlar qabul qilmoqdalar. Biroq tashkilot nafaqat siyosatda, balki ta’lim, madaniyat, sport, ommaviy axborot vositalari, din va boshqa sohalarda ham sezilarli darajada ta’sir kuchiga egaligi tufayli bunday chora-tadbirlar deyarli samarasiz qolmoqda.

**Afrika qit’asida islam.** Arab sharqi mamlakatlardan farqli ravishda Afrika davlatlari turli tillarda gaplashuvchi va har xil dinlarga e’tiqod qiluvchi millat, elat va qabilalardan iborat. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, qit’ada 850 ga yaqin etnik va lingvistik guruhrular mavjud. Afrika – shimol arablari va janub qora tanllilaridan tashkil topgan bo‘lib, mahalliy an’anaviy dinlar, xristianlik va islomdan iborat uchta diniy tizimni o‘z ichiga oladi. Ayni paytda, asosan ingliz, fransuz, arab va portugal tillari keng tarqalgan.

Manbalarda qayd qilinishicha, Sahroi Kabinining janubida joylashgan mamlakatlar aholisining 50% mahalliy dinlarga ishonadi. Gap shundaki, ba’zi aholi qatlamlari islom yoki xristianlikni qabul qilgan bo‘lsalar-da, o‘zlarining mahalliy an’anaviy dinlariga e’tiqod qilishda davom etmoqda.

Tropik Afrika mamlakatlari aholisining to'rtadan bir qismi islomga e'tiqod qiladi. Ularning ichida **Nigeriya** islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

Nigeriyada 200 dan ortiq etnik guruh va millatlar istiqomat qiladi. Nigeriya aholisini asosan sunniylik yo'nalishida e'tiqod qiladigan musulmonlar, xristianlar va mahalliy an'anaviy dirlarga e'tiqod qiluvchilar kabi uchta katta konfessional guruhga bo'lish mumkin.

Separatizm muammolarini bartaraf etish maqsadida mamlakat 19 ta shtatga bo'lingan bo'lsa-da, diniy va etnik ixtiloflar ham uchrab turadi. Xususan, o'tgan asrning 80-yillarida shariat sudlarini amalga kiritish masalasida mamlakatda musulmonlar va xristianlar o'rtasida katta tortishuvlar bo'lib o'tgan.

Aholining 80 foizini musulmonlar tashkil qiladigan **Senegalda** ham islomning jamiyat hayotidagi o'rni sezilarli darajada kuchlidir.

Islom dini Senegalga XI asrda kirib kela boshlagan. Germaniyalik olim Gerbert Goldning yozishicha, «Senegal reformatori Sengor ko'p sonli qabilalarni, uchta din – islom, xristianlik va animizm-marabutlarni, qashshoqlik va dabdabali hayat tarzini afrika ritmi bilan mustahkamlashga urindi».

Marabutlar eng boy tabaqa va o'ta dindorlar rahnamolari bo'lib, mamlakatning eng hosildor yerlarini egallab olgan edilar. Marabutlar mamlakat ichki siyosiy hayotida muhim o'rin tutganlar. Ular rasmiy hukumat ruxsatisiz, Afrikadagi ko'pgina musulmon jamoalarini bilan aloqa o'rnatganlar.

Marabutlarni mamlakatdagi nufuzi va musulmon aholiga ta'sirini hisobga olib, Senegal arboblari o'zaro siyosiy kurashlarida ular yordamiga tayanganlar. Senegal hukumati o'z siyosatida dunyoviylik tamoyili haqida gapirsa-da, amalda marabutlar orasida mutanosiblikni qidiradi. O'tgan asrning oxirlariga kelib Oyatullo Humayniy g'oyalari kuchayib ketdi.

Musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladigan davlatlardan yana biri – **Uganda** hisoblanadi. Ushbu mamlakat siyosiy hayotida ham din muhim mavqe egallaydi. Ugandaning etnik tarkibi juda murakkab. Mamlakatning markaziy va janubiy mintaqalarini ko'p sonli etnik guruh va millatlar tashkil etadi. Ularning ichida eng kattasi «baganda» xalqi bo'lib, umumiy aholining 18 foizini tashkil qiladi. Shimolda lango, agoli, karamadjo va boshqa etnik guruhlar istiqomat qiladi.

1972-yildan boshlab, Uganda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotini islomlashtirish rejasiga tufayli, islomning nufuzi orta boshladidi. Bugungi kunda bu jarayon «etnik tozalashlar» bilan bir qatorda kechayotgani mamlakatni og'ir ahvolga solib qo'yayotganini ta'kidlash zarur.

**Janubi-Sharqiy Osiyoda islom.** Janubi-Sharqiy Osiyoga islomning kirib kelishi nisbatan tinch kechdi. Bu jarayon bir necha o'n hatto, yuz yilliklarga cho'zildi.

Islomning ilk yillari – xalifalik davrida arab qo'shinlari bu yerlarga kelmagan bo'lsalar-da, birinchi arab savdogar aholi maskanlari bu mintaqada VII–VIII asrlardayoq paydo bo'lgan edi hamda Arabiston yarim orolini Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan serqatnov dengiz yo'llari bilan bog'lovchi ko'priq vazifasini bajardilar. Aynan ular islom dinini mazkur o'lkalarda tarqatdilar. Shu bilan birga, mutaxassislar bu ishda hind, fors, hatto, xitoyliklarning xizmatlari katta bo'lganini ham ta'kidlaydilar. Mazkur holat ham ushbu o'lkalarda islomning rivojiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu xususan, mintaqadagi islom o'rta asrlarda Arabistonda mavjud bo'lgan islom ko'rinishidan farq qilib, mahalliy an'analar, hind, fors va boshqa millatlarning urf-odatlari bilan aralashib ketishida yaqqol namoyon bo'ldi.

Islom dinini mahalliy aholi orasida birinchilardan bo'lib Malakka yarim orolining sohil mintaqalari va Sumatra orolining shimoliy qismida yashovchi xalqlar qabul qildilar (XI–XIII asrlar). Natijada XV asrda taraqqiy etgan Malakka Sultonligidan chiqqan din tarqatuvchi savdogarlar o'z faoliyatlarini kengaytirib yubordilar. XV–XVII asrlarda Yava, Bruney, XV–XVI asrlarda G'arbiy Sumatra, XV asrning ikkinchi yarmida Patani, XIV–XV asrlarda Sulu va Mindanao, XV–XVIII asrlarda Arakana aholisi islomni qabul qildi. Yangi din Yava orqali Janubiy Sumatraga (XVIII–XIX asrlar), Janubiy Kalimantanga (XVI–XVII asrlar), G'arbiy Sumatra orqali Sulavesiga (XVII asr) kirib keldi. Mintaqada islomlashuv jarayoni hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Xususan, bugungi kunda **Indoneziya** umumiy aholisining 90 foizdan ortig'ini musulmonlar tashkil etmoqda. Aholining asosiy qismini tashkil etuvchi yava, sundak, minangkabay, bugu, bataki millatlari vakillari islomga e'tiqod qiladilar.

Shu bilan birga, musulmon aholining ayrim qatlamlari orasida hali ham islomgacha bo'lgan davrdagi udumlar saqlanib qolayotganini ko'rish mumkin.

Mamlakatda ilk islomiy harakatlarning kelib chiqish tarixi 1921-yilda mustamlakachilarga qarshi bo'lgan «Islom birligi» harakati bilan bog'liq. Turli kelishmovchiliklar oqibatida inqirozga yuz tutgan, mazkur tashkilot 1930-yilda qayta tiklanib, «Indoneziya islom partiyasi» nomini oldi va mustaqil siyosiy partiya sifatida faoliyat olib bordi, 1973-yilga kelib, ekstremistik faoliyati uchun hukumat tomonidan rasman taqiqlandi.

1926-yilda tashkil etilgan «Naxdatul Ulamo» tashkilotining shiori va maqsadi aholi o'rtasida islomni targ'ib qilish edi. Bu tashkilot ham

1953-yilda siyosiy partiya darajasini oldi va oxirgi yillarga kelib, mamlakatda keskin siyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Oqibatda 1984-yilda uning faoliyati ham to'xtatildi.

So'nggi yillarda Indoneziyada sodir etilgan qator terrorchilik harakatlari, hukumatga qarshi chiqishlar yuqoridaq kabi tashkilotlarning faoliyati beiz ketmagani, mamlakatda maxfiy faoliyat olib borayotgan ba'zi diniy-ekstremistik harakatlar tegishli imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Geografik va strategik jihatdan juda qulay yerda joylashgan **Malayziya** aholisining 53 foizini sunniylik yo'nalishining shofiiy mazhabiga e'tiqod qiluvchi musulmonlar tashkil etadi.

Musulmonlarning aksariyatini mamlakatning g'arbiy tumanlarida yashaydigan malay va sharqiy mintaqalarida istiqomat qiladigan kadazine, klemantan va melanau millatlariga mansub aholi tashkil etadi. Bundan tashqari arablar va Hindistondan kelib qolgan musulmonlar ham bor.

Malayziya Konstitutsiyasi turli dinlarga erkin e'tiqod qilishni kafolatlasa-da, islomning sunniylik yo'nalishi rasmiy din sifatida qabul qilingan. Rasmiy hukumat islom dini keng tarqalishiga har tomonlama zamin yaratmoqda. Jumladan, islom dinini qabul qilganlar turli imtiyozlarga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham, xudoga ishonmasa-da, mazkur dingga e'tiqod qilishni afzal ko'radiganlar ko'p uchraydi.

Yuqorida qayd etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan tashqari aholining umumiyligi tarkibidagi ulushi biroz kamroq bo'lsa-da, musulmonlar yana bir qator davlatlarda ko'p millionli jamoaga egaligini ta'kidlash zarur. Xususan, **Tailandda** islom diniga e'tiqod qiluvchilar mamlakat aholisining 6 foizini (2 million) tashkil etadi. Ular asosan mamlakatning janubiy qismida istiqomat qiladi.

**Filippin** davlatida esa musulmonlar umumiyligi aholining 6–7% foizini (3 million) tashkil qilib, ular mamlakatning janubida yashaydilar. Magindanao, maranao, tausugu, samala, badjao, jakuna, sangila, melebugnon, xamamaluna kabi yirik elattlar islom diniga e'tiqod qiladilar.

Oxirgi yillarda Filiippinda «Abu Sayyof» radikal islomiy guruhining xorijiy sayyohlarni garovga olib, hukumatga qarshi o'z talablarini ilgari surishi ushbu mintaqada ham ekstremizm va terrorizm bosh ko'tara boshlaganini ko'rsatib turibdi.

Ko'p millatli **Vietnamga** islomning kirib kelishi malay xalqiga qondosh bo'lgan tiyam xalqi va ularning hozirgi Janubiy Vietnam hududida XIX asrda qadar hukm surgan Tiyampa davlati tarixi bilan bog'liq. Manbalarda qayd qilinishicha, milodiy 960–1279-yillarda hukm surgan Sun davlatida ham tiyamlarning ma'lum qismi islomga kirgan edi. XIII–XIV asrlarga kelib esa, tiyam xalqining aksariyati islomni qabul qildi. Bugun birligina Vietnamning Xoshimin shahrida 9 ta masjid va 3 ta namozgoh faoliyat

ko'rsatmoqda. Keyingi paytlarda vetlar orasida ham islomni qabul qilish kengayib bormoqda. Jumladan, Longan o'lkasi musulmonlar jamoasi vetlardan iborat.

Qayd etilgan ayrim o'ziga xosliklardan qat'i nazar, Afrika qit'asi va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlarining deyarli barchasiga xos umumiylar jihatni ham qayd etish lozim. Islom dini turli joylarda musulmonlarning maishiy va ma'naviy hayotlariga bir xilda kirib borgani yo'q. Turli xalqlar hatto, hududlardagi islomning ko'rinishi bir-biridan farq qiladi. Xususan, bunda islom avvalgi mahalliy dinlar, hinduiylik va buddaviylikka duch kelgani va ular bilan birga mavjud bo'lib, o'ziga xos ko'rinish olganini ta'kidlash zarur. Ammo bu ushbu mintaqalarda islomning o'ziga xos o'rin va mavqega egaligini inkor etmaydi. Musulmonlar sonining ko'payishi barobarida esa bu o'rin yanada salmoqli bo'lishi tabiiy.

**Islomning G'arb dunyosida tarqalishi.** Islom dunyodagi eng yosh dinlardan biri bo'lsa-da, unga e'tiqod qiluvchilarining soni yil sayin o'sib borishi barobarida u tarqalgan hududlar ham kengayib bormoqda. Buni aholisining asosiy qismi musulmon bo'limgan o'lkalarda ham islomga e'tiqod qiluvchilar soni ortib borayotganida ko'rish mumkin. Masalan, hozir AQSHda qariyb 10 million, Fransiyada 6 million, Germaniyada 3,5 million, Buyuk Britaniyada 1,5, Italiyada 1 milliondan ortiq, Gollandiyada 1 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi bo'yicha jami dinga e'tiqod qiluvchilarining 15 millioni musulmonlardan iborat. Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilga kelib ularning soni 40 milliongacha o'sishi bashorat qilinmoqda.

**Amerika Qo'shma Shtatlarida**, statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat fuqarolarining 56 foizini protestantlar, 28 foizini katoliklar va 7,5 foiz o'zini hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan – dinsiz deb hisoblaydiganlar hamda 3,5 foizini musulmonlar tashkil qiladi.

Amerikada ilk musulmonlarning paydo bo'lishi 1530–1851-yillar orasida G'arbiy Afrikadan qul savdosining yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. Qullik uchun zo'r lab olib kelinayotgan minglab G'arbiy Afrikaliklarning 14–20 foizini musulmonlar tashkil etgan. Bu musulmonlarning avlodlari o'z dinlarini unutib, asta-sekin xristianlikni qabul qilganlar.

Keyingi ko'psonli va bugungi kunda ham o'zligini saqlab qolgan musulmon jamoalarining paydo bo'lishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Zero, aynan shu davrda Livan, Suriya, Usmonlilar imperiyasi va boshqa davlatlardan ko'chib kelgan musulmonlar AQSHda muqim yashay boshlaganlar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng bir necha bosqichni qamrab olgan va musulmon olamining deyarli barcha mintaqalaridan kelgan emigrantlarning uchinchi katta oqimi kuzatilgan. Xususan, ma'-

lumotlariga ko'ra, 1980—1996-yillarda mamlakatga Erondan 234,2, Pekistondan 131,8, Livandan 71,5, Iordaniyadan 57,6, Bangladeshden 50,6, Iroqdan 46,4, Afg'onistondan 40,2, Suriyadan 37,2, Turkiyadan 36,6 ming, sobiq ittifoqning musulmon respublikalaridan 50 (jami 756,1) ming kishi ko'chib kelgan. AQSHga doimiy yashash uchun kelgan 59,3 ming misrliklarning deyarli yarmi, 498,2 ming hindistonliklarning chorak qismi hamda 73,2 ming nigeriyalik va 59,2 efiopiyalikning aksariyatini musulmonlar tashkil etgan<sup>20</sup>

Shu bilan birga, AQSHda jami musulmonlar sonini aniqlashda ba'zi tafovutlar mavjudligini ham ta'kidlash zarur. Buning asosiy sababi — ba'zi diniy tashkilotlarning o'z izdoshlari sonini ko'paytirib ko'rsatishga harakat qilishidadir. Jumladan, AQSHdagi musulmonlar soni Shimoliy Amerika islam jamiyatiga ma'lumotiga ko'ra, 2000-yilda 7 million, Amerika oliv islam kengashi ta'kidlashicha 15 million, Britaniya ensiklopediyasi ma'lumotlariga ko'ra, 4,1 million kishini tashkil qilgan.

Umuman olganda, musulmonlarning soni bo'yicha tafovutlar barcha mamlakatlarga xosligini ta'kidlash zarur. Shuning uchun ham, G'arb dunyosi mamlakatlarida musulmonlarning soni haqida yuqorida qayd etilgan raqamlar taxminiy ekanini qayd etish lozim. Buni oxirgi ma'lumotlarda AQSHdagi musulmonlar sonining 9,7 million kishi deb ko'rsatilishi ham tasdiqlaydi.

Jug'rofij va etnomadaniy tavsiflari haqida gap ketganda, ma'lumotlarda amerikalik musulmonlarning 26,2 foizini arablar, 26,2 foizini arab bo'limganlar (turk, eron va boshqalar), 23,8 foizini afroamerikaliklar, 24,7 foizini Janubiy Osiyoliklar, 6,4 foizini Sharqiy Osiyoliklar, 11,6 foizini boshqa mintaqalardan ko'chib kelganlar tashkil qilishi qayd etilishini ta'kidlash zarur<sup>21</sup>

AQSH musulmonlarining mamlakat hayotidagi o'rni va mavqeい mustahkamlanib borayotganini ularning umumiyligi ma'lumot darajasi o'sib, moddiy-moliyaviy ahvoli yaxshilanib borayotganida ham ko'rish mumkin. Manbalarda ularning 44 foizi oliv, 32 foizi tugallanmagan oliv ma'lumotga egaligi, 52 foizi o'zini o'rtasinfga mansub, 28 foizi esa boy deb hisoblashi ham buni tasdiqlaydi<sup>22</sup>

Amerika jamiyatida musulmonlar soni va mavqeining ortib borayotganini Ramazon ro'zasining ijtimoiy hodisaga aylanganida ham ko'rish mumkin. 1990-yillar oxirida Kongress, Pentagon va Davlat

<sup>20</sup> Edward L. Quenn, III, Stephen R. Prothero, and Gardiner Shattuck, Jr. *The Encyclopedia of American Religious History*. (New York: Facts on File, 1996), p. 320.

<sup>21</sup> *Islam in the United States, FACT SHEET* (According to the US State Dept.); Source: Zogby International, August 2000, Survey commissioned by the American Muslim Council.

<sup>22</sup> Islam v neislamskom mire — <http://www.africana.ru/konkurs/raboti/Tulsky/islam.htm>.

departamenti xodimlari «iftorlik»lar uyuşhtirishni yo‘lga qo‘ygan bo‘lsalar, 1996-yilda ilk bor «Iyd al-Fitr» bayram tadbiri o‘tkazilishi orqali bunday an‘ana Oq uuga ham o‘tdi.

1998-yilda Dengiz qurolli kuchlarining Norfolkdagi bazasida harbiylar uchun birinchi masjid ochildi. Hozirda AQSHda 1250 ta masjid, 300 dan ortiq islam markazlari va jamiyatlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

1990-yillarning yarmida gumanitar fanlar bilan bir qatorda arab tili, islam ta’limoti o‘qitiladigan musulmon maktablari paydo bo‘ldi. Hozirgi kunda bunday maktablar Amerikada ommaviyashib ketdi va ularning soni 1000 taga yetdi. Mutaxassislar fikricha, buning sababi ottonalar farzandlari islam ta’limini olishlari bilan bir qatorda, «ko‘cha»ning salbiy ta’siri (chekish, ichish va boshqalar)dan xoli bo‘lishlarini istaydilar. Ayni paytda, bu jarayonda musulmonlar avvalgi davrlardagidan farqli ravishda masjidlar qurishga emas, balki maktablar ochishga asosiy e’tibor qaratayotganlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amerikada islamning tarqalishi o‘ziga xos hodisalarini keltirib chiqarganini ham ta’kidlash zarur. Islamni o‘z mafkuralariga aylantirib olgan (Xudo avval oliy irq bo‘lmish qora tanlilarni yaratgan, Iso va Muhammad ham qora tanli bo‘lganlar va h.k.) qora tanli irqchi guruhlarning paydo bo‘lgani bunga misol bo‘la oladi. XX asrning boshlarida shakllangan bunday qarashlar va unga asoslanib faoliyat olib boradigan guruhlar hozirda o‘z safida 100 mingdan ortiq kishini birlashtirganini alohida qayd etish lozim.

Bugungi kunda mamlakatda musulmonlarni birlashtirib turadigan «AQSH va Kanadaning islam assotsiatsiyalari federatsiyasi», «AQSH va Kanadaning musulmon studentlari assotsiatsiyasi», «Amerika Oliy Islom kengashi», «Amerika musulmon yordami» kabi o‘nlab tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

AQSHda musulmonlar sonining ortishi, ma’rifiy islamning rivoji barobarida islam niqobi ostida harakat qilayotgan diniy ekstremistik tashkilotlar ham asta-sekin bo‘lsa-da, tarqala boshlaganini ham ta’kidlash zarur.

Ayni paytda, «al-Qoida», «Hizb at-tahrir al-isloviy» kabi qator diniy ekstremistik tashkilotlar AQSHdagi musulmon tashkilotlariga o‘za’sirini kuchaytirish maqsadida faoliyat olib bormoqdalar. 2001-yil 11-sentyabr voqealari ham ular bu sohada muayyan natijalarga erishganliklarini ko‘rsatib berdi.

**Evropada** islamning tarqalishi haqida gap ketar ekan, eng avvalo quyidagilarni nazarda tutish lozim. Birinchidan, ushbu qit’aga birinchi musulmonlar 711-yilda Tariq ibn Ziyod davrida kelgan edilar. Taxminan 800 yil davomida Ispaniya musulmon mamlakati bo‘lib keldi. XVII asrga kelib inkvizitsiya oqibatlari va majburan katoliklikka o‘tkazilishi

natijasida musulmon jamoalari ma'lum miqdorda barham topdi. Ikkinchidan, albanlar, bolgarlar (pomaklar), makedoniyaliklar (turbeshlar), bosniyaliklar kabi Yevropada azaldan yashab kelayotgan xalqlar islomga e'tiqod qilib keladilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, islomning hozirgi davrda Yevropaga kirib kelishi haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Fransiya.** Yevropa mamlakatlari ichida eng ko'p sonli musulmon jamoasi to'plangan davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jamoa shakllanishi tarixi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. 1950-yillarda Fransiya avtomobil zavodlarida ishchilarning yetishmasligi tufayli Jazoir, Marokash, Tunis, Turkiya, Senegal, Mali, Livandan oila a'zolarisiz, faqat ishchilarning o'zini jalb etishga, 1970-yillarda esa ularga oilalarini olib kelishga ruxsat berildi. Shundan keyin Fransiyaga nafaqat ularning xotin, bola-chaqalari, balki boshqa qarindoshlari ham ko'chib kela boshladi. Mazkur jarayon mamlakatda katta musulmon jamoasi shakllanishi uchun zamin yaratdi.

Mamlakatda 2000 ga yaqin masjid va ibodat uylari faoliyat olib boradi. Jumladan, Parij jome' masjidi Birinchi jahon urushidan keyin fransuz armiyasida jang qilgan jazoirliliklarga minnatdorlik ramzi sifatida qurilgan va eng kattaligi bilan ajralib turadi. Fransiya masjidlarida imomlik qiluvchilarning qariyb chorak foizini musulmonchilikni qabul qilgan fransuzlar tashkil etishi Fransiyadagi musulmon jamoasi qiyofasiga xos xususiyatlardandir.

150 taga yaqin tashkilotni birlashtirib turadigan «Fransiya islam tashkilotlari federatsiyasi», 140 ta tashkilot faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan «Fransiya musulmonlari milliy federatsiyasi», «Islam va G'arb» aloqalar Markazi Fransiyadagi eng yirik uyushmalardan hisoblanadi. Ularning ichida «Fransiya islam tashkilotlari federatsiyasi» aqidaparastlik va ekstremizmga moyil tashkilotlarni birlashtirib turadi.

Shu o'rinda diniy ekstremistik tashkilotlar mamlakat Ichki ishlar vazirligining qat'iy nazoratiga olingenini qayd etish lozim. Ayni paytda, musulmonlarni mamlakat ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotiga integratsiya qilish, ularda tegishli ko'nikmalarni shakllantirish masalasiga ekstremizmning oldini olishga xizmat qiladigan asosiy omillardan biri sifatida qaralgan holda, izchil ishlar olib borilayotganini ham ta'kidlash zarur.

**Germaniya.** Germaniya musulmon olami bilan dastlab salb urushlari davrida munosabatga kirishgan edi. Shunday bo'lsa-da, nemis xalqining musulmon aholi bilan o'zaro aloqalari faqat birinchi jahon urushidan keyingina rivoj topdi.

Birinchi jahon urushi oxirlarida asirlikdan ozod etilgandan so'ng, Germaniyada yashashni afzal ko'rgan kishilar, islomni qabul qilgan

nemislar va Germaniyaga ko'chib kelgan savdogar va ishchilar hisobiga mamlakatda dastlabki musulmon jamoalari tarkib topdi.

Ikkinci jahon urushidan keyin bu jamoa asir tushgan, ammo jazolanishdan qochib, o'z yurtiga qaytishni istamagan sho'ro musulmonlari hisobiga kengaydi. Germaniyaning yuksalishi va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning o'sishi sharoitida xorijdan ishchilar jalb etishga ruxsat berilishi mamlakatda musulmonlar sonining tez o'sishiga zamin yaratdi. Bu asosan, Turkiya, Marokash, Yugoslaviya, Albaniya musulmonlari hisobiga sodir bo'la boshladи. Natijada 1920-yilda bir necha ming bo'lgan musulmonlar soni 1951-yilda 50 ming, 1971-yilda 1150 mingga yetdi.

1970-yillarning oxirlarida mamlakatda qo'nim topa boshlagan musulmonlar to'lqinini Afg'oniston, 1990-yillarning boshidan esa Bosniya va Kosovodagi fuqarolar urushidan qochib kelganlar tashkil etdi.

Shu bilan birga bugungi kunda Germaniya bilan o'z hayotini uzviy bog'lagan va uni o'z vatani deb biladigan, uning an'analarini yuksak qadrlaydigan musulmonlarning ikkinchi va uchinchi avlodи vakillari ham kamol topmoqdaki, bu islomning mamlakatda chuqur ildiz otayotganini ko'rsatadi.

Hozirda Germaniyadagi musulmonlarning umumiy soni 3 milliondan oshib ketdi va islom mamlakatda mavqeい jihatdan ikkinchi o'rinni egalladi. 70 foizdan ortig'ini tashkil etadigan turklar Germaniya musulmonlarining qiyofasini belgilab bermoqda deyish mumkin. Shuningdek, Shimoliy Afrika va sobiq Yugoslaviyadan kelgan musulmonlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Musulmonlarning 150 mingini islomni qabul qilgan nemislar tashkil etishi ham Germaniya musulmonlari qiyofasiga o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

Germaniyada birinchi masjid birinchi jahon urushi vaqtida Berlin yaqinidagi Niksdorf shahrida imperator Vilgelm II buyrug'iga binoan barpo etilgan edi. Hozirda mamlakatda masjidlar soni ham ortib bormoqda. 1997-yilda ularning soni 26 ta bo'lgan bo'lsa, 2000-yilning boshiga kelib 66 taga yetdi. Bundan tashqari ertami-kechmi masjidlarga aylanishi mumkin bo'lgan 2 mingdan ortiq ibodat uylari ham bor. Mayjud masjidlar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi, eng yirik tashkilotlardan biri «Diniy tashkilotlarning turk-islom ittifoqi» hisoblanadi.

Ayni paytda, mamlakatda «Islom madaniy markazlari ittifoqi», «Turk-islom ittifoqi», «Evropa islom tashkilotlari ittifoqi» va «Frankfurt islom jamiyatি» kabi 50 dan ortiq musulmon uyushmalari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Musulmonlarning ko'payishi va ma'rifiy islom rivoji bilan bir qatorda, boshqa mintaqalarda bo'lgani kabi Germaniyada ham diniy ekstremistik harakatlar ildiz ota boshlaganini ta'kidlash zarur. Xususan, 30 mingdan ortiq faollarni birlashtirgan 20 ga yaqin islomiy tashkilotlar Konstitutsiyani qo'riqlash federal muassasasining doimiy nazorati ostiga olingan. Bunday tashkilotlar nafaqat u yoki bu musulmon mamlakatida

dunyoviy hokimiyatni ag‘darib tashlash va xalifalikni barpo etish, balki Germaniyada ham islomiy davlat qurishni o‘zlarining maqsadi deb biladilar.

Aksilterror qonunchiligi kuchaytirilganidan so‘ng diniy ekstremistik harakatlarga qarshi kurash faollashdi. Terrorchi-kamikadzelar oilasiga yordam berib kelgan, «XAMAS»ni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda ishtirot etib kelgan «al-Aqso» xayriya jamg‘armasi, «Kyoln xalifaligi» kabi terrorchilik tashkilotlarining faoliyatini to‘xtatilgani ham buni tasdiqlaydi. Shunday bo‘lsa-da, taqiqlangan bunday tashkilotlar a’zolari yashirin faoliyatni davom ettirayotgani ma’lum.

Germaniyada diniy ekstremizmning muayyan o‘ziga xosliklari ham mavjud. Masalan, 1960-yillarda ushbu mamlakatda paydo bo‘lgan va bugungi kunda asosan yirik shaharlar va universitetlarda faoliyat yuritayotgan «Hizbut-tahrir» tashkilotining nemis o‘ng ultra partiyalar bilan faol hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga intilishi kuzatilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, «Hizbut-tahrir» o‘zini qanchalik beozor qilib ko‘rsatishga harakat qilmasin, uning asl mohiyati dunyo davlatlari tomonidan tobora chuqurroq anglab yetilmoqda. Bunga 2003-yilning 14-yanvaridan Germaniyada ham ushbu tashkilot faoliyatining qonunan man etilgani misol bo‘la oladi. Mamlakat rasmiylari fikriga ko‘ra, «Hizbut-tahrir» siyosiy maqsadlarga erishishda zo‘ravonlik va terrorni oqlovchi, unga da‘vat etuvchi tashkilotdir. Qayd etilgan holat xalqimizning «Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi», degan hikmatli so‘zlarining o‘rinli ekanini tasdiqlaydi.

**Buyuk Britaniya.** Ma’lumotlarga ko‘ra, 1,5 million britaniyalik musulmonlarning 610 mingini pokistonlik, 200 mingini bangladeshlik, 160 mingini hindistonlik, 350 mingini Yaqin Sharq va afrikaliklar tashkil etadi. Ularning soni yiliga 30 mingga ko‘paymoqda.

Ayrim mutaxassislar, yaqin 20 yil ichida islomni qabul qilganlar soni musulmon-emigrantlar sonidan ham oshib ketishi mumkin deb taxmin qilmoqdalar.

Islomni qabul qilayotganlarning o‘rtacha yoshi 30–50 orasida bo‘lib, ularning ichida o‘rta sinf vakillari va ayollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Xususan, britaniyalik musulmonlarning 1 millioni ayollar deb taxmin qilinadi. Islomni qabul qilish bilan bog‘liq jarayonlar haqida gap ketar ekan, ayrim mutaxassislar uni qiyosiy teologiya rivojlanishi bilan bog‘liq deb bilsalar, ba‘zilar uning ko‘payib borishini ushbu din haqidagi salbiy ma’lumotlarning ko‘payib ketishiga o‘ziga xos javob sisatida baholaydilar.

Musulmonlarning soni ortib bўrishi bilan birga ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi mavqeい haim mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda Lordlar palatasida 3 ta, Umumiy palatada 1 ta, mahalliy

parlamentda 160 musulmon faoliyat olib borayotgani ham buni tasdiqlaydi.

Mamlakat musulmonlariga, 2 ming masjid va ibodat uylari, 80 ta madrasa xizmat ko'rsatmoqda. 1962-yildan Londonda o'z oldiga islamni targ'ib qilish hamda musulmon va nomusulmonlar o'rtasida do'stlik rishtalarini o'rnatishni maqsad qilib qo'ygan «Birlashgan Qirollikning islam missiyasi» faoliyat olib bormoqda. U masjidlar qoshida tashkil etilgan markazlari «Yosh musulmon» gazetasini tarqatish orqali aktiv missionerlik faoliyatini olib bormoqda.

1970-yilda Londonda Saudiya Arabiston yordamida musulmonlarning «Birlashgan Qirollik va Yevropa ittifoqi» tashkiloti tuzildi. 1979-yildan mamlakatda «Islam matbuoti ittifoqi» tashkil qilindi.

Musulmonlarning ko'payishi, islamning keng tarqala borishi bilan bir qatorda Buyuk Britaniyada ham islam bayrog'i ostida faoliyat yuritadigan diniy ekstremistik tashkilotlar ham paydo bo'lganini ta'kidlash zarur. Jumladan, «Hizbut-tahrir»ning shtab kvartirasi aynan Britaniyada joylashgan deb hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatda terrorchilikni qo'llab-quvvatlovchi «Islam xayriyasi» tashkiloti ham faoliyat olib boradi.

«Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi yangi qonun bo'yicha mamlakatda 21 tashkilot terrorchilik uyushmasi ro'yxatiga olingan bo'lib, ulardan 14 tasi islam bayrog'i ostida faoliyat olib boradi.

Umuman olganda, xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirda Gretsiyada o'zgarishsiz qolayotganini va Islandiyada deyarli yo'qligini inobatga olmaganda, G'arbiy Yevropaning barcha mamlakatlarida musulmonlarning soni tez o'sib bormoqda. Buning bir qator sabablarini ko'rsatish mumkin. Eng avvalo, musulmon oilalarida tug'ilishning yuqoriligini va bunga zid ravishda yevropalik (xristian) oilalarda tug'ilishning pasayib ketayotganini ta'kidlash zarur. Bunda «Bitta oilabitta farzand» degan yondashuvning ustuvorligi va ayni paytda, mutaxassislar fikricha, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan feministik harakatlar ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Bu jarayon moddiy qashshoqlik, iqtisodiy qiyinchiliklar, millatlararo nizolar, fuqarolar urushidan qochishga intilayotgan kishilarning tinch va iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yevropa mamlakatlarida qanday bo'lmasin o'mashib olishga harakat qilishlari natijasida ham chuqurlashib bormoqda.

Musulmonlar «an'anaviy jamiyat» vakillari bo'lib, ularda qon-qardoshlik aloqalari kuchli ekani e'tiborga olinsa Yevropa mamlakatlarida ularning yangidan-yangi mavzelari tez ko'payib borayotganining yana bir sababini tushunib yetish mumkin bo'ladi. «Ochiq jamiyat» tamoyillari hukmronligi, o'zgacha qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzining himoya qilinishi, qon-qardoshlik aloqalarini tiklashga xizmat qiladigan tegishli huquqiy, demokratik tizimlarining mavjudligi ham bunga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy munosabatlar, ya’ni, bunday aloqalarning mustahkamligi va emigrantlar hayoti, mehnati uchun huquqiy kafolatlarning mavjudligi ham ko‘proq «jozibador» omil sifatida chiqmoqda.

Musulmonlar sonining o’sishi haqida gap ketar ekan, bunda lisoniy yaqinlik omili ham muhim omil bo‘layotganini qayd etish lozim. Boshqacha aytganda, Yer yuzining turli chekkalaridagi mustamlakalarida o‘z tillari va madaniyatini singdirishga harakat qilgan va bu yo‘lda muayyan muvaffaqiyatga erishgan davlatlar asosiy emigratsiya unvoniga aylanmoqda. Fransiya musulmonlarning katta qismi Mag‘rib (Jazoir, Tunis, Marokash)dan, angliyalik musulmonlarning aksariyati Hindiston, Pokiston va Bangladeshdan ko‘chib kelganlar ekani ham buni tasdiqlaydi.

Va, nihoyat, Yevropa tub aholisining islomni qabul qilishi bilan bog‘liq jarayonlar chuqurlashib borayotgani ham musulmonlarning ko‘payib borishiga zamin yaratayotganini ta’kidlash zarur.

Shu bilan birga, Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarda islomiy diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyat olib bormoqdaki, bu mintaqada aholisida islom to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvurlarning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

**Islamofobiya.** Ilmiy adabiyotlardagi mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, islamophobia atamasi 1997-yilda britaniyalik tadqiqotchi Runnmed Trast (Runnymed Trust)ning «Islamofobiya – barcha uchun chaqiriq» deb nomlangan ma’ruzasi nashr etilgandan so‘ng keng qo‘llana boshlagan. Boshqa manbalarda «islamofobiya» atamasi Fransiyada yashovchi eronlik musulmon faollari tomonidan muomalaga kiritilgani qayd etiladi.

Islamofobiya bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish loyihasiga rahbarlik qilgan Sasseks universiteti professori Gordon Konvey (Gordon Conwey) fikricha, islamofobiya islomni qoloq sivilizatsiya, musulmon madaniyatini qotib qolgan va o‘zgarmas deb bilishga, o‘zgacha fikrlar va munozaraga dushmanlik ko‘zi bilan qaraydigan, ayollarni kamsitadigan, aqidaparast va boshqa madaniyatlarga xavf-xatar tug‘dirish salohiyatiga ega madaniyat sifatida baholashga asoslangan. Bu fikrni britaniyalik tadqiqotchi Runnymed Trast qisqacha qilib «Islom sherik emas, dushman» degan g‘oyada ifodalab bergen edi.

Umuman olganda, islamofobiya islom dinini tanqid qilish, unga bo‘lgan nafrat, yoqtirmaslik ruhidagi qarashlar va musulmonlarga nisbatan kamsitish, tazyiq o‘tkazishga asoslangan harakatlarni ifodalaydi.

2001-yil 11-sentabr terakti bunday aksislomiy qarashlarning yangi to‘lqinini keltirib chiqardi va yuqorida aytilan «aksioma»ni tasdiqladi desak bo‘ladi.

Mutaxassislar Yer yuzining turli nuqtalarida diniy ekstremistik tashkilotlar tomonidan qo‘poruvchilik harakatlari davom ettirilayotgan bir paytda islamofobiyaning bundan keyin ham o’sishi xavfi borligini qayd qilmoqdalar. Bunday xavf mavjudligini quyidagi raqamlarda ko‘rish

mumkin. «Evrobarometr» ma'lumotlariga ko'ra, shvetsiyaliklarning 18, italiyaliklarning 30, niderlandiyaliklarning 31, britaniyaliklarning 32, fransuzlarning 48 foizi boshqa din va madaniyat vakillarini butunlay yoqtirmasliklarini ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, bugungi kunda islamofobiya rivojiga ta'sir qilayotgan bir qator omillarni ko'rsatish mumkin. **Birinchidan**, amalga oshirilayotgan teraktlarni bilib-bilmay islom bilan bog'lash bunga zamin yaratayotganini qayd etish zarur.

**Ikkinchidan**, ommaviy axborot vositalari va rasmiy doiralar tomonidan terrorchilarga nisbatan «shahid», «shahid belbog'i», «mujohid», «Alloh lashkarlari» kabi so'zlarning ishlatalishi ham islom va musulmonlar to'g'risida noto'g'ri tasavvurlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

**Uchinchidan**, islomiy dunyoqarash va urf-odatlarni buzib ko'rsatish ham bu jarayonda o'z ifodasini topmoqda.

Islomning obro'-e'tiborini tiklash uchun kurashib, g'alaba qozonish oson ish emas. Buning uchun barcha ilmiy muassasalar, diniy tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik tizimini ishlab chiqish talab etiladi. Bunda ma'rifiy islomni targ'ib qilish, uni noto'g'ri talqinlardan himoya qilishning ta'sirchan yo'llarini yaratishda zamonaviy imkoniyatlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, konfessiyalararo nizo-urush qayta-qayta ta'kidlanayotganidek, to'qib chiqarilgan, sun'iy hodisa bo'lib, xalqaro maydonda yoki mamlakat ichidagi siyosiy kelishmovchiliklar va nizolarni axborot yo'li bilan diniy darajaga ko'tarishdan boshqa narsa emas. Shunday ekan, qayerda yashashi, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'i nazar, kishilarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish bugungi kun va yaqin istiqbolning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

## V bob. DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID

**Ekstremizmning mazmun-mohiyati.** «Ekstremistik» so‘zi esa «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish» ma’nolarini bildiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va me’yorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Turli ekstremistik guruhlarning o‘zaro munosabatida doimiy kelishmovchilik va janjallar, voqelikning keskin o‘zgarishi sharoitida ular bo‘linib ketadigan guruhhlar o‘rtasidagi «revolyutsionerlikda» musobaqaqlashuv kuzatiladi. Ularga yopiq sektalarga xos mistik tildan, e’tiqodga da’vat qilish yoki undan «chetlashish», «shakkoklik» uchun jazolash kabi uslublardan foydalanish xosdir. Amerikalik sotsiolog K. Keniston «bunday guruhlarda odatiy shaxsiy nizolar, liderlik uchun kurash, did va qarashlardagi farq sezilarli darajada o‘sib, ba’zida, hatto, hayot-mamot masalasigacha yetib boradi», — deb yozgan edi.

Yashirin «armiya»larning ichki tarkibi, odatda, «kommandos» (italyan terrorchilarida — «kolonnalar», «musulmon birodarlar»da — «jovalalar») deb ataladigan tezkor birliklardan tashkil topadi. Ular bir-birlarini faqat laqablari orqaligina biladigan uch yoki besh kishilik guruhlardan iborat piramida shaklida tuziladi. Ularning tashkiliy tuzilmasi barcha davlatlarda deyarli bir xil. «Jangovar guruh» tashkilot a’zolarining asosiy ehtiyojlarini qondirish, jangarilar tashqariga chiqmaydigan bevosita yopiq ijtimoiy muhitni yaratishdek ko’plab vazifani bajaradi. Bir so‘z bilan aytganda, jangovar guruh terror xurujini uyushtirishdek asosiy vazifasidan tashqari uning tarkibidagi kishilar uchun ijtimoiy muhit vazifasini ham bajaradi.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlarga yangi a’zolarning qo’shilishi, ko’pincha, dingga kiritish, qabul qilishdekk shaklu shamoyil kasb etadi hamda bir qancha tanlov va sinov bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ekstremistik harakatlarning eng quyi tabaqasi ko’pincha siyosiy tusga ega bo‘limgan, mayda zo’rlik va jinoyatlar sodir etadigan unsurlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday zo’rlikning siyosiylashtirilishi terrorizm tomon qo‘ylgan birinchi qadam bo‘ladi. O‘z doirasiga yangi kimsalarni tortar ekan, terrorchilik guruhi yoki uning rahbariyati so‘zsiz bo‘ysunishni va «ish»ga mutaassibona sadoqatni talab qiladi. Keyinroq esa yollanuvchilar «hamma narsani biluvchi» va ularga yo‘lboshchilik qiluvchi sarbonga duch keladilar.

Hozirgi davrda eng avvalo axborot chegaralarining barham topishida o‘zligini namoyon qilayotgan globallashuv sharoitida va bir paytlar xalqaro munosabatlar mazmunini belgilagan ikki qarama-qarshi kuch — sotsializm va kapitalizm o‘rtasidagi o‘zaro kurashning barham topishi

natijasida ekstremizm va terrorizm mamlakatlar, mintaqalar va umuman dunyo xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida birinchi o'ringa chiqdi. Qo'poruvchilik faoliyatining turli ko'rinishlarini o'z ichiga olgan infrastrukturani shakllantirgan va rivojlantirgan mazkur ikki dunyoqarash o'rtasidagi kurash hozirda turli xil kuchlarni birlashtirgan ko'p qutbli dunyoning mazkur infrastrukturaga qarshi kurashidek shakl-shamoyil kasb etmoqda.

Bu, birinchi navbatda, ekstremizm va terrorizmning anarxizm va fashizmning arxaik shakllari bilan qorishmasi hisoblangan va ommaning keng qatlamlari bilan bog'lovchi halqa sifatida islom shiorlaridan ustalik bilan foydalanadigan, aslida esa xalq bilan hech qanday aloqasi yo'qligini mohirona yashira oladigan holat kasb etdi. O'z vaqtida, XX asrning 70-yillarida, terrorchilar xalq bilan birgalikni ko'rsatish va uning nomidan harakat qilish uchun kommunizm shiorlari ostida faoliyat yuritishi va shu yo'l bilan mablag' to'plashi qulayroq edi. O'sha yillarda Lotin Amerikasida ekstremistik ruhdagi kommunistparast tuzilmalarning jangarilari jamiyatda parokandalikni yuzaga keltirish va tartibsizlik to'lqinida kommunistlarning hokimiyatni qo'lga olishiga sharoit yaratishga qaratilgan ko'plab terrorchilik xurujlarini sodir etardilar. Biroq aksariyat hollarda, ular hokimiyatni qo'lga olish niyatlariga erisha olmadilar va jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilish maqsadini ko'zlagan shov-shuvli terrorchilik xurujlarini amalga oshirish bilan qanoatlanishga majbur bo'ldilar. Ekstremistik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo'rquv va vahimada tutib turish va shu yo'l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchszilik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan edi. Bu esa o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotini va ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni jiddiy qiyinlashtirar edi.

Bugungi kunda kommunistik shiorlar unchalik ham mashhur emas, ekstremistik tuzilmalarni «qizil rangi» uchun yirik mablag'lar bilan qo'llab-quvvatlagan SSSR ham yo'q. O'z navbatida, AQSH va uning sheriklariga ham, javob tariqasida shunga o'xshash tuzilmalarni qo'llab-quvvatlash uchun yirik mablag'larni sovurishiga hech qanday zarurat qolmadi. Biroq yangi sharoitda har xil turdag'i buzg'unchilik, beqarorlikni keltirib chiqarishga qaratilgan vositalar bugun ham ana shu maqsadlarga faqat islom shiorlari ostida yo'naltirilayapti, xolos.

**Diniy ekstremizm: tarix va voqe利k.** Ekstremistik qarashlarni barcha diniy ta'limotlar doirasida uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmon feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar — papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurban bo'lismiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini

ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Shunday ekan, ekstremizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossizdir. Xususan, islom dini, turmush tarzi va qadriyatlar majmui sifatida hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yoki, din va musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongu shuurini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydilar.

Shunisi diqqatga sazovorki, ekstremistik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror bir shaklda o'zлari jar solayotgan, o'zлari «intilayotgan» jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi.

Kommunizm, xalifalik – «umumiylar farovonlik va sog'lom mutanosiblik jamiyat» oliy maqsad deb ko'rsatilgan holda, qo'rquv va buzg'unchilik ularga erishish yo'li sifatida taklif etiladi. Bu esa, o'z vaqtida mashhur bo'lgan, Rossiya va Yevropada uzoq yillar davomida buzg'unchilik yo'lida terrorchilik usullarini qo'llab kelgan tuzilmalar faoliyatini oziqlantirib kelgan anarxizm g'oyalari bilan hamohanglik kasb etadi.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va aqidaparastlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, islom, yahudiylik dirlari ta'lilotidan foydalanmoqdalar. Shu bilan birga, diniy ritorika ularga ko'zda tutilayotgan jamiyatning aniq shaklu shamoyilini taqdim etmagan holda (bu ular uchun xuddi anarchistlar kabi unchalik ahamiyatga ega emas) xayoliy jamiyat haqidagi tasavvurlardan foydalanish imkonini beradi. Bunda eng muhimmi tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishdir. Unga erishish esa, o'ziga xos eng umumiylar maqsadni tashkil etadi, deyish mumkin.

Noqonuniy quroq-yarog' savdosi va narkobiznes hisobidan katta mablag'lar to'planayotgan, musulmon dunyosida shakllangan o'ziga xoslik tufayli yuzaga kelgan vaziyatda islomni shior qilib olgan ekstremizm va terrorizm xavfsizlikka asosiy tahdid sifatida birinchi o'ringa chiqdi.

Shuni ham tan olish kerakki, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta'sirining kuchayishi bugungi kunda ekstremizm va terrorizmning hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan darajada ko'zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib keldi. Qiyos uchun: narkobiznesdan keladigan foydaga va soxta inqilobiyligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sotsialistik tuzum yordamiga tayanib, XX asrning

70-yillarda lotinamerikalik ekstremistlar ko'plab terrorchilik harakatlarini sodir etgan bo'lsalar ham, ommaviy axborot vositalarining o'sha paytdagi rivojlanganlik darajasi ularga global miqyosga chiqish imkonini bermagan edi. Bunday vaziyatda Lotin Amerikasi ekstremizmi mintaqaviy darajadan tashqariga chiqq olmagan.

Ekstremizm va terrorizm ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmas ekan ko'zlangan «samarani» bermaydi. Shu ma'noda ular o'zaro bog'liqidir. Terrorchilik xuruji ommaviy axborot vositalarida qanchalik keng yoritilsa ushbu harakatni sodir etishdan kutiladigan natija shunchalik bevosita va yuqori bo'ladi. Bu esa, u yoki bu harakatni o'tkazishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad hisoblanadi. Axborot maydoni rivojlanib, tobora to'yinib borayotgan, ammo uni yetkazishda mazmunan ham, shaklan ham o'zibo'larchilik ustuvorlik qilayotgan hozirgi davrda OAV ekstremizm va terrorizm qo'lidagi kuchli quroqla aylanib qolmoqda. To'g'ri, hech bir OAV o'z holicha terrorchilik xurujining «samaradorligini» anglagan holda tashkil etadigan tizim hisoblanmaydi. Ammo aksariyat hollarda bunga ko'maklashmoqda, deyish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, tarixiy, diniy va milliy xususiyatlar aholining keng qatlamlari bilan muloqot tili va undagi o'ziga xos urg'ularni tanlashda muhim o'rinni egallaydi. Tabiiyki, Markaziy Osiyo mintaqasida kommunistik yoki nasroniylik emas, balki aynan islom shiorlaridan foydalaniлади.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'z tarixida islom rivojiga hech qanday aqidaparastlik va jangarilik unsurlarini olib kirmagan. Aksincha, mintaqada islom dini yoyilgan vaqtidan to bugungi kungacha insonparvarlik va bag'rikenglik an'anasi ustuvor bo'lib kelmoqda. O'rta asrlarda Arab Sharqida ayrim sufiy birlashmalari jangovarlikni namoyon qilgan hamda inkvizitsiya va jazolash tuzilmalari vazifalarini bajargan vaqtda ham Markaziy Osiyo sufyligida insonga muhabbat va bag'rikenglik targ'ib qilinar edi.

Ayni paytda, barcha davrlarda u yoki bu etnik guruhga mansublik bog'lovchi (birlashtiruvchi) unsur sifatida muayyan vazifani bajargani uchun ham Markaziy Osiyoda qaror topgan islom dini har qanday milliylikdan yuqori turishini (kosmopolitizmni) namoyon etganini ta'kidlash zarur. Shuning uchun ham, XX asrning boshlaridagi arab modernistlaridan farqli ravishda jadidlar undan yiroqlashib, o'z kuchlarini birinchi navbatda ham diniy, ham milliy ongni o'stirishga sarflagan edilar.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi diniy bag'rikenglik, insonparvarlik mayllari, fan va san'atning rivojlanishi Arab Sharqida qarshilikni keltirib chiqardi. Natijada XIII–XIV asrlarda bugungi kunda terrorchilik tuzilmalarini shakllantirayotgan ekstremistlar g'oyaviy jihatdan tayanayotgan aqidaparast salafiylik oqimi yuzaga keldi.

Ibn Taymiyya boshchiligidagi salafiyalar Markaziy Osiyo mutafakkir, olim va ulamolarini «islom mohiyatini soxtalashtirish»da ayblab, xalifalikni ideallashtirishga asoslangan qarashlar tizimini ishlab chiqdilar va jihodni unga erishishning asosiy vositasi sifatida e'lon qilib, o'z g'oyalariga jangovarlik tusini berdilar. Markaziy Osiyoda shakllangan mayllar, o'sha davr arab muhitida ham o'z tarafdarlariga ega ediki, bu tabiiy ravishda, muayyan guruhlarning hokimiyatini zaiflashtirar edi. Shunday qilib, salafiylik ham hokimiyat uchun kurashning mahsuli edi. Shu tariqa, XVIII asrning birinchi yarmida Muhammad Abdul Vahhab salafiylik asosida Arabiston yarim orolida hokimiyat uchun kurash olib borishga moslashtirilgan yangi ta'limotni yaratdi.

Yangi davr Arab Sharqidagi mutaassib oqimlar dastlab salafiylik va vahhobiylikka asoslangan bo'lsalar-da, keyinroq ulardan ham ilgarilab ketdilar. Bu tuzilmalarning g'oyaviy dasturi «ixvoniylik» va «jihod»ga asoslangan bo'lib, ko'p sonli jangarilik uyushmalariga g'oyaviy ozuqa berib kelmoqda.

1928-yilda Misrning Ismoiliya shahridagi maktabda mudarrislik qilgan, sufiylikning xasafiya maktabiga mansub bo'lgan Hasan Abdurahmon al-Banno musulmon olamini tozalash va musulmon aholi yashaydigan mamlakatlar hududida islom davlatini qurishdek vazifalarni o'z oldiga qo'ygan «Musulmon birodarlar» uyushmasini tuzdi. Barcha musulmon va nomusulmon hukumatlarga qarshi jihad – yalpi urush e'lon qilish ushbu maqsadga erishish yo'li sifatida belgilangan edi. Al-Banno o'zining «Fannul-mout» («O'lim san'ati») kitobida mavjud hukumatlarni yo'q qilishga erishish yo'llarini asoslab berdi va ilk marta o'zini o'zi qurban qilish shaklida jangarilik amaliyatini tayyorlash va amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatni oqlab fatvo berdi.

Harakatning yuzaga kelish shart-sharoitlari, tarixiy vaziyat va o'sha davrda Misrdagi siyosiy kuchlarning nisbatini o'rganish ko'plab tadqiqotchilarga unga mohiyatan terrorizmga asoslangan, trotskiycha uzluksiz inqilob g'oyasiga amal qilgan Kominternning barqaror ta'siri bo'lganini qayd etish imkonini bergen edi. Musulmon Sharqida kommunistparast guruhlarni shakllantirish uchun sharoitning yetarli emasligi Komintern faollarining ikki tartibda terror uslublarini targ'ib qilish, uni eksport qilish va islomiy tashkilotlarni o'zlarining siyosiy kurash usullari bilan qurollantirish orqali jamiyatni beqarorlashtirish-dek vazifani hal qilishga intilishlariga yo'l ochdi. Ular bu yo'lda muayyan muvaffaqiyatga erishdilar ham.

Bundan tashqari, fashistlar Germaniyasi emissarlari faolligi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. 1940-yilda Hasan al-Banno «Musulmon birodarlar»ning asosiy vazifasi terrorchilik hujumlari uyuştirish bo'lgan «maxfiy apparat»ni tuzadi. Shunisi

e'tiborga molikki, u tomonidan uyushtirilgan ayrim jangovar operatsiyalar fashistlar homiylik qilgan «Masr al-Fatot» tashkiloti yordamida amalga oshirilgan. Shu yillarda «Musulmon birodarlar»ning Suriyadagi bo'linmasi ham jangarilarning shunga o'xhash tizimini yaratdi. Ularning Suriyada o'tkazgan jangovar amaliyotlari esa fashistlar homiylik qilgan Antuan Saade boshchiligidagi Suriya Millatchilik partiyasi jangarilari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

150 kishi atrofida bo'lgan «maxfiy apparat»dagi jangarilar beshliklarga bo'lingan holda maxsus tayyorgarlikdan o'tganlar. Tayyorgarlik jarayonida jangarilarning irodasini Oliy rahnamoga butunlay bo'ysundirish, shu orqali ularni al-Bannoning «Fannul-mout» kitobida tushuntirilgan usullarda o'zini qurbon qilishga tayyorlaganlar. Al-Bannoning yuz yillar davomida yashirin faoliyat ko'rsatish va ma'naviy rahbar irodasiga so'zsiz bo'ysunish tizimlarini ishlab chiqqan sufiylilikning xasafiya mакtabiga mansub ekanini yodga oladigan bo'lsak, bunday texnologiya qayerdan o'zlashtirilgani oydinlashadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jangarilar asosan o'z fikrida sobit bo'lmagan, qat'iyatsiz kishilardan tayyorlanadi. Chunki bunday shaxslar o'zining kimligini ko'rsatish uchun keskin, oqibati puxta o'ylanmagan qarorlar qabul qilishga moyil bo'ladi.

Shunday qilib, islom bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatayotgan zamonaviy ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishini tarixning muayyan davrida ustuvor bo'lgan ko'plab unsurlar, turli jarayonlarning o'zaro ta'sirlashuvining natijasi deb tushunish mumkin.

Turli salbiy jarayonlarning omuxtalashuvi islom ritorikasi bilan qo'shilgan holda keyinchalik ikki sistema o'rtasidagi kurashda umumiyoq beqarorlashtiruvchi vosita sifatida qo'l keldi. Ularning har biri o'z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib uni moliyalashtirishga, kerakli yo'nalishga solishga harakat qilib keldi. «Musulmon birodarlar» o'z tashkilotlarini rivojlantirish uchun Britaniya hukumatidan mablag'lar olib turgani tarixdan ma'lum. Bu vaqtida britaniyaliklar ulardan arab davlatlari siyosiy sahnida faoliyat yuritayotgan boshqa kuchlarga qaramaqarshi kuch sifatida foydalananishga intilar edi. Biroq shunga o'xhash holatlarda bo'lganidek «birodarlar» bu mablag'lardan terrorchilik xurujlarini amalga oshirishda, jumladan, britaniyalik fuqarolarning o'zlariga ham hujumlar uyushtirishda foydalanganlar.

Keyinchalik «birodarlik» asosida ko'plab ekstremistik va terroristik uyushmalar vujudga keldi. Dastlabki aqidaparastlar Hasan al-Banno, Mustafo as-Siboiy o'rniiga kelgan Said Qutb, Muhammad Gazoliy, Umar at-Tilmisani, Salohiddin Ashmaviy, Ali Bayonuniy kabi shaxslar ushbu tuzilmalarining faoliyati yanada aggressivroq bo'lishiga o'z hissalarini qo'shdilar.

1953-yilda «Musulmon birodarlar» uyushmasining bir guruh a'zolari Iordaniyada «Hizbut tahrir al-islomiy» nomli yangi partiyani tuzadi. Bu partiyani Taqiyuddin Nabhoniy al-Falastiniy boshqaradi. Partiya o'z oldiga barcha musulmon davlatlari hududida yagona islom davlati — «xalifalik» tuzish maqsadini qo'yadi. Mohiyatan «Musulmon birodarlar»dan unchalik farq qilmagan ushbu partiya o'z harakatlarini u bilan muvofiqlashtirgan holda olib bordi va terrorchi tuzilmalar muntazam ravishda jangarilarni tayyorlab berish vazifasini bajara boshladi. Xuddi «birodarlar» bilan bo'lganidek, maxsus xizmatlar bozorida jangarilarga talab bo'lmanan hollarda partiya o'zi to'g'ridan-to'g'ri qo'poruvchilikni amalga oshira oladigan uyushmalar tuzadi. Bu oxir-oqibatda «birodarlar» bor joyda hizbutchilar, hizbutchilar bor joyda «birodarlar»ning faoliyat ko'rsatmasligida namoyon bo'lgan ta'sir doirasini bo'lib olishdek amaliyotning shakllanishiga olib keldi.

Dunyo bo'yicha faoliyat olib borayotgan bunday qudratli tashkilotlardan muntazam ravishda kichik terrorchi uyushmalar paydo bo'lib turadi. XX asrning 70-yillari boshidan musulmon olamida «Junud ul-Loh», «Jihod», «al-Jihad al-Islomiy», «Shabab-Muhammad», «al-Takfir val-Hijra» va boshqa tashkilotlar faoliyat olib bordi. Ularning ko'pchiligi hozir ham bor bo'lsa-da, bugun yuqorida qayd etilgan tashkilotlar a'zolarining eng faol qismini o'zida to'plagan va dunyoviy tarmoq sifatida faoliyat yuritayotgan «al-Qoida»ning bir qismi sifatida ish olib bormoqda.

Lekin, yangi sharoitda «al-Qoida» muhim bir xususiyatga ega, ya'ni u ekstremistik tashkilotlarni moliyalashtirish va modelllashtirish bilan shug'ullanadigan jangarilar va ekstremistlarning xizmatlari bozori sifatida tarkib topdi.

Ushbu tashkilot «al-Qoida» yetakchilarining kam-ko'stsiz yashashi, qo'poruvchilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi ulkan mashinaning doimiy faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun narkobiznes, kidnepping (tovon olish maqsadida kishilarni garovga olish), boy musulmon oilalaridan qo'rqtish orqali pul undirish va boshqa ko'plab manbalar hisobiga moliyaviy mablag'lar yig'adi.

Shu o'rinda jangarilar xizmat bozorida kasbiy mahoratga ega mutaxassislarning paydo bo'lishi XX asrning 90-yillarida terrorizmning beqiyos darajada avj olishiga zamin yaratganini ta'kidlash zarur. Gap shundaki, sovuq urush tugashi bilan malakali mutaxassislarning bir qismi o'z davlatlarida ishsiz va e'tiborsiz qoldilar. Bu ularni katta mablag'larga ega ekspert va yollanma jangchilar bozoriga yetaklab keldi. Ularning sa'y-harakatlari bilan giyohvand moddalar savdosini yangi darajaga ko'tarildiki, bu o'z navbatida terrorchilik xurujlarining faollashuviga olib keldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirda shunday holat yuzaga keldiki, terrorizmga qarshi turgan kuchlar o'z vaqtida ikki qutbga mansub mamlakatlar uzoq yillar davomida yaratgan ulkan ajdaho bilan kurashmoqdalar. Jangarilarni yollovchi kishilar shaklu shamoyili noma'lum xalifalik (yoki kommunizm)ni qurish yo'lida o'zini o'zi qurban qilib, qo'poruvchiliklarni amalga oshirayotgan kishilar ongini egallagan g'oyalarga mutlaqo befarqdirlar. Yollovchi ekspertlar hech qachon jangovar harakatlarda shaxsan ishtirok etib, o'zlarini qurban qilmaydilar. Har doim soyada qolgan holda, ular terrorchilikni narkobiznes bilan qo'shib, amalga oshiriladigan harakatlar ko'lami va terrorizmni tayyorlaydigan tarmoqlarni jiddiy kengaytirishga erishdilar. Ular mavjud ekstremistik tuzilmalardan mazkur sohadagi xizmatlar bozorini rivojlantirishda ham ustalik bilan foydalanmoqdalar. Bu bozor esa, ularning xizmatlariga doimiy talabni yuzaga keltiradigan ba'zan, «al-Qoida» va uning tuzilmalarini ham xohlagan maqomga soladigan asosiy buzg'unchi bo'g'in sifatida chiqmoqda.

Markaziy Osiyodagi ekstremistik oqimlar XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar, ayniqsa, arab ekstremistik tashkilotlari sa'y-harakatlari bilan shakllana boshlagan edi. Ularning asosiy niyati sobiq SSSRning musulmon aholi yashaydigan respublikalarini o'z maqsad-intilishlari doirasiga tortishdan iborat edi. Bunday maqsad, ya'ni soxta inqilobni eksport qilish g'oyasi o'sha asrning 30-yillarida Hasan al-Banno tomonidan bayon etilgan edi. Natijada Markaziy Osiyo respublikalarida xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan tizimni yaratgan guruuhlar paydo bo'ldi.

Uni yaratish chog'ida chet ellik yo'riqchilar rahbarligi va mahalliy buzg'unchi kuchlar ishtirokida mintaqada beqarorlikni keltirib chiqarish orqali Markaziy Osiyon jangarilar tayyorlovchi, katta mablag'lar keltiradigan narkotik moddalar ishlab chiqarish yo'lga quyilgan joyga aylantirishdek maqsad ko'zlangan edi.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990-yillarning boshlarida bu guruuhlar faollashib ketdilar. Xususan «Islom lashkarlari», «Tavba», «Adolat» guruuhlari Farg'ona vodiysida beqaror holatni yuzaga keltirish uchun harakat qildilar.

Biroq O'zbekiston davlatining qat'iy qarshiligi, ichki va tashqi siyosatdagi izchillik, xalqning mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi harakatlarni qo'llab-quvvatlashi, ijtimoiy hayotning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar ekstremistlarning sa'y-harakatlarini yo'qqa chiqardi. Ekstremistlarning bir qismi O'zbekiston hududidan chiqib, avval Tojikiston, keyin esa Afg'onistonidagi jangarilar safiga qo'shilib ketdilar.

Markaziy Osiyodagi guruhlar asosida yuzaga kelgan va o‘zini «O‘zbekiston islom harakati» deb nomlagan tuzilma 1990-yillarning o‘rtalariga kelib, ancha baquvvat bo‘lib qolgan «al-Qoida» tarkibiga kirdi. Aksiterror koalitsiyasi tomonidan Afg‘onistonda o‘tkazilgan amaliyotlar vaqtida ularning asosiy qismi yo‘q qilindi.

Hozirda bu tuzilmaning qoldiqlari Pokiston bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegaradosh hududlarda to‘planib, «al-Qoida» va uning tarafdarlari yordamidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun O‘zbekistondagi hizbut tahrirchilar bilan aloqalarni tiklash, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va shu yo‘l bilan yana faollashayotganliklarini ko‘rsatishga harakat qilmoqda.

**Terrorizm tushunchasi.** Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan siyosiy kurashning o‘ziga xos usulidir. U yashirin (konspirativ) ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadida qo‘llaniladi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagani uchun ham ko‘p hollarda aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri bunday harakat tarafdarlarining «zo‘rlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi», – degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo‘lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo‘rlik yo‘li bilan hal qilishga intilishda ko‘rinadi.

Amerikalik mutaxassis B.Jenkins terrorizmni eng avvalo, qurbanlardan ko‘ra guvohlarga qaratilgan va vahima uyg‘otishga yo‘naltirilgan zo‘rlik, deb baholaydi. Boshqa bir amerikalik siyosatshunos J.Lojning ta’rifiga ko‘ra, terrorizm bevosita qurbanlardan ko‘ra ko‘proq odamlar fikriga ta’sir o‘tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatishdir.

Bu ta’rif va baholarda siyosiy ekstremizmnинг nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta’kidlangan. Xuddi shu ma’noda, alohida olingan har bir terrorchilik xurujining maqsadi ekstremistlarning davlat to‘ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishdek siyosiy vazifalar bilan bir-biriga mos kelavermasligi oldindan ma’lum. Keyinchalik, amalda, bu nomuwofiqlik ekstremistlar jar solayotgan maqsadlar bilan ular erishayotgan natijalar o‘rtasidagi ziddiyatga aylanadi.

Bugungi kundagi terrorchilik uslublarining ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus, poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarining qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgandir.

Shuning uchun ham, OAV terrorchilarning o'z maqsadlariga erishishlarida asosiy quroqla aylanib bormoqda. Kidnepping yoki garovga olish ham mohiyatan o'zgarib bormoqda. Avvallari garovga olishdan maqsad pul undirish bo'lgan bo'lsa, hozirda terrorchilar asosan xalqaro munosabatlar sohasida va mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarish borasida mo'ljallagan siyosiy maqsadlariga erishishni ko'zlaydilar. Shu bilan birga, bu jarayonning OAV orqali keng yoritilishi va omma ongida xavotirli aks-sado berishiga erishish orqali guruhning jamiyat oldida tanilishi ham hisobga olinadi. Bunday harakat zamirida, aslida terrorchilarning ojizligi namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Chunki jamiyatda ovoza bo'lishga intilish, odamlarda qo'rquv hissini uyg'otish yo'li bilan tashkilot o'zining bosh maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham, ta'sir o'tkazish orqali xulqini modellashtirish va faolligini boshqarish mumkin bo'lgan ruhiy ojiz va qarashlarida sobitlik yo'q kimsalar ijrochi sifatida chiqadilar.

**Xalqaro terrorizm.** Xalqaro terrorizm tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U alohida siyosiy arboblarni o'ldirish yoki ularga qasd qilish orqali xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan buzg'unchi siyosiy harakatlarni ifodalash uchun ham ishlataladi.

Terrorchilik harakatlarining:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob'ekt yoki sub'ektlarga qarshi qaratilgani;
- mustaqil davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;
- tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan

noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanishi uning xalqaro terrorchilik xuruji ekanini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilihiga olib keladi.

**Terrorizmning moliyaviy manbalari.** Zamonaviy terrorizm xilmoxoil moliyaviy manbalardan oziqlanishi hisobiga faoliyat qamrovini kengaytirishga, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bunda, shartli ravishda ichki va tashqi manbalarni ajratish mumkin.

Ichki manbalar sirasiga terrorchi tashkilotlarning ochiq, rasmiy faoliyat yurituvchi tuzilmalaridan keladigan daromadini hamda jinoiy yo'l bilan topilgan va uyushma a'zolarining badal to'lashi hisobiga olinadigan mablag'larni kiritish mumkin.

Terrorchi guruuhlar ko'pgina hollarda ikkinchi bir shaxs yoki tashkilotlar nomidan kapital tez aylanadigan (bank ishi, savdo, restoranlar ochish, qurilish, transport) sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar ochishga e'tibor qaratmoqdalar. Jumladan, manbalarda «al-Qoida» tashkiloti Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida transport, qimmatbaho metall qazib olish, baliqchilik kabi yo'nalishlarda daromad manbalarini shakllantirgani qayd etiladi.

Ayni paytda, terrorchi tashkilotlar daromad orttirish maqsadida bosqinchilik, tovon undirish, giyohvand moddalarining noqonuniy savdosi, qimmatbaho metall va toshlar kontrabandası, soxta pul va qimmatli qog'ozlar ishlab chiqish, shuningdek, fohishabozlik uylari va qimorxonalar ochish hamda totalizatorlar tashkil qilish kabi jinoiy usullardan ham keng ko'lamda foydalanishini ta'kidlash zarur.

1999-yilda Qirg'izistonga bostirib kirgan, o'zini «O'zbekiston islomiy harakati» deb ataydigan tashkilot jangarilari muzokara olib borish uchun kelgan vakillarni 50 ming dollar hisobiga qo'yib yuborgani, 2003-yilning 27-martida «Sharqiy Turkiston ozodlik tashkiloti»ga mansub terrorchilar Qirg'izistonda 19 ta xitoylik savdogarni o'ldirib, ularning katta miqdordagi pulini o'zlashtirganlari bunga misol bo'la oladi<sup>23</sup>

Shu bilan bir qatorda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, transmilliy jinoiy guruuhlar giyohvand moddalar savdosidan yiliga 400 milliard dollar daromad oladi va ushbu mablag'ning bir qismi terrorchilik guruuhlari ixtiyoriga o'tkaziladi<sup>24</sup>

<sup>23</sup>Qarang: Omuraliyev N., Elebayeva A. Batkentskiye sobitiya v Kirgizstane. // Sentralnaya Aziya i Kavkaz, 2000. №1(7). - S.25

<sup>24</sup> Qarang: Sodeystviye stabilnosti v Sentralnoy Azii //Trudi mejdunarodnoy konferensii 15-20-maya 2000-g. v Tashkente. - T.: 2000. - S.39

Bundan tashqari, deyarli barcha ekstremistik tashkilotlarning a'zolari miqdori oylik daromadning 5–20 foizini tashkil etadigan oylik badal («baytulmol» yoki «taborro») to'lashini ham qayd etish lozim.

Homiy davlatlar, turli diniy, xayriya tashkilotlar va alohida shaxslar, shuningdek, Yaqin Sharq va G'arb davlatlaridagi ba'zi ijtimoiy guruuhlar tomonidan maqsadli yig'iladigan pullar terrorchi guruhlarning tashqi moliyaviy manbai hisoblanadi. Soha mutaxassislari va ayrim tadqiqotchilar fikricha, bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan qariyb 150 ta nohukumat islomiy tashkilotlari jangarilik amaliyotlarini moliyalashtirishda gumon qilinmoqda. Jumladan, «Al-Harameyn» jamg'armasi kabi qator nohukumat muassasalar ana shunday yordam ko'rsatayotganlikda ayblanmoqda.

Bunga islomiy ekstremistik harakatlar va tashkilotlar tomonidan olg'a surilayotgan ayrim shiorlar ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, islomiy ekstremistlar «musulmon dunyosidagi muammolarning bosh sababchisi — rivojlangan G'arb davlatlaridir», degan iddaoni ilgari suradilar. Shundan kelib chiqib, G'arb davlatlariga qarshi barcha vositalardan foydalangan holda kurashmoq lozim, degan xatarli da'vat ularning maskurasida markaziy o'rinnlardan birini egallab kelmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab sodir etilayotgan terrorchilik hodisalarining 80 foizi islom bayrog'i ostida amalga oshirilayotganini ham qisman shu bilan izohlash mumkin.

Terrorchi guruhlarga ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam ko'lamini birgina MDH tarkibidagi mamlakatlar hududida faoliyat yurituvchi terrorchi tashkilotlarga 60 ga yaqin diniy tashkilotlar, 100 ga yaqin xorijiy kompaniya va o'nlab banklar homiylik qilayotganida ham ko'rish mumkin. Xususan, ba'zi ekspertlar chechen jangarilariga «Tayba», «Saar faundeyshn», «al-Ig'osa» (Saudiya Arabiston), «al-Qoida», «Musulmon birodarlar», «Ijtimoiy islohotlar jamiyati» (Kuvayt), «XAMAS», Qatar xayriya jamiyati, «Al-jamoal al-musalla» (Jazoir) tashkilotlari yordam beradi, deb hisoblaydilar<sup>25</sup>.

O'z navbatida, o'zini «O'zbekiston islomiy harakati» deb atovchi tashkilot ham qator homiylar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Mutaxassislar ular qatoriga «al-Qoida», «Musulmon birodarlar», «Hizbulloh», «XAMAS» kabi terrorchi guruhlarni kiritadilar.

Terrorchi guruhlар hozirda o'z moliyaviy manbalari bilan bank tizimi imkoniyatlari va zamонавиу texnologiyalardan foydalangan murakkab aloqa tizimlarini shakllantirishga harakat qilmoqda. Natijada, ushbu manbalarni aniqlash va yo'q qilish tobora qiyinlashib bormoqda. Jumladan, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng, 2003-yilning noyabriga qadar 148 mamlakatdagi 300 dan ziyod tashkilotlarga tegishli 1400 ta hisob raqami «muzlatilgan». Bundan terrorchi guruhlар 200 million dollar zarar ko'rishganiga

<sup>25</sup>Qarang: «Internatsional politika», 2002. № 3. - S.67

qaramay, o'z moliyaviy manbalari bilan yangi aloqalarni shakllantirish hisobiga jangovar qobiliyatlarini qayta tiklab olishga intilmoqda.

Terrorizmning moliyaviy manbalariga barham berishga xalqaro miqyosda alohida ahamiyat berilmoqda. Dunyoning ko'pgina davlatlari, jumladan, O'zbekistonda ham terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash haqidagi maxsus qonunlar qabul qilingan. Mazkur yo'naliш xalqaro tashkilotlarning ham diqqat markazida turgan vazifalardan hisoblanadi. Xususan, oxirgi yillarda Usoma bin Lodin va boshqa terrorchi shaxslar hamda tashkilotlarga tegishli dunyo banklaridagi hisob raqamlarini «hibsga olish»ga bag'ishlangan BMT Xavfsizlik Kengashining 1333, 1390 va 1455-qarorlari qabul qilinib, ular deyarli barcha davlatlar tomonidan ijro etilmoqda.

Ayrim davlatlar ba'zi mamlakatlarni xalqaro terrorizmni moliyaviy ta'minlashda ayblamoqda. Biroq ushbu masala bo'yicha dunyo davlatlari yagona fikrga ega emas. Shuning uchun ham, AQSHning ba'zi davlatlarni xalqaro jarayonlardan siqib chiqarish, ular bilan hamkorlik qilmaslik kabi da'vatlari, asosan, e'tiborsiz qolib ketmoqda.

Nima bo'lganda ham qayd etilgan dalillar zamонавиy terrorizmning keng tarmoq otayotgani va o'zini o'zi ta'minlovchi organizmga aylanayotganini, uni bartaraf qilish uchun izchil ishlaydigan xalqaro tizimni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Terrorchi guruhlarning moliyaviy tomirlarini qirqish esa, ushbu yo'naliшdagи eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Qarshi kurash strategiyasi.** Zamонавиy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlilik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatmagan davlatlar zaiflashib o'z xalqi, mamlakati, osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat o'z ichki va tashqi siyosatida unga qarshi kurashar ekan, ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ishlab chiqishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini, haligacha terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog' savdosini kabi qator tahdidlar mavjud bo'lgan Markaziy Osiyodagi kuchlar nisbatini hisobga olib, ishlab chiqqan ichki va tashqi siyosati alohida ahamiyatga molikdir.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ushbu strategiyasida mamlakatimizning xalqaro hamkorlik dasturlarida, davlatlarning terrorizmga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini birlashtirishda faol ishtirot etishini ta'minlash maqsadlari o'z ifodasini topgan.

Bu sohada o'zbek tashqi siyosatining negizini o'z kuchlarini hozirgi davrning asosiy tahdidi bilan qarshi kurashga yo'naltirishga tayyor barcha

davlatlar bilan faol hamkorlik qilish tashkil etadi. Shu o'rinda, O'zbekiston amalda mintaqada va butun dunyoda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha xalqaro dastur va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarida faol ishtirok etayotganini ta'kidlash zarur.

Shuningdek, O'zbekiston davlatining barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ichki siyosati ham ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ekstremizmdan terrorizmning kelib chiqishini bartaraf etishga qaratilgan faol strategiyadir. Unda ekstremizmga qarshi kurash orqali bunday tuzilmalar bag'rida voyaga yetishi mumkin bo'lgan terrorchilar faoliyatining oldini olishga intilish o'z aksini topganini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek davlati tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bu kurash strategiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, ta'lim, xususan, o'rta maxsus ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, sport va boshqa sohalardagi keng ko'lamli ijobjiy o'zgarishlar bu strategiyaning tarkibiy qismi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ahvolni belgilab beradigan, mamlakatdagi barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Kuchli iqtisodiyotga ega O'zbekistonning barqarorligi butun mintaqaning barqarorligini bildiradi.

Bu, sog'lom mutanosiblikka asoslangan, serqirra va har xil darajali strategiyada ma'naviyat va masfuraviy tarbiya alohida o'rin tutadi.

Mutaxassislar ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ichida masfuraviy bo'shlinqning ta'siri va qadriyatlar mo'ljallaridagi beqarorlikda namoyon bo'lgan nomutanosiblikni alohida ajratib ko'rsatadilar. Masfuraviy bo'shliq ko'pincha kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto'g'ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo'ysundirish va dunyoqarashida aggressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog'lom g'oyalar bilan to'Idirilishiga zamin yaratadi. «Zombilashtirish» deb ataladigan bu texnologiya yaxshi shakllanmagan ma'naviyat, bo'sh iroda va nosog'lom intilishlar muhitidagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Shuning uchun ham, O'zbekiston ekstremizmga qarshi kurashda, uning paydo bo'lishi va rivojlanishini bartaraf etish ishlarida g'oyaviy tarbiya, xususan, mamlakat yoshlariда yuksak ma'naviyatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor bermoqda. Zero, bunday yondashuvda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, milliy o'zlikni tiklash va mustaqillikni mazmunan boyitishga asoslangan milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat va ma'rifat, to'g'ri shakllantirilgan ong ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

## **VI bob. MUSULMON DUNYOSINING DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHI**

**Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash — dolzarb vazifa.** XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o‘zini baralla namoyon etayotgan xatarli voqeliklardan biri, shubhasiz, diniy ekstremizm va undan oziqlanayotgan hamda diniy shiorlar bilan niqoblangan terrorizmdir. Bugungi kunga kelib, mazkur xatar shu qadar keng ko‘lam va xilma-xil ko‘rinishlar kasb etmoqdaki, odamlar, ko‘pincha, unga e’tiborsiz hatto, loqayd bo‘lib qolmoqdalar. Boshqacha aytganda, «diniy ekstremizm» va «xalqaro terrorizm» degan tushunchalar hayotiy voqelikning ajralmas qismidek qabul qilinmoqda. Bu — nihoyatda achinarli hol, albatta.

Xo‘s, nega bunday bo‘lmoqda, degan savol tug‘iladi.

Sababi — XIX asrning oxirlarida sultanat sohiblari va davlat arboblariga qarshi qurolli hujumlar shaklida paydo bo‘lgan siyosiy terrorizmni bugun har qadamda uchratish mumkin. XX asrning 60-yillardan boshlab, dunyoning butun-butun mintaqalari turli-tuman terrorchilik tashkilotlarining o‘chog‘iga aylana boshladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda. 1968—1980-yillar davomida ular 6700 ga yaqin terrorchilik amaliyotini sodir etdilar. Natijada 3668 kishi halok bo‘lib, 7474 kishi turli jarohatlar olgan.

Zamonaviy terrorizmning ikkita alohida xatarli belgisini ajratib ko‘rsatish mumkin: bir tomonidan, u tobora shafqatsizroq g‘ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sig‘dirish qiyin jug‘rosiy ko‘lamlar kasb etib bormoqda. AQSH Davlat departamentining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyoda har yili 650 dan ortiq bunday hodisalar sodir etilmoqda. Bu degani — har kuni dunyoning u yoki bu burchagida kimlarnidir qo‘rquvga solish orqali muayyan maqsadlarga erishishni ko‘zlagan, kamida ikkita qo‘poruvchilik amalga oshirilmoqda. Xatarli jihat shundaki, ularning soni muntazam oshib bormoqda. Masalan, 1992-yilda ana shunday noxush voqealarning umumiyligi soni 362 tani tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib 600 dan oshib ketdi.

Shiddat bilan chuqurlashib borayotgan dunyoning globallashuvi, sodda qilib aytganda, unda kechayotgan jarayonlar deyarli barcha mamlakatlarni qariyb birdek qamrab olayotgani bu kabi g‘ayriinsoniy harakatlarning xatarli oqibatlarini jiddiy oshirmoqda. Ekstremizm va terrorizm odamlarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmasdan, balki xalqaro miqyosdagi muammolarni, jumladan, turli diniy e’tiqod vakillari bo‘lgan xalqlar, hattoki, sivilizatsiyalar orasidagi o‘zaro ishonchga soya tashlamoqda, jahon

taraqqiyotining tamal toshi bo‘lgan xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda.

Ekspertlarning fikricha, dunyoda faoliyat ko‘rsatayotgan terrorchilik tashkilotlarining yuzdan oshig‘i eng zamonaviy qurollar bilan yaxshi ta‘minlangan yirik uyushmalardan iborat. Ular turli qo‘poruvchiliklarni sodir etish jarayonida o‘zaro hamkorlik qiladilar, ma’lumotlar almashadilar, zarur hollarda, bir-birlariga harbiy, moliyaviy va boshqa shakldagi yordamni ko‘rsatadilar. Bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga «al-Qoida», «al-Jihad al-Islomiy», «at-Takfir val-Hijra», «Hizbulloh», «XAMAS» (Falastin islomiy qarshilikharakati), «Abu Sayyof» (Filippin), «Ozod Achex» va «Lashkari jihod» (Indoneziya), «Qurolli islomiy harakat» (Jazoir kabilarni kiritish mumkin. Oxirgi yillarda xalqaro miqyosda amal qilayotgan yana bir islomiy tashkilot – «Hizb at-tahrir al-islomiy»ning faoliyati asosli ravishda dunyoning turli mamlakatlardagi terrorchilik amaliyotlarni sodir etganlikda ko‘rilmoxda.

Masalaning yana bir taassufli jihat shundaki, diniy liboslarga o‘ralgan terrorchi tashkilotlarning mutlaq ko‘pchiligi muqaddas islom dinini o‘ziga niqob qilib olgan.

Dinni qurollari qilib olgan bunday ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyatni hayotiga jiddiy tahdid solmoqda deyish mumkin. Shuning uchun, bugun, siyosatshunoslikda «jamiatning diniy xavfsizligi» degan yangi tushuncha shakllanmoqda. Mutaxassislar din niqobi ostida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining asl mohiyatini ifoda etuvchi ilmiy mezonlarni qidirmoqdalar. Huquqiy mazmun va mohiyatga ega ana shunday atamalardan biri sifatida «diniy-siyosiy terrorizm» tushunchasidan foydalanish va uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga da‘vat etmoqdalar.

Bayon etilganlarni nazarda tutib fikr yuritsa, mustaqillik qo‘lga kiritilgandan beri mamlakatimiz va xalqimizning oromini buzib kelayotgan qo‘poruvchilik xurujlari, jumladan, 2004-yilning mart-aprel va iyul oylarida sodir etilgan voqealar keng ko‘lamli xalqaro terrorchilik tuzilmasining navbatdagi kirdikorlaridan biri ekaniga hech qanday shubha qolmaydi. Dunyoning eng xavfli terrorchi guruahlari qatoriga kiritilgan, «O‘zbekiston islomiy harakati»ning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, AQSH va Isroil davlatlari elchixonalariga qarshi uyushtirilgan qo‘poruvchiliklar uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oglani maxsus xizmatlar va keng jamoatchilikni chalg‘itishga urinishdan boshqa narsa emas. Ushbu qo‘poruvchi tashkilotning bosh homysi Usoma bin Lordin asos solgan «al-Qoida» nomli dunyodagi eng yirik terrorchi tashkilot va uning sheriklari «al-Jihad al-islomiy», «al-Muhajirun», «Hizbut-tahrir»

kabi diniy ekstremistik tuzilmalar ekani, xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli qo'poruvchiliklarning uzviy qismi ekaniga yana bir dalildir.

**Diniy ekstremizmning musulmon dunyosi uchun xavfi.** Mutaxassislar fikricha, islomiy ekstremizm va u bilan bog'liq terrorizm dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlari alohida tahdid solmoqda. Yer kurrasining turli qit'alarida joylashgan bunday mamlakatlarni shartli tarzda bir necha guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga mansub Shimoliy Afrikada joylashgan ayrim arab mamlakatlari, jumladan, eng katta arab davlati bo'lgan Misr Arab Respublikasi uchun diniy ekstremizm bilan bog'liq terrorchilik harakatlari haqiqiy muammoga aylandi. 1970–1980-yillarda bunday jarayon Tunisni qamrab oldi.

Mazkur mintaqada joylashgan yana bir arab davlati Jazoirdagi diniy ekstremistik tashkilotlarning qo'poruvchilik faoliyati tufayli o'n minglab begunoh insonlar halok bo'lgan bo'lsa, radikal islomchilar hokimiyatni boshqarayotgan Sudanda mana o'n yildan oshiqroq vaqtidan beri ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlik mutlaqo izdan chiqqan, Darfur mintaqasi esa bugungi dunyoning eng fojiali nuqtalaridan biriga aylandi. Ustigustak, ushbu mamlakat hududi turli xildagi terrorchi unsurlar to'planayotgan va harbiy tayyorgarlikdan o'tayotgan o'nlab jangarilar uyalari amal qilayotgan xatarli joyga aylandi.

Ikkinci guruhga Osiyo qit'asida joylashgan yana bir necha arab davlatlarini kiritish mumkin. Turli-tuman siyosiy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sabablarga ko'ra, Falastin hududlari, Iraq Respublikasi diniy ekstremizm bilan bog'liq terrorchilik harakatlaridan katta talafot ko'rmoqda. Saudiya Arabiston Podshohligida ham terrorizm o'zining mudhish qiyofasini namoyon etmoqda. Vaziyatning keskinlashib ketishi diniy arboblarning aksilterror siyosatini faol qo'llab-quvvatlashga jalb qilinishiga olib kelmoqda. Xususan, 2003-yilning fevralida Saudiya Arabiston ulamolar Kengashi Podshohlikdagi chet el fuqarolariga hujum qilishni taqiqlovchi fatvo chiqardi. Unda chet elliklarga «kosir» deb qarash islam tamoyillariga mutlaqo zid ekani ta'kidlanadi<sup>26</sup>

Diniy ekstremistik faoliyatning uchinchi o'chog'i Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan deyish mumkin. Ushbu xatarning olovli nafasi, ayniqsa, Pokiston, Indoneziya, Malayziya hamda Hindiston va Filiippining ayrim hududlarida o'zining halokatli oqibatlarini namoyon etmoqda. Boshqacha aytganda, qadim-qadimlardan buddaviylik, hinduiylik, islam va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar tinch-totuv yashab kelgan ulkan hududda ham ekstremizmning qo'poruvchilik salohiyati o'zini ko'rsatmoqda.

<sup>26</sup> Baklonov A. Saudovskiy razvorot // Mejdunarodnaya jizn. №9. 2004. -S. 91-92.

Diniy ekstremizmni o‘ziga quroq qilib olgan terrorchilarning butun dunyoning nafratini qo‘zg‘atgan AQSHdagi vahshiyliklari nafaqt ushbu mamlakat, balki bashariyat tarixidagi eng mash’um sahifalardan bo‘lib qolishiga hech kim shubha qilmaydi.

O‘tgan asrning 70-yillari intihosidan boshlab Afg‘oniston diniy ekstremizm va fundamentalizmning eng yirik o‘chog‘iga aylana boshladi. Ushbu mamlakatdagi siyosiy beqarorlik tufayli turli mamlakatlardan o‘zining xunuk qilmishlari uchun badarg‘a bo‘lgan qora kuchlar Afg‘onistonga oqib keldilar va mustahkam o‘rnashib oldilar. «Tolibon» nomi bilan atalgan ekstremistlar ularga boshpana berdilar. Afsuski, ayrim yirik davlatlar ham o‘zlarining shubhali geosiyosiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish ilinjida Afg‘onistondagi radikal islomchilarni amalda qo‘llab-quvvatladilar. Natijada, ushbu mamlakat ekstremizm va terrorizmning haqiqiy o‘chog‘iga aylandi. Bu hol nafaqt uning, balki unga tutash mamlakatlarning xavfsizligiga ham tajovuz solgani yaxshi ma’lum.

Ta’kidlash joizki, diniy ekstremizm va u bilan bog‘liq terrorizmning O‘zbekistonga kirib kelishida aynan Afg‘oniston o‘ziga xos darvoza vazifasini o‘tadi. O‘tgan asrning so‘nggi yillarda mazkur mamlakatdan panoh topgan, «Tolibon» harakati va «al-Qoida» tashkiloti bilan mustahkam aloqalar o‘rnatgan «O‘zbekiston islomiy harakati» va oxirgi paytda u bilan birgalikda harakat qilayotgan «Hizbut-tahrir» kabi radikal diniy-siyosiy guruhlar, mana o‘n yildan oshiqroq vaqt mobaynida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridagi barqarorlikka putur yetkazishga intilib kelmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda yashirin amal qilayotgan diniy-siyosiy guruhlar orasida «Hizbut-tahrir» alohida faoliylik ko‘rsatmoqda. Aytish lozimki, mazkur partiya o‘zini terrorchilik faoliyatiga aloqasi yo‘qdek qilib ko‘rsatishga intiladi. Partiyaning ushbu iddaosini haqiqat deb qabul qilishga tayyor kuchlar ham bugungi dunyoda, afsuski, yo‘q emas. Lekin partiya tarqatayotgan varaqalarning mazmuni ushbu guruhning tinchliksevar partiya ekani haqidagi da‘volar haqiqatdan nechog‘lik yiroqligini, uning «beozor siyosiy kuch» ekaniga ishonayotganlar qanchalik xato qilayotganiga hech qanday shubha qoldirmaydi. Allaqachonlar o‘z umrini yashab, tarix sahnidan tushib ketgan, bugungi voqelikka mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan xayoliy xalifalikni barpo etish uchun har qanday amaliy harakatlardan tiyil-maslik, jumladan, quroq ishlatishni targ‘ib qilish orqali musulmonlar ongiga eng ashaddiy siyosiy g‘oyalarni singdirishni o‘zining dasturiy vazifasi qilib olgan hamda uni hayotga tatbiq etishga jon-jahdi bilan urinayotgan bunday guruhni terrorchilik faoliyatga aloqador emas deb bo‘ladimi?

O'zbekiston diniy ekstremizm bilan to'qnash kelayotgan birinchi davlat emas. Yuqorida qayd etilganidek, u bugun dunyoning ko'plab mamlakatlari xavfsizligiga tahdid solmoqda. Shunga mos ravishda dunyoda diniy ekstremizm va u bilan bog'liq terrorizmga qarshi kurash bo'yicha salmoqli tajriba to'plangan. Mazkur tajribadan chiqadigan eng assosi xulosa shuki, diniy ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan, huquq-tartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralarini qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish bilan barobardir. Boshqacha aytganda, bunday yo'lidan borilganda, diniy ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan «ildiz»lar beshikast qolaveradi, vaqt o'tishi bilan ular yangi «kurtak»lar berishda davom etaveradi. Shuning uchun ham, diniy ekstremizm va terrorizm bilan to'qnash kelayotgan davlatlar ushbu xatarli hodisaga qarshi kurashishda tobora ko'proq yalpi va maqsadli yondashuv yo'lidan borishga harakat qilmoqda.

**Hayot-mamot jangi.** Biz shunday davrda yashamoqdamizki, uni, hech bir mubolag'asiz, insoniyat taqdirini belgilab beradigan jang sodir bo'layotgan davr deb atash mumkin. Ushbu jangda foydalanila-yotgan vosita tom ma'nodagi qurol emas, balki g'oyalardir. Yaxshi ma'lumki, g'oyalalar har xil bo'ladi: azal-azaaldan dunyoda bunyodkor g'oyalalar bilan bir qatorda, buzg'unchilik masfurasi ham yashab keladi. Aslida, bashariyat tarixi, muayyan ma'noda, bunyodkorlik va buzg'unchilik o'rtasidagi kurash tarixidir. Ushbu kurashda bunyodkorlik g'olib bo'lgan paytlardagina insoniyat olg'a bosgan, buzg'unchilik, yovuzlikning qo'li baland kelgan vaqtarda esa, tanazzulga yuz tutgan.

Axborot almashish va yetkazish imkoniyatining bugungi taraqqiyoti shunday darajaga yetdiki, ular inson hayotini yaxshilashga xizmat qilish bilan bir qatorda, uning tinchini buzishga ham sabab bo'lmoqda. Internet kabi ma'lumotlar uzatish vositalari tom ma'nodagi ijobiy jihatini namoyon qilish bilan birga, xalqaro terrorchilar, jumladan, diniy-siyosiy jangarilikning quroliga ham aylanib qolmoqda.

Bugun muayyan kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishisha kiber-bo'shliqdan foydalanishini ifodalovchi «kiber-terrorizm» degan tushuncha ham paydo bo'ldi. U mutaxassislar tomonidan terrorizmning boshqa har qanday ko'rinishidan ham ko'ra xavfliroq hodisa sifatida qayd etilmoqda. Xalqaro terrorizmning rivojlanishidagi navbatdagi yangi bosqich kiber-urushlar shaklida bo'lishi shubhasiz ekanı ta'kidlanmoqda. Xalqaro ko'lmandagi, chegara bilmas bunday salbiy hodisaga qarshi kurashning xalqaro tizimini shakllantirish hayotiy zaruratga aylangani uqtirilmoqda. Darhaqiqat, internet qo'poruvchilikni amalga oshirish uchun mo'ljallangan nishonlar haqida ma'lumotlar manbai, ularni sodir etish uchun lozim mablag'ni to'plash va terrorchi tashkilotlar

orasidagi ishonchli tezkor aloqa vositasi, ma'lum belgilari bo'yicha turli-tuman odamlarni birlashtirish yo'li, g'arazli maqsadlarni tashviqot qilish va buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilish quroli, psixologik terrorizmning tashabbuskori vazifasini o'tashi mumkin va shunday bo'immoqda ham. Internet masofadan, ya'ni muayyan mamlakat hududlaridan turib boshqa o'lkada qo'poruvchilikni amalga oshirish imkonini bermoqda.

**Diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyatining jamiyat rivojiga salbiy ta'siri.** «Bizdan uzoq-yaqin masofalarda joylashgan ayrim islom davlatlarida o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan muayyan tashkilotlar mavjud», — deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov. Bugungi kundagi mavjud voqelik, jahon sahnida kechayotgan jarayonlarga teran ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, Yurtboshimizning so'zлari chuqur ma'no-mazmunga egaligini anglab yetish mumkin.

Zero, musulmon dunyosida qonunlar doirasida siyosiy, ma'rifiy-madaniy, xayriya ishlari bilan shug'ullanuvchi rasmiy islomi tashkilotlardan tashqari, bir qator ekstremistik diniy-siyosiy guruhlar ham faoliyat olib bormoqda. Ularning asosiy maqsadi islom dinini siyosiylashtirgan holda, yagona mafkuraviy makon barpo qilish asosida hokimiyatni qo'liga kiritishdir.

Ushbu maqsad yo'lida ular targ'ibot-tashviqot ishlari bilan bir qatorda, terrorchilik amaliyotidan ham keng ko'lamda foydalanish-moqda. Xususan, davlat rahbarlari, huquqni muhofaza qilish tizimi xodimlari, jurnalist va siyosatchilar, chet ellik fuqarolarni o'ldirish yoki garovga olish, yetakchi G'arb davlatlariga tegishli ob'ektlarda qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish orqali jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik keltirib chiqarish hamda hukumatning G'arb dunyosi bilan hamkorligiga putur yetkazishga intilish g'arazli maqsadlar yo'lida amalga oshiriladigan harakatlar zanjirining uzviy xalqlari hisoblanadi.

Hozirgi kunda diniy-ekstremistik tashkilotlarning faoliyati yuqorida qayd qilinganidek, Jazoир, Misr, Indoneziya, Hindiston, Filippin, Pokiston, Iroq, Afg'oniston, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiya Federatsiyasining Kavkazdagи respublikalari kabi katta jug'rosiy hududda kuzatilmoqda.

Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi va rivojiga salbiy ta'siri xalqaro terrorchilik tizimida yetakchi o'rnlarni egallab turgan ba'zi tashkilotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ular sirasida bunday tashkilotlar vujudga kelishiga asos va namuna bo'lgan «Musulmon birodarlar» guruhining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

## **«Jamoat al-ixvon al-muslimin» («Musulmon birodarlar jamoasi»).**

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari Misrda jamiyatda islomning o'rni masalasida turlicha yondashuv va qarashlar shakllandi. Jumladan, ba'zilar jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar dinga bo'lgan munosabatda ham qo'llanishi zarur deb hisoblasalar, boshqalar, aksincha, o'tgan asrning 20-yillarida mamlakatda ro'y bergan iqtisodiy turg'unlikni musulmonlar hayotiga kirib kelgan G'arb sivilizatsiyasiga xos «yangiliklar» bilan bog'lab, mamlakatda shariyatga asoslangan teokratik davlat tuzumini o'matish orqaligina taraqqiyotga erishish mumkin, degan da'vat bilan chiqdilar.

Aynan so'nggi yo'naliш tarafdarlarining g'oyalari asosida Hasan al-Banno tomonidan 1928-yilda «Musulmon birodarlar» tashkilotiga asos solindi.

Hasan al-Banno G'arb madaniyatining musulmon dunyosiga kirib kelishi islomning inqiroziga sabab bo'lgani uchun, musulmonlarni saqofiylik ruhida qayta tarbiyalash zarur, deb hisoblardi.

Dastavval, islam alohida bir davlatda tinch (islom qadriyatlarini targ'ib qilish, xayriya ishlari o'tkazish, diniy ulamolarning shaxsiy namuna ko'rsatishi va sh.k.) yo'l bilan tantana qilishi mumkin, degan g'oyani ilgari surgan Hasan al-Banno keyinchalik faoliyatiga siyosiy tus berib, 1939-yilda «Musulmon birodarlar»ni Qur'on va sunnani jamiyatni rivojlantirishning yagona asosi sifatida ko'rvuchi siyosiy tashkilot, deb e'lon qildi. Shundan keyin «birodarlar» «Alloh — maqsadimiz, payg'ambar — yetakchimiz, Qur'on — konstitutsiyamiz, jihad — buyuk orzuimiz» degan shior asosida faoliyat yuritib, markazi Misrda joylashgan musulmonlarning yagona «buyuk islam davlati» qurishni asosiy maqsad sifatida e'tirof etdilar.

Ikkinchi jahon urushi davrida jamiyatning quyi va o'rta tabaqalar vakillari hisobiga tez kengayib borgan tashkilot o'zining xorijiy bo'limlari va jangovar faoliyatga mo'ljallangan maxfiy tizimlarini vujudga keltirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1946-yilga kelib, «Musulmon birodarlar» 5000 ta mahalliy bo'lim va umumiy hisobda 500000 a'zoga ega yirik tashkilotga aylangan.

1948—49-yillari tashkilot a'zolari Falastindagi Arab—Isroil urushida mustaqil jangovar birlik sifatida Isroil qo'shinlariga qarshi jang qildi. Urushdan keyin esa «birodarlar» yetakchilari Misr rahbariyatini jur'atsizlikda ayblab, mamlakatda qator terrorchilik harakatlarini amalga oshirdi. Bunga javoban, hukumat tashkilotni qattiq ta'qib ostiga oldi va 1949-yilning fevralida Hasan al-Banno o'ldirildi.

1950—1960-yillarda «birodarlar»ga rahbarlik qilgan Sayid Qutb tashkilot faoliyatining yanada radikallahuviga zamin yaratdi. Xususan, u 1965-yilda yozgan «Yo'ldagi belgilari» kitobida arab jamiyatni «johiliya»

davriga qaytib, ma'naviy tanazzulga uchradi, bunday vaziyatda asl dindorlar jamiyatdan ajralib, alohida jamoalar tuzishlari hamda johiliyaga aylangan jamiyatni islomlashtirish uchun jihad olib borishlari lozim, degan g'oyani ilgari surdi. Bunda u «jihad» tushunchasini dinsizlarga hatto, uning talqiniga qo'shilmagan musulmonlarga qarshi qurolli kurashtma nosida qo'llay boshladи.

Bundan tashqari, Sayid Qutb ilk marta dunyoviy hukumat va o'ziga qo'shilmagan musulmonlarga nisbatan «takfir» (kofirlikda ayblash)ni qo'llagan holda islomga umuman yot bo'lgan — «fitna» (amaldagi davlat tuzumiga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarish amaliyoti)ni yoqlab chiqdi. Shunisi diqqatga sazovorki, hozirda faoliyat yuritayotgan qator diniy-ekstremistik tashkilotlar uchun ham bunday yondashuv mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

1950-yillarning boshlariда Misr hukumati «Musulmon birodarlar»ga ochiq faoliyat yuritishga ruxsat bergen bo'lsa-da, tashkilot rahbariyatining Misr inqilobiy Kengashi faoliyatiga ta'sir o'tkazishga intilishi oqibatida bu huquq bekor qilinib, uning ko'pchilik faollari qamoqqa olindi. Tashkilot a'zolarining bir qismi Saudiya Arabiston, Suriya, Iordaniya va Livanga qochib ketishga majbur bo'ldi.

1964-yilda «birodarlar» faollari amnistiya bilan ozodlikka chiqqach, hukumatga qarshi faoliyatni yangidan boshladilar. Ularning Prezident Jamol Abdul Nosirga bir necha bor suiqasd uyushtirishi oqibatida, tashkilot yana tazyiqqa uchradi va 1966-yili Sayid Qutb boshchiligidagi bir guruh yetakchilar qatl qilindi. Bu «birodarlar» faoliyatidagi terrorchilik unsurlarining birmuncha susayishiga sabab bo'ldi.

Ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra, 1967-yildagi Arab-Isroil urushidan so'ng, «birodarlar» arab dunyosini birlashtirish maqsadida davlat rahbarlariga nisbatan terrorchilik harakatlarini amalga oshirishdan voz kechgan.

Ayni chog'da, 1970—1981-yillarda diniy uyushma sifatida ochiq faoliyat yuritgan «birodarlar»ning jamiyatdagi ta'siri kengayib borgan. Biroq «Musulmon birodarlar»ning rahbarlari Misrning 1978-yildagi Kemp-Devid va 1979-yildagi Vashington shartnomalari asosida Isroil bilan bir bitimga kelishini tanqid qilgan holda, hokimiyatga nisbatan murosasiz, radikal muxolafatchilik mavqeiga o'tdilar.

1979—1989-yillarda tashkilot o'zining faol harakatini ko'proq xorijda amalga oshirdi. Jumladan, 1979—82-yillar ichida «birodarlar»ning Suriyadagi bo'linmasi tomonidan harbiy bilim yurtlari kursantlari, harbiy xizmatga chaqiruv joylarida sodir etilgan terrorchilik harakatlari natijasida 200 dan ziyod kishi nobud bo'ldi. 1982-yil 2-fevral kuni Xam shahrida «birodarlar»ning qurolli qo'zg'oloni hukumat qo'shinlari tomonidan katta talafotlar bilan bostirildi.

Aynan shu davrda tashkilotga mansub jangarilar Afg'onistonda sovet qo'shinlariga qarshi janglarda faol ishtirok etdi. Shuningdek, «Musulmon birodarlar»ning Falastin bo'limi Usoma bin Lodin bilan Pokistonda jangovar harakatlari uchun ko'ngillilar yollash uchun «Maktab al-xidamat» nomli uyushmasiga asos solganlari ma'lum.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda «Musulmon birodarlar»ning min-taqaviy bo'linmalari Baxrayn, Misr, Jordaniya, Yaman, Qatar, Kuvayt, Livan, Birlashgan Arab Amirliklari, Pokiston, Saudiya Arabiston, Sudan, Suriya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Shveysariya, AQSH, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda «Musulmon birodarlar» 28 kishidan iborat qo'mita tomonidan boshqarilib, uning eng quyisi bo'g'inini «amir» yetakchiligidagi 20 ga yaqin a'zoni o'z ichiga oladigan terrorchilik amaliyoti, targ'ibot-tashviqot ishlari, moliyaviy, moddiy-texnik ta'minot kabi sohalarga ixtisoslashgan «jamoati islomiya» guruhlari tashkil etadi. Qo'mita ushbu guruhlarning faoliyatini «usar al-islomiya» («islom oilalari») deb ataluvchi o'rta pog'ona tizim orqali muvofiqlashtirib turadi.

Tashkilot a'zolari tayyorgarlik o'tayotgan, biroq Qur'onda qasamyod qabul qilmaganlar — «al-musoid» (yordamchilar), qasam ichgan holda rasman tashkilot safiga kirganlar — «al-mutanosib» (qo'shilganlar), tashkilot faoliyatida bevosita ishtirok etayotganlar — «al-amil» (faoliyat yuritayotganlar) hamda tashkilot o'zagini tashkil etuvchi rahbariyat a'zolari va yetakchilari — «al-mujohid» (jihadchilar) kabi to'rt darajaga bo'linadi. Shu bilan birga «Musulmon birodarlar» tarkibida g'oyaviy rahnamolar vazifasini bajaruvchi, xususan, tashkilot amalga oshirajak harakatlarga fatvo beruvchi «said»lar ham faoliyat yuritishini qayd etish lozim.

Tashkilot jangarilari maxsus lagerlarda terrorchilik amaliyotini tayyorlash va o'tkazishda zarur bo'lishi mumkin bo'lgan xufya ishslash asoslari, avtomashina haydash, topografik xarita bo'yicha joy topish, quroldan foydalanish, qo'l jangi va qo'poruvchilikni amalga oshirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'taydilar.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, faol harakat qiluvchi «birodarlar»ning soni Misrda 5 mingdan 20 minggacha, Suriyada 2 ming, Jordaniyada 10 mingga yaqin (agar mafkuraviy jihatdan «birodarlarga» yaqin turuvchi Islom tiklanish partiyasi a'zolarini qo'shib hisoblaganda) hamda Iroqda 3 mingdan 5 minggacha kishini tashkil qiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda «birodarlar»ning mahalliy bo'limlaridan ajralib chiqib, mustaqil faoliyat yuritayotgan bir qator diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar mavjud. Ular qatorida Misrda faoliyat yuritayotgan «Al-jamoa al-islomiya», «al-Jihod», «at-Takfir val-Hijra», «Jundulloh», Jazoirdagi «Qurollangan islom guruhi», Falastindagi

«XAMAS», «Islom jihodi», Saudiya Arabistonidagi «Jumaymana al-Uteybiiy», barcha davlatlarda ildiz otishga harakat qilayotgan «Hizbut tahrir al-islomiy» kabi tashkilotlarni ko'rsatish mumkin.

«Musulmon birodarlar»ning bo'limlari hamda undan ajralib chiqqan mustaqil guruuhlar o'z maqsadlari yo'lida asosan yakka terror va portlovchi modda o'rnatilgan avtomobilarni portlatish usulidan foydalangan holda terrorchilik amaliyotini o'tkazib kelmoqda. Bunga 1990-yilda «al-Jamoa al-islomiy» guruhi tomonidan Misr parlamenti spikeri R.Maxgub otib o'ldirilgani ham misol bo'la oladi.

1990-yillarda «Musulmon birodarlar» tashkiloti Misr davlat byudjetining asosiy manbalaridan biri bo'lgan sayyoqlikka zarba berish orqali iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqarishga harakat qildi. Masalan, 1996-yil 18-aprelda Qohirada 18 grek sayyohi, 1997-yil 17-noyabrdas esa Luqsorda 58 nafar turli davlat fuqarolari otib tashlandi. Oqibatda, sayohlarning ommaviy tarzda mamlakatni tark etishi natijasida mamlakatning turizmdan ko'radigan foydasi jiddiy zarar ko'rdi. Bundan tashqari, xizmat ko'rsatish infrastrukturasida faoliyat yurituvchi, milliy hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi minglab misrliklar ishsiz qolishdi.

«Musulmon birodarlar» Misrda rasman taqiqlangan bo'lsa-da, deyarli ochiq faoliyat yuritmoqdaki, buni «birodarlar»dan 16 tasi mustaqil deputat sifatida Misr parlamentidan joy organida ham ko'rish mumkin.

Garchi, «Musulmon birodarlar» ko'pchilik davlatlar, xususan, AQSH tomonidan terrorchi tashkilotlar ro'yxatiga kiritilmagan bo'lsa-da, guruh o'zining reaksiyon mazmunini yo'qtogani yo'q. Jumladan, tashkilot yetakchisi M.Otifning, 2004-yil bahorida «XAMAS» tashkiloti yetakchilarining isroilliklar tomonidan yo'q qilinishiga javoban, barcha musulmonlarni AQSH va Isroiilga nisbatan jihodga chaqirdi. Shuningdek, 2004-yilning 12-mayida Misr politsiyasi tashkilotning 54 nafar a'zosini Checheniston, Iraq va Falastinda jangovar tayyorgarlik o'tish va Misrda davlat to'ntarishi amalga oshirishni rejalshtirishda ayblab qamoqqa organi ham fikrimiz isbotidir.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil «birodarlar»ning uzoq yillar davomida olib borayotgan faoliyati Misrda davriy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqarishi bisan bir qatorda musulmon dunyosiga mansub boshqa davlatlarda radikal islomiy tashkilotlar vujudga kelishiga masfuraviy va tashkiliy zamin yaratgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Musulmon birodarlar» targ'ib etgan g'oyalar Misr bilan geografik jihatdan tutashib ketgan Falastin hududida turli diniy-ekstremistik uyushmalar, xususan, «XAMAS» tashkiloti vujudga kelishiga sabab bo'lgani ham mazkur fikrning o'rini ekanini tasdiqlaydi.

«XAMAS» («Harakat al-muqavama al-islomiya» — «Islom qarshilik harakati»). Ushbu tashkilotga 1987-yil Falastinda shayx Ahmad Yosin tomonidan asos solingan.

Qohiradagi Aynush-Shams islom universitetida o'qigan davrida «birodarlar» tashkiloti mafkurasi bilan yaqindan tanishgan Yosin 1970-yillarda xayriya ishlari bilan shug'ullanuvchi «Islom birlashmasi» nomli uyushma tuzgan va yahudiylarga qarshi faoliyat yuritmagani hamda ushbu masalada Yosir Arofot boshchiligidagi Falastinni ozod qilish tashkiloti bilan ixtilosiga borgani uchun Isroiil rahbariyatining xayrixohligiga erishgan edi.

Biroq 1979-yilda Erondagi islom inqilobi ta'sirida Yosin radikal g'oyalarni o'ziga shior qilib olgan «Mujohidlar shuhrati» nomli tashkilot tuzdi. Falastin intifodasi (1987—1993-yillarda arablarning G'azo va Iordan daryosining g'arbiy sohilida Isroiilga qarshi ommaviy chiqishlari)ning birinchi bosqichida esa «Birodar musulmonlarning G'azo sektori va Iordan daryosi g'arbiy qanoti» va «Islom jihodi — Falastin» kabi ikki tashkilotning birlashuvi asosida «XAMAS» tashkiloti tuzildi.

«XAMAS»ning siyosatini ifodalovchi «Alloh yo'li» nomli hujjatda barcha islom davlatlariga zulm va adovat tarqatilayotgani, buning oldini olishga va Falastinning barcha hududida islom davlati barpo etishga esa faqat jihod yo'li bilan erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Yuqoridagi da'vatlar bilan bir qatorda, Yosinining falastinliklarni yahudiylarni qirib tashlashga chaqirib, terrorchilik amaliyotida yosh bolalar va ayollar ham ishtirok etishi mumkin, deb fatvo berishi esa tashkilotga ko'plab o'smir va ayollarning jalb qilinishiga va uning faoliyatining yangi, o'ziga xos jihatlar kasb etishiga zamin yaratdi.

«XAMAS» tomonidan isroilliklarga nisbatan qator terrorchilik harakatlarining amalga oshirilishi 1989-yilda Yosinining qamoqqa olinishi va tashkilotga AQSHda doimiy ravishda yashab keluvchi Musa Abu Mazruqning rahbar qilib tayinlanishiga olib keldi. Mazruq AQSH, G'arbiy Yevropa va Fors ko'rsazi davlatlarida «XAMAS»ning mahalliy bo'limlarini shakllantirish va tarafdoqlar sonini ko'paytirish hisobiga tashkilotni moliyaviy va tarkibiy jihatdan mustahkamladi.

Bugungi kunda «XAMAS» ijtimoiy-siyosiy sohada ochiq faoliyat yurituvchi va terrorchilik amaliyotlarini amalga oshiruvchi maxfiy jangovar tizimlardan iborat ikki qanotga ega. Ijtimoiy-siyosiy tizim tarkibidagi bo'linmalar xayriya ishlari hamda masjid va ommaviy axborot vositalari orqali radikal islom g'oyalarini targ'ib qilish hamda jamoat muassasalarida tashkilotga yangi a'zolarni yollash bilan shug'ullanadi.

«Azadin al-Kassam» nomi ostida faoliyat yurituvchi jangovar tizim rasman mustaqil faoliyat yuritsa-da, aslida o'z harakatlarini siyosiy

tizim rahbariyati bilan muvofiqlashtirgan holda olib boradi. Jangovar tuzilma asosini maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, boshqalardan qora kombinezon va «Allohu akbar» deb yozilgan peshonabog' ajratib turuvchi 300–500 jangaridan iborat guruh tashkil etsa-da, bir necha ming kishidan iborat yordamchi guruhlar ham mavjudligini ta'kidlash zarur.

«XAMAS» jangarilari amalga oshiradigan terrorchilik harakatlari Isroil askarlariga hujum uyushtirish, jamoat joylarida minalashtirilgan avtomobillardan hamda terrorchi-kamikadzelardan foydalanish orqali bomba portlatish va yahudiyalar yashaydigan hududlarni reaktiv raketalar bilan o'qqa tutishga asoslangan.

Tashkilot bir qator mamlakatlarda o'z tarmoqlariga ega bo'lsa-da, terrorchilik faoliyatini faqat Falastin hududida amalga oshiradi. Boshqa joylardagi bo'limlar mablag' toplash, quroslasha sotib olish, ularni Falastinga olib kirish hamda targ'ibot-tashviqot ishlari bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda «XAMAS» o'zining terrorchilik faoliyatida ko'proq terrorchi-kamikadzelardan foydalanishga intilmoqda. Asosan o'smirlar va ayollar ishtirokida shunday usul bilan 2002-yilda 46 ta va 2003-yilda 17 marta terrorchilik harakati amalga oshirilgani buni tasdiqlaydi.

Bunday harakatlarga javoban esa Isroil hukumati «XAMAS» yetakchilarini yo'q qilish usulini qo'llamoqda. 2003-yilda Ismoil Abu Shanab, 2004-yilda Ahmad Yosin, Abdel Aziz ar-Rantisi, Adnan al-Gul va Imod Abbos kabi yetakchilar yo'q qilingani ham buning isboti bo'la oladi.

Umuman olganda, «XAMAS» amalga oshirayotgan terrorchilik amaliyoti Falastin avtonomiyasining tinch yo'l bilan shakllanishiga g'ov bo'lib kelmoqda hamda ko'plab begunoh insonlarning nobud bo'lishiga sabab bo'limoqda. Bundan tashqari, ushbu tashkilot qo'llayotgan terrorchi-kamikadzelardan foydalanish usuli boshqa diniy-ekstremistik tashkilotlar uchun tajriba manbai sifatida xizmat qilmoqda.

Arab-Isroil mojarosi manbaiga aylangan Falastinni ozod qilishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida e'tirof qilish barobarida o'z faoliyatida terrorchilik amaliyotini keng ko'lamda qo'llab kelayotgan qator diniy-ekstremitik guruhlar mavjud bo'lib, ular ichida «Hizbulloh» partiyasi alohida o'rinn tutadi.

«Hizbulloh» (**«Alloh partiyasi»**). Hozirgi kunda Yaqin Sharqdagi shia musulmonlarining yetakchi kuchlaridan biriga aylangan «Hizbulloh» tashkilotiga 1982-yilda Livanda shayx Muhammad Husayn Fadallo boshchiligidagi shia dindorlari tomonidan asos solingan.

Tashkilotning mafkuraviy asoslari 1985-yilda e'lon qilingan deklaratasiyada o'z ifodasini topgan. Unda jihad yo'li bilan yahudiy, fransuz va amerikaliklarni Livandan siqib chiqarish hamda ozod qilingan

hududda islam davlati tuzish g'oyalari ilgari surilgan hamda AQSH bilan Isroil tashkilotning asosiy dushmani sifatida baholangan. Shuningdek, Falastinni yahudiylardan ozod qilish ham asosiy maqsadlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Isroil armiyasining Livanga bostirib kirishi natijasida ko'plab tinch aholining qurbon bo'lishi va «Hizbulloh»ning isroilliklarga qarshi kurashda faol ishtirok etishi tashkilotning ommaviylashuvi va ko'plab livanliklarning unga a'zo bo'lishiga sabab bo'ldi.

1985-yilning yanvar-fevralida Isroil qo'shinlari Livandan chiqib ketgach, «Hizbulloh» xorijdan olgan katta miqdordagi yordam evaziga Bayrut va Livanning janubiy hududlari ustidan deyarli to'la nazorat o'matdi.

1992-yilda tashkilot tuzilmasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, uning harbiy qanoti — «Islam qarshilik harakati» mustaqil tashkilot sifatida ajralib chiqdi. Shuningdek, maktab, shifoxonalar ochish kabi ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish va ochiq siyosiy faoliyatni kuchaytirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, «Hizbulloh» Livan parlamenti saylovlarida ishtirok etib, 1992-yilning kuzida 128 o'rindan 8ta, 1996-yili 7ta hamda 2000-yili 12ta joy olishga erishgani ham mazkur jarayonga xos evolyutsiyani yaqqol ko'rsata oladi deyish mumkin.

Ayni paytda, «Hizbulloh»ning 2000-yilda Livan parlamentiga o'tkazilgan saylovlar oldidan e'lon qilgan dasturi tashkilot strategiyasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganini, chunonchi, G'arbg'a qarshi kayfiyatlarning deyarli yo'qligi, dunyoga ma'rifiy islamni tarqatish asosiy maqsad sifatida e'tirof qilingani bilan ajralib turishini qayd etish zarur.

Bugungi kunda «Hizbulloh»ni bosh kotib rahbarligidagi 12 kishidan iborat kengash (*«sho'ro»*) boshqarmoqda. O'z navbatida, sho'roga quyi pog'onadagi diplomatiya, mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy va razvedka bo'limlari faoliyatiga rahbarlik qiladigan har biri 15 kishidan iborat Siyosiy byuro va Ijroiya qo'mitasi bo'ysunadi. «Hizbulloh»ning ma'naviy rahbari shayx Xoji Islom Husayn Fadollo bir vaqtning o'zida Livanning shia musulmonlari jamoasida bosh qozi vazifasini ham bajarib kelmoqda.

Alovida batalon va maxsus guruhlarga bo'lingan, boshqa tuzilmalar a'zolaridan yashil beretlari bilan ajratib turadigan 4000-5000ga yaqin jangarilar guruhining mavjudligi tashkilotning bugungi kunda ham yetarli jangovar kuchlarga egaligini ko'rsatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Livan shialari yashaydigan hududlarda joylashgan «Hizbulloh»ning harbiy tizimida turli davrlarda Jazoir, Saudiya Arabiston, Afg'oniston, Kuvayt, Sudan, Bosniya va Gersegovinadan kelgan jangarilar tayyorgarlik o'tashgan.

«Hizbulloh» 1980–1990-yillarda AQSH va Isroilga nisbatan eng ko‘p terrorchilik harakati amalga oshirgan tashkilot hisoblanadi. Dastavval tashkilot jangarilari samolyotlarni garovga olish, fuqarolarni o‘g‘irlash usullarini keng qo‘llagan bo‘lsa, keyinchalik ular ko‘proq portlovchi moddalar ortilgan avtomashinalar va terrorchi-kamikadzelar yordamida qo‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirish, Isroiuning shimoliy hududlarini muttasil ravishda reaktiv minomyotlardan o‘qqa tutish vositalarini qo‘llashga o‘tgan. Xususan, 1993-yil 23-oktabrda Bayrutda tashkilotning ikki a’zosi portlovchi moddalar ortilgan yuk avtomashinalarini harbiy kazarmalarga yo‘naltirishi natijasida ro‘y bergen portlash oqibatida AQSH ning 240, Fransiyaning 58 harbiy xizmatchisi halok bo‘lgan va bir necha yuz kishi yarador bo‘lgan. Umuman olganda, 1990–1995-yillar oralig‘ida «Hizbulloh» tomonidan yuzlab kishilarning halok bo‘lishiga olib kelgan 823 ta terrorchilik xarakati amalga oshirilgan.

1994-yil 18-iyulda Argentina poytaxti Buenos-Ayresda joylashgan Yahudiy madaniyat markazi binosida terrorchi-kamikadzening o‘zini portlatib yuborishi natijasida 86 kishining halok bo‘lishi, ko‘plab odamlarning turli darajada tan jarohati olishiga olib keldi. Bu «Hizbulloh» tomonidan amalga oshiriladigan qo‘poruvchiliklarning ko‘rinishi va ko‘lamini yaqqolroq tasavvur qilish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda «Hizbulloh» yetakchilari o‘z faoliyatlariga ochiq siyosiy mazmun berishga harakat qilayotgan bo‘lishlariga qaramay, uning harbiy qanoti yil sayin jangovar qobiliyatini o‘sirib borayotgani, jumladan, uchuvchisiz boshqariladigan razvedka samolyotlari bilan quronayotgani uning bundan buyon ham Yaqin Sharq uchun terrorchilik harakatlari manbai sifatida saqlanib qolishini ko‘rsatadi.

Umuman, ushbu mintaqada Arab– Isroil muammolarining tugal hal etilmagani ba‘zi mutaassib guruhlar uchun diniy qarama-qarshiliklarni transmintaqaviy darajaga ko‘tarishlariga asos bo‘lmoqda. «Hizbut-tahrir al-islomiy» tashkilotining faoliyati bunga misoldir.

**«Hizb at-tahrir al-islomiy» («Islom ozodlik partiyasi»).** Tashkilotga 1953-yilda Taqiyiddin Nabahoni (1909–1979) tomonidan asos solingan.

Dastavval o‘ziga Falastinni yahudiylardan ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoni, keyinchalik musulmon davlatlarini birlashtiruvchi xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb e‘lon qildi.

Ta‘limot nazariyasi Nabahoni va uning izdoshi Abdul Qaddim Zallumning «Islom nizomi», «Islom davlati», «Xalifalik», «Islomiy olamga qaynoq nidolar» va «Hizbut-tahrir»ning tushunchalari», «Demokratiya – kufr nizomi» va «Siyosiy ong» kabi asarlarida bayon etilgan. Ularda G‘arb sivilizatsiyasi va dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan, demokratiya, konstitutsiya, saylov kabi siyosiy institutlar inkor qilingan holda, turli mamlakatlarda radikal islom g‘oyalarini targ‘ib

qilish, davlat to'ntarishi orqali hokimiyatni qo'lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o'rnatish asosiy maqsad sifatida ilgari suriladi.

«Hizbut-tahrir» 1960–70-yillarda bir necha bor hukumatga nisbatan fitna tayyorlashda qatnashganidan so'ng uning faoliyati lordaniya va Misrda, keyinroq Suriya, Iraq, Misr, Liviya, Tunisda, shuningdek, Sudan va Malayziyadan tashqari deyarli barcha musulmon davlatlar, 2003-yildan Rossiya va Germaniyada ham man qilindi.

«Hizbut-tahrir» piramida shaklidagi tuzilishga ega bo'lib, uning quyi pog'onasini 5 kishilik «xalqlalar»ga birlashgan «dorislar» tashkil etadi. Xalqaga «mushrif» rahbarlik qilib, 4–5 mushrifdan iborat «mahalliy jihoz» «naqib»ga, naqiblar viloyat darajasida «musoid»ga bo'ysunadilar. Musoidlar faoliyati mintaqaviy rahbar – «mu'tamad» tomonidan boshqariladi. Tashkilot rahbari – «Amirul-a'zam» tashkilotning oliv bo'g'ini – «Qi'yodat» orqali mu'tamadlarning faoliyat yo'nalishini belgilab turadi. Bunday tuzilish tashkilotning o'z faoliyatini mumkin qadar yashirin olib borish imkonini berish bilan bir qatorda butunlay fosh bo'lish ehtimolini kamaytiradi.

Hozirgi kunda esa tashkilot rahbarlari tomonidan ilgari surilgan «Arab – Isroiil muammolarini hal etishning yagona vositasi – yahudiylarni ommaviy qirg'in qilishdir», degan reaksiyon g'oya «Hizbut-tahrir»ning haqiqiy mohiyatini belgilab beradi deyish mumkin.

Yaqin Sharq mamlakatlari hozirgi kunda ham «Hizbut-tahrir» uchun faoliyat markazi sifatida saqlanib qolmoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, faqat Jordaniya, Livan va Falastin hududlarida tashkilotning 3000–5000 a'zosi faoliyat yuritadi. Tashkilotning Bayrutda chop etiladigan «al-Va'y» («Ong») jurnali esa hizbiy g'oyalarni tarqatishga o'zining ulushini qo'shib kelmoqda.

«Hizbut-tahrir»ning faol harakati 1970–80-yillardan buyon Pokiston, Indoneziya, Filippin, 1990-yillar boshidan esa Markaziy Osiyo davlatlarida, 2003–2004-yillardan Qrim yarim oroli va Rossianing bir qator mintaqalarida kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, «Hizbut-tahrir» G'arbiy Yevropadagi bir qator mamlakatlarda o'z bo'linmalariga ega. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, tashkilotning Buyuk Britaniyada joylashgan bo'linmasi muvosiflashtiruvchi markaz vazifasini bajarmoqda.

Garchi «Hizbut-tahrir» o'z faoliyatida faqat g'oyaviy kurash usullaridan foydalanishni e'lon qilsa-da, tashkilot maskusasini ifodalovchi hujjatlar buning aksini ko'rsatadi. Xususan, «Hizbut-tahrir» tomonidan tarqatiladigan varaqlar va qilinadigan da'vatlarda «musulmon bo'limgan hukumatlarga qurolli jihad e'lon qilish zarur», degan g'oyaning keng targ'ib qilinishi, «al-Va'y» jurnalining 2001-yil iyunda chop etilgan 170-sonida islom xalifaligini qurish yo'lida

barcha vositalarni qo'llash, hatto, qotillik qilishning oqlanishi, begunoh odamlarning o'limiga sabab bo'luvchi terrorchi-kamikadzelarning «shahidlar» qatoriga kiritilgani ham buni tasdiqlaydi.

«Hizbut-tahrir» faollarining musulmon dunyosiga mansub bir qator davlatlarda konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan terrorchilik amaliyotlarida ishtirok etgani ham ularning asl qiyofasini ochiqoydin namoyish etadi.

Jumladan, 1968, 1974 va 1977-yillarda «Hizbut-tahrir» a'zolari lordaniyada, 1974-yilda esa Misrda harbiy isyon ko'tarishga uringan. 2000-yil yanvarda esa Suriya huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan hukumatga qarshi g'alayonlar ko'tarishga tayyorgarlik ko'rayotgan tashkilot faollarining 800 nafari qamoqqa olingan.

Shu bilan birga, fitnalarning doimiy muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, «Hizbut-tahrir» rahbariyati orasida ushbu harakatlar tashkilotning «ajralib» chiqqan qismi tomonidan amalga oshirildi, degan da'vo bilan aybni bo'yinlaridan soqit qilishga intilishdek amaliyotni keltirib chiqqanganini ta'kidlash zarur.

Voqelik boshqa diniy-ekstremistik tashkilotlar singari, «Hizbut-tahrir» a'zolarining faoliyati ham o'ta radikal tus olayotganini ko'rsatmoqda. 2003-yil aprelda tashkilotning Buyuk Britaniyadagi bo'linmasi a'zolaridan birining Isroiuning Tel-Aviv shahrida joylashgan «Mayks Pleys» kafesida o'zini portlatib yuborishi natijasida 23 kishi nobud bo'lgani ham buni tasdiqlaydi.

2002-yilda Filippinda qamoqqa olingan tashkilotning bir guruhi faollaridan katta miqdordagi portlovchi moddalar va o'qotar qurollar qo'lga olinishi barobarida ularning «al-Qoida» terrorchi tashkilotining mahalliy tuzilmalari bilan yaqin aloqada bo'lgani ham aniqlangan. Bu esa «Hizbut-tahrir» tashkiloti o'z faoliyatini xalqaro terrorchilik tizimining tarkibiy qismi sifatida tashkil etayotganidan dalolat beradi.

**«Al-Qoida» («Asos»).** Radikal islom g'oyalariga asoslangan ushbu transmilliy diniy-siyosiy guruhning paydo bo'lishiga Usoma bin Lordin rahbarligida Afg'onistonda Sovet armiyasiga qarshi urushda ishtirok etish uchun ko'ngillilarni yollash va ularni qurol-aslaha bilan ta'minlash maqsadida Pokiston hududida tuzilgan «Maktab al-xidmat» byurosi asos bo'lib xizmat qilgan.

Tashkilotning dastlabki tuzilmalari G'arb va AQSHning global yetakchiliga qarshi kurash, islomning fundamental asoslariga qaytish va yagona islomiy xalifat qurishdek maqsadlar dasturiga monand ravishda 1992-yilda Xartum (Sudan)da qayta shakllantirilgan.

«Al-Qoida» rahbariyati g'oyaviy jihatdan Muhammad ibn Abdul-Vahhab va Sayid Qutblarning asarlarida bayon qilingan tamoyillarga asoslanishini e'tirof qilgan holda, amalda musulmon davlatlaridagi

dunyoviy hukumatlarni ag'darib tashlash va shariatga asoslangan islomiy davlat qurishdek asosiy maqsadni ko'zlaydi.

«Al-Qoida» rahbariyatining Yaqin Sharqdagi Arab – Isroil muammosini musulmon va kofirlar orasidagi dinlararo kurash sifatida ta'riflashi, 1991-yilda Amerika qo'shinlarining Iroqda harbiy harakat olib borish uchun Saudiya Arabistonи hududiga joylashuvini musulmon dunyosiga nisbatan salb yurishi deb baholashi ham, AQSHni musulmonlarning asosiy dushmani, Isroilni esa uning yaqin yordamchisi, deb hisoblashi ham tashkilotning g'oyaviy qarashlarini aniq ifodalaydi deyish mumkin.

«Al-Qoida» boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi qat'iy iyerarxiya asosida tuzilgan bo'lib, unga Oliy kengash («Majlis ash-shura») rahbarlik qiladi. Oliy kengashga harbiy, moliyaviy, diniy va huquqiy, axborot va tashviqot qo'mitalari bo'ysundirilgan bo'lib, ular quyi pog'onadagi guruhlар faoliyatini boshqaradi.

Manbalarda «al-Qoida»ning harbiy lagerlari 2001-yilga qadar Afg'oniston, Pokiston, Somali, Sudan, Yaman, Bangladesh kabi qator davlatlarning tog'li hududlarida, shuningdek, Checheniston hatto, bittasi AQSHning Florida shtatida faoliyat ko'rsatgani qayd etiladi.

Taxminlarga ko'ra, hozirgi kunda tashkilotning yashirin guruhlari 33 tadan 88 tagacha mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan bo'lishi, jangarilarining soni esa 3000–7000 kishini tashkil etishi mumkin.

«Al-Qoida»ning dastlabki faol harakati 1992-yil kuz fasilda kuzatilgan bo'lib, tashkilot jangarilari Somalidagi beqarorliklarning oldini olish uchun kiritilgan BMT tinchlikparvarlik kuchlari tarkibidagi AQSH maxsus qo'shinlarining 18 harbiy xizmatchisini o'ldirishgan.

1996-yilda AQSHning Sudan hukumatiga tazyiqi ostida «al-Qoida»ning asosiy jangovar kuchlari Afg'onistonning «Tolibon» harakati nazoratidagi hududlarga ko'chib o'tdi. Aynan shu yerda, 1998-yilning fevralida «al-Qoida» yetakchiligidagi «al-Jamoa al-Islomiyya», «al-Jihad» (Misr), «Jamaati ulame Pokiston», «Kashmir qo'zg'olonchilik harakati» (Hindiston), «Jihad» (Bangladesh) va «Tolibon» harakati vakillari «Yahudiy va salbchilarga qarshi xalqaro islam fronti» uyushmasi tuzilgанини e'lon qilishdi. Ushbu uyushma nomidan Usoma bin Lordin AQSH boshchiligidagi G'arb dunyosiga jihad e'lon qildi.

Shundan so'ng, qator og'ir oqibatlarni keltirib chiqargan terrorchilik harakatlari sodir etildi. Jumladan, 1998-yil 25-iyunda «al-Qoida» jangarilari Saudiyaning Daxran shahri yonida joylashgan AQSH Harbiy Havo kuchlarining bazasi oldida amalga oshirgan portlash natijasida 19 kishi halok bo'lib, 300 dan ziyod kishi tan jarohatini oldi. Shu yilning 7 avgustida esa «al-Qoida» jangarilari bir vaqtning o'zida AQSHning Tanzaniya va Keniyadagi elchixonalari oldida bomba ortilgan mashinalarni portlatishi oqibatida esa 242 kishi halok bo'ldi va 5000 ga yaqin odam shikastlandi.

Va, nihoyat, 2001-yilning 11-sentabrida Amerika Qo'shma Shtatlarida turli reyslar bilan Nyu-York, Boston va Vashington shaharlaridan uchgan to'rtta «Boing-757» samolyoti «al-Qoida» guruhiga mansub 18 nafar terrorchi tomonidan egallab olinib, ularning ikkitasini Nyu-Yorkdagi xalqaro savdo Markazi joylashgan «egizak» binolarga, bittasini esa AQSH qurolli kuchlari shtabi – Pentagonga yo'naltirildi. Yana bir samolyot Pensilvaniya shtatidagi Shanksville rayoniga qulab tushdi.

Umuman olganda, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, «al-Qoida» guruhi jangarilari Afg'oniston (1992-yildan), Somali (1992–1993-yy.), Bosniya va Gersegovina (1992–1995-yy.), Kashmir (1993-yildan), Shimoliy Kavkaz (1995-yildan), Kosovo (1999-y.), Markazi Osiyo (1999-yildan), Pokistonning Janubiy Vaziriston viloyati (2001-yildan) va Iroq (2003-yildan) hududlarida qurolli to'qnashuv va terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

11-sentabr voqealaridan so'ng Afg'onistonda o'tkazilgan keng ko'lamli xalqaro aksilterror harakati natijasida «al-Qoida» jiddiy talafot ko'rgan bo'lsa-da, u o'z faoliyatini yangi sharoitlarga moslashtirishga intilmoqda. Jumladan, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, tashkilot asosiy tizimlarini erkin pushtun qabilalari yashaydigan Pokistonning shimoli-g'arbiy va Kashmirdagi baland tog'li hududlarga ko'chirishga harakat qilinmoqda.

Afg'oniston va Iroqda AQSH harbiylariga qarshi partizan urushida faol ishtirok etish barobarida aksilterror ittifoqiga a'zo davlatlardan ushbu hududlardan o'z qo'shinlarini olib chiqishni talab qilayotgani tashkilotning bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatidir. «Al-Qoida» aynan shu maqsadga erishish bayrog'i ostida terrorchilik harakatlarini amalga oshirmoqda. Jumladan, 2004-yilning 11-martida Madrid (Ispaniya)dagi 4 ta temir yo'ilbekatida umumiyy hisobda 6 ta portlatish amalga oshirildi. Natijada, 200 kishi halok bo'ldi va 1500 dan ziyod kishi yarador bo'ldi. Politsianing taxminiga ko'ra, portlashlarni «al-Qoida» guruhini bilan yaqin aloqada bo'lgan marokashlik radikal islom guruhi amalga oshirgan.

Qayd etilgan dalillar ham «al-Qoida»ning xalqaro terrorchilik tizimining markaziy unsuri va jahoning turli nuqtalarida ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvalar, terrorchilik amaliyotlarini moliyalashtirish, rejalashtirish hamda bevosita amalga oshirishning asosiy bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi.

Tahlil qator xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Eng avvalo, aksariyat diniy-ekstremistik tashkilotlar rasmiy – ochiq ish olib boruvchi siyosiy hamda xufya harakat qiluvchi jangovar qanotlar orqali faoliyat yuritishga intilayotganini ta'kidlash zarur. Siyosiy qanot jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, aholi xayriyohligiga erishish, jangovar qanot esa terrorchilik usullari bilan hukumatga tazyiq o'tkazish uslubidan foydalanadi.

Shuningdek, keyingi yillarda ushbu tashkilotlar o‘z faoliyatiga ko‘proq yoshlarni va ayollarni jalb qilishi, terrorchi-kamikadzelardan foydalanish va mumkin qadar ko‘proq qurbanlar bo‘lishini nazarda tutgan holda terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, diniy-ekstremistik tashkilotlar o‘z faoliyatini uyg‘unlashtirishga va yaxlit tizim sifatida ish olib borishga harakat qilmoqdalar. Iraq, Afg‘oniston va Chechenistondagi qo‘poruvchilik harakatlarda turli millatga mansub jangarilarning ishtirot etayotgani, terrorchilik harakatlari bir xil shiorlar ostida amalga oshirilayotgani bunga dalil bo‘la oladi.

Diniy-ekstremistik tashkilotlarning reaksiyon g‘oyalari va qo‘poruvchilik faoliyati barcha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatlar iqtisodiyoti, o‘zaro investitsiya muhitiga jiddiy ziyon yetkazilmoqda. Xususan, AQSH kongressi tomonidan tuzilgan Milliy komissiyaning hisobotiga ko‘ra, 2001-yil 11-sentabrda amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari AQSH va jahon iqtisodiyotiga bevosita 135 mlrd., bilvosita 2 trln. dollar zarar yetkazgan.

Shuningdek, amerikalik mutaxassislar fikriga ko‘ra, Jazoirda hukumat qo‘sishnları va «Qurollangan islom guruhi» orasidagi urush 1996–2001-yillar orasida mamlakat byudjetiga 16 mlrd. AQSH dollari miqdorida ziyon keltirgan.

Ayni paytda, diniy-ekstremistik tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tashviqot yoshlarning soxta g‘oyaga aldanib qolishi, yurt ravnaqi yo‘lidagi faoliyatdan chalg‘ishi, jamiyatdagi ma‘naviy-ruhiy muhitning buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

Diniy-ekstremistik tashkilotlar faoliyati, shuningdek, musulmon bo‘lмаган mamlakatlar aholisi o‘rtasida islomni «yovuzlik sultanati» va tahdid manbai sifatida qabul qilinishiga, «islamofobiya»ning turli ko‘rinishlari paydo bo‘lishiga ham zamin yaratmoqda.

Qayd etilgan holatlar ham, diniy ekstremizm va terrorizmning kishilik jamiyatining nafaqat bugungi kuni, balki istiqboliga ham tahdid solayotgan omilga aylanganini, insoniyat bir butun vujud sifatida qarshi kurashga kirishgandagina uni yenga olishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan misollar diniy ekstremizm va terrorizmning tobora keng miqyos va mudhish qiyofa kasb etayotganini tasdiqlaydi. Bu unga qarshi kurashda dunyo mamlakatlari tajribasining ahamiyati beqiyos ekanini ko‘rsatadi.

**Misr tajribasi.** Arab – musulmon davlatlari ichida Misr Arab Respublikasi birinchi bo‘lib terrorizm muammosi bilan duch keldi. Zero, aynan Misrda 1928-yilda Yaqin Sharqdagi birinchi radikal islom

tashkiloti – «Ixvan al-muslimin» («Musulmon birodarlar») uyushmasi paydo bo'ldi.

Shu tarzda Misr bu xavfli hodisa bilan kurashda katta tajriba to'pladi hamda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda musulmon davlatlari orasida tan olingen yetakchiga aylandi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, musulmon davlatlarining mazkur hodisaga qarshi kurash usullarini Misr misolida tahlil qilish o'rinni va foydalidir. Misr bиринчи мarta bu muammoga 1940-yillarda, «Musulmon birodarlar»ning o'z faoliyatida ishontirish usullaridan radikal terrorchilikka – davlat, politsiya va armiyaning ko'zga ko'rigan arboblarini jismonan yo'q qilish yo'liga o'tishi natijasida duch keldi. Hukmron rejim tomonidan bu tashkilotga qarshi 1950–60-yillarda olib borilgan yirik hibsga olish va repressiv choralar «Musulmon birodarlar»ni faqatgina vaqtinchalik yashirin faoliyatga o'tishga majbur qilib, ichki siyosiy maydonda faol harakatlanish imkoniyatini chekladi, xolos.

«Musulmon birodarlar» qiyofasidagi islam muxolafatini kuch bilan bostirishga urinishi kutilmagan natijaga – turma va lagerlarda fundamentalizmning yangi oqimi – ekstremizmning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu radikal diniy oqimning maskuraviy mohiyati esa zamonaviy musulmon jamiyatni va hukmron siyosiy rejimning qonuniyligini butunlay inkor etishga borib taqaladi. Bir vaqtning o'zida, mutaassib islam tashkilotlari va guruhlari paydo bo'la boshladи.

1970-yilda Misrda hokimiyat tepasiga prezident Anvar Sadatning kelishi bilan mamlakatning ichki va tashqi siyosatida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi<sup>27</sup>. Sadat va uning hukumati o'zlarini din va diniy qarashlarning bosh himoyachisi sifatida ko'rsatishga harakat qilib, dinni kuchaytirish orqali so'l kuchlarga qarshi kurashni asosiy maqsad qilib belgiladilar. Yangi radikal islam guruhlari xayriyohlik va ularni nooshkora rag'battantirish bu guruhlarning faollahuviga imkon yaratdi. Shunday qilib, bu yillarda «At-takfir val-hijra» («Dahriylikda ayplash va jamiyatdan chiqish») va «Al-Jihad al-Muqaddas» («Muqaddas jihod») tashkilotlari shakllandi<sup>28</sup>.

1980-yillar boshlarida islamchilar ommaviy harakatlarni amalga oshira boshladilar. Xususan, ular 1980-yilda Qohirada 400 mingga yaqin dindor qatnashgan namoyish uyushtirdilar. Islomiy tashkilotlar bir necha million misrlikni o'zida birlashtirgan sufiyalar tashkilotlariga ta'sir o'tkazishga urinib ko'rishdi. Jumladan, sufiyalar tariqatiga o'z qarashlarini olib kirishga intilgan «Musulmon birodarlar» tashkilotining ayrim vakillari unga a'zo bo'la boshladilar.

<sup>27</sup> Muborak Hishom. Al-Irxabiiyyin qadimin: dirasa muqarina bayna mavqif al-Ixvan al-Muslimin va jamiyat al-Jihad min qadiyat al-Unf (1928–1994). Al-Qohira. Kitab al-Maxrusa, 1995.

<sup>28</sup> A'lam Fuad. Al-Ixvan va Ana. Al-Qohira. Axbar al-Yavm, 1996.

1981-yilning sentabrida konfessiyalararo to‘qnashuvlar xavfining oldini olish maqsadida kechiktirib ko‘rilgan xavfsizlik choralari, shuningdek, barcha muxolif siyosiy va diniy tashkilotlar, oqimlar vakillarining keng miqyosda hibsga olishlar muvaffaqiyat keltirmadi. Hibsga olinganlar orasida 1500 dan ortiq turli partiya va harakatlar, jumladan, radikal islom tashkilotlari a’zolari, mashhur yozuvchi va jurnalistlar bor edi<sup>29</sup>

Yuzaga kelgan qulay vaziyatdan islomchilar zudlik bilan foydalana-dilar. Muhammad Payg’ambar hayotidan keltirilgan misollarga tayangan, islomni qutqarish zaruratini ta’kidlagan, musulmon va yahudiylar orasidagi murosaga keltirib bo‘lmaydigan ziddiyatlarni ro‘kach qilgan holda islomchilar arablar huquqlarini qayta tiklash uchun kurashga chaqira boshladilar. Ularning fikricha, bunday maqsadni amalga oshirishdagi birinchi qadam Prezidentni yo‘q qilishdan iborat bo‘lishi kerak edi.

1981-yilning 6-oktabrida harbiy parad vaqtida Anvar Sadat va yana 7 kishi «Jihod» tashkiloti a’zolari tomonidan otib tashlandi. Sadatning o‘limidan so‘ng «Jihod» tashkiloti o‘rta asr islom xalifaligiga o‘xhash islom davlatini tashkil etish maqsadida Asyut shahri ustidan nazorat o‘matishga harakat qildi. Ammo bu amalga oshmadi va g‘alayon bostirildi.

**Kurash strategiyasi.** Misr Arab Respublikasi hukumatining diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi bevosita va bilvosita qarshilik ko‘rsatish usullarini o‘z ichiga oladi. Bevosita qarshilik ko‘rsatish o‘z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko‘riladigan choralarni oladi<sup>30</sup>

Bilvosita choralarga hukumatning rasmiy diniy muassasalarni o‘z tarafiga og‘dirishga, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dastak va tizimlar kiradi.

Bevosita qarshilik ko‘rsatishda so‘nggi yillarda mamlakatda qabul qilingan aksilterrorchilik qonunlarining huquqiy asosidan keng foydalilanadi. Bilvosita qarshilik usullariga, shuningdek, islom muxolafatining mo‘tadil qismini faollashtirish, zo‘ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish orqali radikal islomchilarni «jilovlab» turish ham kiradi. Bugungi kunda bu kurash bevosita qurolli qarshilik ko‘rsatish va qatag‘onlardan tortib, haligacha ijobiy natija bermagan murosaga kelishga urinishdek xilma-xil uslublardan foydalangan holda olib borilmoqda.

<sup>29</sup> Mustafa Xala. *Ad-Davla val-Harakat al-Islamiya al-muarida: bayna al-muxadana val-muvajaha fi axday as-Sadat va Mubarak. Al-Qohira. Markaz ad-dirasat as-siyasiya val-stratiyyiha lil-Ahram*, 1995.

<sup>30</sup> Markaz ad-dirasat as-siyasiya val stratijiya li-l Ahram. Taqrir al-hala ad-diniya fi Misr, 1995.

Radikal islom tashkilotlari bilan muloqot qilish diniy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirishni tashkil etish shaklini olgan edi. U mustiyat va Misr Vaqflar vazirligi boshchiligidagi rasmiy diniy muassasalar tomonidan o'tkazilib, turli viloyatlar, ayniqsa, radikal islom guruhlari ko'proq faol bo'lgan hududlarga maxsus diniy arboblar yuborilar edi. Viloyatlarda bunday tashkilotlar rahbarlari va a'zolari bilan ularni to'g'ri yo'lga solish, zo'ravonliklarning oldini olish masalasiga bag'ishlab uchrashuv va bahslar o'tkazilar edi.

Barcha hollarda radikal islom tashkilotlari va guruhlari bilan o'tkazilgan muloqotlar cheklangan harakat kasb etgani uchun zo'ravonliklarning kamayishiga olib kelmadи.

Jangarilik holatlarining oldini olish va unga qarshi kurashda hukumat o'z ichiga asosan, repressiv choralarни qamrab olgan ochiq kurash yo'llini tanlagan edi. U favqulodda holatni e'lon qilish, favqulodda sudlarni tashkil etish va amalga oshirish, siyosiy ishlar bo'yicha o'lim jazosini qo'llash, jinoyat sudining qarorlarisiz ma'muriy qarorlar yordamida alohida olingan fuqarolarni hibsga olish va saqlab turishdek profilaktik hibsga olish tadbirlarini qamrab olar edi. Shuningdek, terrorchilik xurujlari va mamlakat ichidagi zo'ravonliklarning oldini olishda hukumat armiya qismlaridan faol foydalanardi.

Misrda qabul qilingan va kuch ishlatishga asoslangan choralar doirasida profilaktik hibsga olish, qamoqda saqlash hamda harbiy tribunallar faoliyati alohida o'rinni egallaydi. Bunday amaliyotda «Favqulodda vaziyatlar to'g'risida»gi va «Harbiy tribunallar to'g'risida»gi qonunlarga amal qilinadi. Unga asosan, Prezident fuqarolar ishini ham harbiy tribunallarda ko'rib chiqish uchun jo'natishi mumkin<sup>31</sup>

1981-yilda Prezident Sadatning o'limidan so'ng, mamlakatda favqulodda holat e'lon qilingan. 1958-yilda qabul qilingan 162-qonunning birinchi moddasiga binoan «Favqulodda vaziyat respublika yoki mintaqalar chegarasi doirasida xavfsizlikka, mavjud tuzumga tahdid tug'ilganda, urush kelib chiqqan yoki uning xavfi paydo bo'lganda, umumiy inqiroz yoki g'alayonlar yuzaga kelganda, shuningdek, epidemiya tarqalishi xavfi bo'lganda e'lon qilinadi».

Misr Konstitutsiyasiga binoan, favqulodda holat e'lon qilish respublika Prezidentining mutlaq vakolatlari doirasiga kiradi. Qayd etilgan qonunning 148-moddasiga ko'ra Prezident favqulodda holatni e'lon qiladi, so'ng 15 kun davomida uni Xalq yig'ini (Respublika Parlamenti)ga taqdim etadi. Favqulodda holat Prezident qarori bilan to'xtatiladi. Mazkur qonun 1967-yildan 1980-yilning mayigacha amalda bo'lgan bo'lsa-da, 1981-yilning «oktabr voqealari»dan so'ngina uning rasman kuchga kirgani e'lon qilindi. O'shandan buyon ham uning amal qilish muddati bir

<sup>31</sup> «Al-Ahram» gazetasi. Al-Qohira. 12-iyun, 1997.

necha marta uzaytirildi. Favqulodda holat oxirgi marta 1997-yilning mayida Misrning Xalq yig'ini tomonidan uzaytirildi. Bundan tashqari, Yuqori Misrning shahar va qishloqlarida kommandant soati va boshqa cheklovlar qayta-qayta o'rnatilgan edi.

Fuqarolar ishlarining harbiy tribunallarda ko'rib chiqish uchun yuborilishi murakkab ichki vaziyat, jangarilik amaliyotining ortishi, sayyoohlarga qarshi qaratilgan harakatlarning sodir etilishi va siyosiy qotilliklarning davom etishi bilan bog'liq edi. Hukumat harbiy tribunallarni radikal islam tashkilotlari bilan kurashning yangi usuli sifatida joriy etdi.

Shunday qilib, kuchli repressiv choralar bilan bir qatorda hukumat kurashning huquqiy choralaridan ham samarali foydalandi. Shu o'rinda Misr qonunchiligi diniy asosda partiyalar tashkil etishni taqiqlashini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, davlat noqonuniy ravishda quroq saqlaganlar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchilar, radikal islamni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan qattiq ma'muriy-jinoiy choralarни qo'llaydi.

1990-yillarda zo'rlik va terror harakatlarining kuchayishi Misr hukumatini «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun kabi bir qator yangi huquqiy hujjatlarni qabul qilishga majbur qildi. Bunday maxsus qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralariga ko'proq erkinlik berish va ular olib borayotgan faoliyatning samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq edi. Chunki avval qabul qilingan «Favqulodda holatlar to'g'risida»gi qonun mahbuslarga davlat xavfsizligining oliy sud va uning hududiy bo'limmalariga 30 kun mobaynida appelyatsiya bilan murojaat qilish huquqini berardi. Biroq bu muddat xavfsizlik idoralariga ashyoviy dalillarni toplash uchun yetarli emas edi. Shundan kelib chiqib, davlat zo'rlik va terror bilan bog'liq fuqarolik ishlarini ham harbiy tribunallarda ko'rib chiqishga o'tkaza boshladi. Bu qadamning huquqiy asosini yaratish uchun Prezident Muborak 1992-yildan islam tashkilotlari faoliyatiga aloqadorlikda guman qilinganlarning ishini harbiy tribunalga oshirish to'g'risida maxsus 375-sonli farmonni qabul qildi.

1993-yilda qabul qilingan «Kasaba uyushmalariga saylov to'g'risida»gi qonun ham 1980-yillarning o'rtalaridan bir qator, xususan, muhandislar, o'qituvchilar va huquqshunoslar kasaba uyushmalarini qo'lga olgan islamchilarga qarshi qaratilgan edi.

O'z faoliyatining dastlabki davrida Husni Muborak diniy muxolafat bilan kurashning differensial yondashuvga asoslangan strategiyasini ishlab chiqdi. Uning doirasida hukumat «rasman tan olmagan holda chidash» siyosatini qo'lladi. Bu hukumatning islam harakatining mo'tadil qismiga chidamli munosabati va radikal qismiga keskin javobida o'z ifodasini topdi.

Ma'lumki, Anvar Sadat tomonidan 1970-yillarda boshlangan liberallashtirish siyosati doirasida Misr Arab Respublikasida ko'ppartiyaviylik tizimi yaratilgan edi. Biroq Misr qonunchiligi diniy asosdagi partiyalar tuzishni taqiqlagani uchun ham islam muxolafati mamlakat ichki siyosatida qatnasha olmagan edi.

Prezident Muborak tomonidan 1980-yillarda ishlab chiqilgan strategiya «Musulmon birodarlar» va boshqa islam guruhlariga parlamentga yakka tartibda va qonuniy faoliyat ko'rsatayotgan boshqa partiyalar bilan ittifoqqa kirishgan holda parlament tarkibiga kirish imkoniyatini berdi<sup>32</sup>

Parlamentdan joy olishda ifodalangan islam muxolafatining kuchayishi natijasida 1987-yilda kuchlar nisbati dunyoviy kuchlar foydasiga hal bo'lindi. Islam muxolafatining mo'tadil va radikal qismlarining o'zaro birikib ketishini ko'zlagan va shu yo'l bilan muxolafatning diniy va dunyoviy qanotlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan hukumat strategiyasi butunlay barbod bo'ldi.

Husni Muborak milliy birlikning keng assosini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Anvar Sadat o'ldirilgandan so'ng rasmiy hokimiyatga asosiy xavf tug'dirayotgan radikal islam harakatiga qarshi kurash maqsadida turli siyosiy oqimlar va harakatlar, shu jumladan, mo'tadil islam kuchlarini birlashtirishga harakat qildi.

Bu strategiya doirasida hukumat islam muxolafatining mo'tadil qismiga va «Musulmon birodarlar» tashkilotiga mamlakat siyosiy hayotida rasmiy ishtirok etishga imkoniyat yaratib, radikal qismini esa yo'q qilishga qaratilgan murosasiz kurash olib bora boshladi. Hukumat diniy muxolafatga parlament saylovlarida ishtirok etish, o'z gazetalarini nashr etish, OAVda o'z ovoziga ega bo'lishga yo'l qo'yib berdi. U islam jangarilar bilan al-Azhar shayxlari o'rtasidagi televizion bahslarni moliyaviy ta'minladi.

Mazmun-mohiyati va tanqidiy yondashuvlardan qat'i nazar, televideniyeda diniy dasturlar namoyish qilinishiga, gazetalarda maqolalar chop etilishiga imkoniyat berildi.

Biroq radikal islam tashkilotlarining xorijda yashayotgan yetakchilar mavjud tuzumni kuchsiz deb bilar, uni qulatish uchun mamlakat ichida ozgina qo'zg'alish bo'lsa kifoya deb hisoblar edi. Shu sababli radikal islam guruhlari mamlakat ichida ham, tashqarida ham terrorchilik harakatlari sodir etishning yuqori sur'atini saqlab qolishga intildilar.

Jumladan, sayyoohlarga nisbatan terror amaliyotini qo'llash kuchaydi. Islomchilar davlatning iqtisodiy quvvatini izdan chiqarib, so'ng mamlakatning qonuniy hukumatini qulatishga harakat qilmoqdalar. Davlatga qarshi ochiq qurolli kurash sharoitida islomchilar odamlar

<sup>32</sup> «Al-Ahram» gazetasi. Al-Qohira. 12-iyun, 1997.

ko‘p to‘planadigan joylarda portlatishlarni amalga oshirish, sayyoohlarga hujum uyuştirish, avtobus va poyezdlarni o‘qqa tutishda davom etmoqdalar. Davlat tomonidan amalga oshirilgan himoya choralariga qaramasdan radikal islam tashkilotlarining qibtiylar va nasroniylarga qarshi terrorchilik harakatlari ham o‘sib bormoqda.

1990-yillarda davlat faoliyat ko‘rsatayotgan islomi kuchlarga nisbatan qo‘llanilgan differensial yondashuvni qayta ko‘rib chiqdi.

Misr terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirish, radikal islam tashkilotlari va guruuhlarini yo‘q qilish orqali mamlakatda barqarorlikni ta’minlashga intilmoqda. Xususan, 1995-yilda Misrning xavfsizlik idoralari tomonidan «Al-Jamoa al-Islomiya» tashkilotining 20dan ortiq, «Al-Jihad al-Islomiya» tashkilotining ikkita, «At-Takfir val-Jihad» va «At-Tavaqquf vat-Tabyin» tashkilotlarining bittadan guruhi fosh qilingan edi.

Radikal islam tashkilotlari faolligi va ular amalga oshirayotgan harakatlarning xavfi o‘sib borayotgani hamda oldin qabul qilingan choralarning yetarli samara bermayotganini inobatga olib, Misr hukumati va huquqni himoya qilish idoralari terrorizm va radikalizmga jiddiyoq yondashishga majbur bo‘ldilar.

Maxsus ishlab chiqilgan ilmiy dasturga ko‘ra, Misr hukumati diniy ekstremizm va terrorizm bilan ham ichki, ham tashqi jabhada kurash olib bora boshladi.

Ichki frontda bu kurash davlat tomonidan ishsizlik, kam ta’minlangan oilalarning yashash darajasining pastligi, savodsizlik, uyjoy yetishmasligi kabi muammolarni yechishga qaratilgan bir qator tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Hukumat Misrning qoloq tumanlari va viloyatlarini rivojlantirishga qaratilgan va ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladigan aniq dastur ishlab chiqishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ydi.

Bundan tashqari, davlat diniy ekstremizm va zo‘ravonlik muammolarini ilmiy va keng qamrovida yechish bo‘yicha amaliy ishlarni tashkil etmoqda. Jumladan, terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha Xalqaro markaz tashkil etish barobarida Misrning ilmiy-tekshirish institutlari va strategik markazlarida bu muammoning ilmiy- tizimli tahliliga katta e’tibor berilmoqda.

**Diniy tashkilotlar ustidan nazorat o‘rnatishga qaratilgan amaliyot.** Misr hukumati umummilliy strategiyaga binoan diniy va siyosiy zo‘ravonlikka chek qo‘ymoqda. Bu dasturning asosiy maqsadi – diniy radikalizmning ijtimoiy-iqtisodiy zaminini yo‘q qilish va yoshlarga tayanishdan mahrum etishdan iborat bo‘lib, siyosiy, axborot, diniy, madaniy va yoshlar muassasalarining har tomonlama va o‘zaro hamkorlikdagi ta’sirini kuchaytirishga asoslangan.

Davlat o‘rta va oliy o‘quv yurtlariga alohida e’tibor berish, diniy dasturlar va fanlarning o‘qitilishini qattiq nazorat qilish orqali islom tashkilotlarining universitetlar, talabalar va kasaba uyushmalari ichidagi ta’sirini jiddiy kamaytirishga erishdi.

Misrda terrorizmga qarshi kurash strategiyasi doirasida Vaqf vazirligi, al-Azhar universiteti, Muftiyat va Misr xristian cherkovi kabi tashkilotlarga ham alohida mas’uliyat yuklatilgan. Davlat islomchilarning radikal g‘oyalarining asossizligini ko‘rsatish, tarqalishining oldini olishda sof islomga da’vat qiluvchi, radio va televideniyeda tashkil etilayotgan diniy seminar va munozaralarda faol qatnashayotgan, xalq orasida mashhur diniy ulamolarning chiqishlaridan ham unumli foydalanmoqda.

Hozirgi kunda «xususiy» yoki «xalq masjidlari» deb ataladigan masjidlarning faoliyati va siyosiy faolligi kuchaygani tufayli davlat tomonidan ularning faoliyatini nazorat qilishni bosqichma-bosqich Vaqf vazirligiga o‘tkazila boshlashi barobarida ularga al-Azhar universitetini bitirganlarni imom qilib tayinlash, qishloqlardagi Qur’onni o‘rganish markazlarida savodsizlikni tugatishni targ‘ib qilish ham davlatning din sohasidagi siyosatining uzviy qismiga aylandi.

Davlat dasturiga ko‘ra, barcha masjidlar Vaqf vazirligi qaramog‘iga o‘tkazilishi lozim. Bu tadbirlar ko‘plab xususiy masjidlarni nazorat qiladigan va shu yerda yangi a‘zolarni jalb qiladigan radikal islom tashkilotlari va guruhlarining ta’sirini kamaytirishga qaratilgan.

Uning yana bir maqsadi jamiyatning chalasavod, o‘rta va quiy tabaqalarini radikal diniy g‘oyalar ta’siridan himoya qilishdan iborat. Bundan tashqari, mazkur jarayon juma namozida o‘qiladigan ma‘ruzalar, ularning mazmunan bir xillagini ta’minlash orqali nazorat qilinayotganini ham ta’kidlash zarur. Biroq ushbu tadbirlarni moliyaviy ta’minlash va al-Azhar universitetini bitirgan yuqori malakali diniy xodimlarning yetishmasligi bilan bog‘liq bir qator sabab va qiyinchiliklar bu siyosatning samaradorligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, zakot qo‘mitalari, xususiy ehsonlar hisobiga moddiy ta’milanadigan va aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan masjidlarning katta qismini nazorat qilish ham muayyan qiyinchiliklarni tug‘dirmoqda.

Umuman olganda, 1990-yillarda diniy tashkilotlar ustidan davlat nazorati kuchaydi, deb aytish mumkin. Bu, xusan, mamlakat rahbariyati tomonidan diniy sohada qabul qilingan qator qonun hujjatlarida ham yaqqol ko‘rinadi. Masalan, Prezidentning 280-sonli farmoniga ko‘ra, 1993-yildan al-Azhar oliy shayxi Misr bosh vaziriga bo‘ysunadi hamda o‘zining moliyaviy va boshqa huquqlari bo‘yicha u bilan tenglashtirilgan. Misr Prezidenti al-Azhar shayxini shaxsan o‘zi tayinlaydi. Masjidlar va imomlar

faoliyati «Masjidlar faoliyati to'g'risida»gi qonun bilan belgilanadi. Unga ko'ra, xutbalar va diniy fanlarni o'qitishni litsenziyalash majburiy hisoblanib, zakot yig'ish nazorat ostiga olingan.

**Terrorizmni oziqlantirayotgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni bartaraf etish.** Terrorchi tashkilotlar a'zolaringin mutlaq ko'pchiligini jamiyatdagi o'rni va mavqeini aniqlab belgilab ololmagan (marginallashgan) ijtimoiy qatlamlarga mansub 16–30 yashar yoshlari tashkil qiladi. Shuning uchun ham, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida aholining qashshoqlashuviga terrorizmni oziqlantiruvchi omillardan biri sisatida qaralmoqda va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilmoqda. Ekstremistik g'oyalari yoyilishining oldini olishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Misr Arab Respublikasining bu sohadagi tajribasi alohida diqqatga sazovordir.

Iqtisodiy siyosat doirasida Misr hukumati va rahbariyati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining keskinligini pasaytirishga va 70 foizi qashshoqlikda yashayotgan aholining ahvolini yaxshilashga qaratilgan bir qator dasturlar va tadbirlarni amalga oshirmoqda<sup>33</sup>. Misr hukumati radikal islam tashkilotlarini qashshoqlik, ishsizlik, aholining tabaqalashuvi kabi asosiy tayanch nuqtalaridan va mazkur muammolar uchun javobgarlikni hozirgi hukumat bo'yning yuklash imkoniyatidan mahrum qilishga harakat qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat aholi uchun asosiy (non, un, shakar, o'simlik yog'i va shu kabi) oziq-ovqat mahsulotlari, neft mahsulotlari, elektr energiyasi, oylik maoshga qo'shimcha to'lovlar hamda suvdan bepul foydalanish kabilarni dotatsiyalash(davlat tomonidan moliyaviy ko'maklashish)da davom etmoqda. Shuningdek, Misr hukumati uyjoy, olyi ma'lumot olish, dori-darmonlarga ham o'rtacha narxni saqlab turishga harakat qilmoqda.

Imtiyozli tibbiy xizmat va dori-darmon bilan ta'minlash, bepul maktab ta'limi kabilarni o'z ichiga olgan ijtimoiy dotatsiya va imtiyozlar tizimi ham rivojlantirib borilmoqda.

Umuman olganda, ko'rilgan bu choralar nisbatan bo'lsa-da, ijtimoiy adolatni va mamlakat aholisining quyi tabaqasiga yashash uchun zaruriy mablag'ning eng kam miqdorini ta'minlashga qaratilgan.

Diniy ekstremizmga qarshi kurashning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan boshqa iqtisodiy choralar qatoriga 1997-yilda qabul qilingan «Yerni ijaraga olish to'g'risida»gi qonunni ham kiritish mumkin. Mazkur qonun mavjud sulolalar va oilalarning ta'sir quvvatini

<sup>33</sup> Vizarat ad-Daxiliya al-Misriya. Mubarak va Amn Misr. Al-Qohira. Matabiu dar al-Xilal, 1997.

pasaytirish barobarida hukumatning falloh (dehqon)larning ichki migratsiyasini ta'minlashga qaratilgan hukumat rejasini amalga oshirish uchun yo'l ochadi.

Sulolaviy aloqalarning susayishi esa, o'z navbatida radikal islom tashkilotlarining qishloq joylari dagi mavqeini yo'qqa chiqaradi. Shu yo'l bilan, mazkur qonun joylardagi keskinlik va ishsizlikning pasayishiga olib keladi.

**Xalqaro maydondagi harakatlar.** Misr BMT boshchiligidagi terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferensiya chaqirish taklifini ilgari surish, 1995-yilda Qohirada bo'lgan «Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash» konferensiyasida yoki 1996-yilda Sharm ash-Shayx shahrida bo'lib o'tgan «Tinchlikparvarlar konferensiyasi» va har yili terrorizmga qarshi kurash bo'yicha o'tkaziladigan seminarlarda bo'layotgani kabi bu masalani turli xalqaro forumlarda ko'tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmoqda.

Shuningdek, radikal kayfiyatdagagi islomchilar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, shunday kelishuvga ko'ra 1994–1995-yillarda Misr arab davlatlarida yashagan 6 ta terrorchini mamlakatga qaytarishga muvaffaq bo'ldi.

Arab davlatlari o'rtasida xavfsizlik sohasidagi siyosatni tartibga solish va terrorizm muammosini arab davlatlari Ichki ishlar vazirlari majlislarining dolzarb mavzusiga aylantirish yo'lidagi harakatlar ham shu yo'nalishdagi ishlarning uzviy qismi hisoblanadi.

Ayni paytda, Misrga terrorchi va mutaassib unsurlarning kirib kelishi, qurol va pul olib kirilishining oldini olish uchun nazorat o'tkazuv-bo'limlari va chegaralar nazorati faoliyatini kuchaytirilmoqda.

Shu bilan birga, radikal islom tashkilotlari va guruhlari yetakchilari harakatlarini muntazam asosda kuzatib borish, ular joylashgan davlatni bu haqda ogohlantirish kabi yo'nalishda ham ish olib borilmoqda. Masalaning bu jihatni Misr uchun nihoyatda muhimdir. Zero, 1990-yillarning boshlarida Afg'oniston va Pokistonda «Musulmon birodarlar», «Al-Jihod al-Islomiya» va «Al-Jamo'a al-Islomiya» kabi Misr islomiy tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan 20 ga yaqin lagerlar faoliyat olib borgan edi. U yerdan qaytib kelgan jangarilar radikal islom tashkilotlariga qo'shilib, fuqarolar va mamlakat uchun xavf-xatarning ortishiga olib kelar edi.

Ammo qidirilayotgan terrorchi unsurlar yashiringan xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan muzokaralar har doim ham ijobjiy natijalar bermayotganini ta'kidlash zarur. Ayrim Yevropa mamlakat-

lari demokratik tamoyil va erkinliklarga rioya etish bayrog'i ostida islomchilarga siyosiy boshpana berib, yig'ilishlar o'tkazish va faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratib bermoqda.

Xalqaro maydonda islomchilarga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida bunday unsurlar yashirinib yurgan mamlakatlarda joylashgan Misr elchixonalari qoshida politsiya bo'limlari tashkil etilganini alohida qayd etish lozim.

Misr hukumati tomonidan axborot sohasida olib borilayotgan faoliyat natijasida fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlari bilan jihozlangan xavfsizlik apparatining axborot markazi tashkil etildi. Misr Prezidenti tomonidan e'lon qilingan umumiy strategiyaga ko'ra, hukumat terrorizm ko'rinishlarini butunlay yo'q qilmoqchi. Bu strategiya siyosiy, axborot, diniy, madaniy va yoshlar muassasalarining faoliyatini har tomonlama muvofiqlashtirishga qaratilgan.

1990-yillarning boshlarida ko'tarilgan va zo'ravonliklar zanjirini vujudga keltirgan islom ekstremizmi to'lqini bugungi kunda birmuncha susaygandek tuyulsa-da, hamon diniy radikalizm real xavf sifatida saqlanib qolmoqda. Xususan, radikal islom tashkilotlari tomonidan aholi o'rtasida, ayniqsa, uning chalasavod qatlami orasida millatlararo va dinlararo kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlari davom ettirilayotganini ta'kidlash zarur.

Umumiy xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, terrorizmga qarshi kurashning xorijiy tajribasi keng qamrovli hodisa bo'lib, uni o'rganish, ibratli jihatlarini o'zlashtirish hamda hayotga tatbiq etish mavjud davlatlarning barchasi uchun bir xilda foydali va shuning uchun ham, muhim ahamiyatga egadir.

## **VII bob. MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DINIY EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR**

**Diniy ekstremizm va terrorizmning mintaqada namoyon bo‘li-shining o‘ziga xos xususiyatlari.** Ma’lumki, XXI asr ibtidosida jamiyat barqarorligi, xavfsizligiga tahdidlar majmuasida mafkuraviy tahdidning tarkibiy qismiga aylangan diniy ekstremizm bosh omil va keng qo‘llanilayotgan uslub sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Diniy ekstremizmning Afg‘onistondagi o‘choqlari asosan yo‘q qilingan bo‘lsa-da, xavf hamon saqlanib qolmoqda. Ma’lum doiralar bizga qo‘shni bo‘lgan ayrim davlatlarda o‘z «uyalarini» yaratishga urinmoqdalar.

Umuman Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O‘zbekistonda bunday tahdidning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo‘ldi:

— «perestroyka» davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz, balki mafkuraviy parokandalik ham yuzaga kelgan edi. Sovet imperiyasi barbod bo‘lgach esa, mafkuraviy bo‘shliq o‘zining xatarli oqibatlarini namoyon qildi;

— sho‘ro davrida shakllangan SADUM (O‘rtal Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi) o‘zgargan vaziyatga moslasha olmadı. Unga yangicha mazmun-mohiyat bag‘ishlash yo‘lidagi urinishlar besamar ketdi. Oxir-oqibatda SADUM parchalanib ketdi va diniy idoralar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari deyarli barham topdi;

— e’tiborli diniy ulamolar o‘rnini soxta «islomchilar» egallahga intilishlari va ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilinishi boshlandi;

— aholining islom diniga bo‘lgan katta qiziqishidan foydalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirildi;

— din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davatlarning g‘arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasi o‘laroq shakllangan, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlagan turli oqim va yo‘nalishlarga mansub xorijiy da‘vatchilar mintaqaga o‘z g‘oyalarini olib kira boshladilar;

— mintqa davatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, quroq-yarog‘larning noqonuniy savdosи orqali moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintqa bo‘ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Qisqa qilib aytganda, sho‘ro davridan meros bo‘lib qolgan og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuki yuqorida qayd etilgan sabablar bilan qo‘shilib diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faollashuviga qulay sharoit yaratdi.

Umuman olganda esa, diniy ekstremizm mintaqada yashirin, ammo nisbatan passiv, keyinroq ochiq-oshkora tashviqot va zo'ravonlikka asoslangan faol harakatlar, so'ng unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yana o'ta maxfiy ishlash asnosida targ'ibot olib borish va aniq qo'poruvchilik xurujlarini sodir etishdek sifatiy bosqichlarni bosib o'tdi, deyish mumkin.

**Diniy ekstremistik oqimlarning g'arazli maqsadlari.** Barcha islomiy diniy-ekstremistik harakatlar o'z oldiga tinch-osoyishta davlatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatni inqirozga keltirish yo'li bilan hokimiyatni egallash va o'z hokimiyatini o'rnatish maqsadini qo'yadilar. Ammo unga erishishda har bir diniy ekstremistik harakat, tashkilotda o'ziga xos yo'l va uslublardan foydalanadi. Xususan, «Hizbut-tahrir» avvalo, islam niqobi ostida ekstremistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan tushuntirish ishlarini olib boradi. Bunda hizbchi har bir shaxsning fikrlash doirasiga qarab o'z ta'limotiga da'vat etadi.

Qolaversa, jamiyatda sodir bo'layotgan u yoki bu shakldagi qiyinchiliklar, turli tabiiy ofatlardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanib, agar islomning sahih hukmlari bo'lganda edi, bunday hodisalar ro'y bermas edi, qabilidagi fikrlar bilan g'arazli niyatlarini amalga oshirishga intiladilar. Boshqacha aytganda, ularning nazdida hujum fikrga qaratilmog'i lozim. Bu hujum fikriy kurashga, fikriy kurash, o'z navbatida, fikriy inqilobga olib borishi kerak. Fikriy inqilobning orqasidan esa siyosiy inqilob sodir bo'ladi. Mazkur vazifani ado etgan avlodning o'zi hokimiyat tepasiga keladi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkilot 1989-yildan boshlab «al-Va'y» («Ong») nomli oylik nashrini turli tillardagi tarjimasi bilan davomiy chiqarib kelmoqda. Xususan, mazkur nashrning o'zbek tilidagi 140 dan oshiq soni mamlakatimizda maxfiy ravishda tarqatilgani ma'lum.

Ayni paytda, «Hizbut-tahrir» kurashni **uch bosqichda** olib borishni ko'zlaydi. Ulardan **birinchisi** «tasqif» – tushuntirish ishlari bosqichidir. Unda hali ongi to'liq shakllanmagan, fikri zaif, ta'sirga beriluvchan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralaridagi mas'ul shaxslarni o'z tarafiga og'dirishdek maqsadlarga erishish ko'zlanadi.

**Ikkinci** – «tafoul» – birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali «Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishishi» yo'lida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi.

**Uchinchi** – «inqilob» – to'ntarish bosqichida esa, tarbiyalangan ummat orqali hokimiyatni qo'lga kiritish mo'ljallanadi.

Yuqoridagilardan «Hizbut-tahrir» ham boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab,

hokimiyat tepasiga kelishga intilishi, yagona xalifalik davlatini qurish, uning asosiy va so'nggi maqsadi ekani ochiq-oydin ko'rinish turibdi. Shuning uchun ham, «Hizbut-tahrir»ning rasmiy faoliyat ko'rsatishi deyarli barcha musulmon mamlakatlari, jumladan, arab davlatlarida rasman taqiqlangan.

Respublikamizda faoliyat yuritishga intilayotgan boshqa oqimlarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari ham yuqoridagidan deyarli farq qilmaydi. Masalan, «vahhobiylik»ning maqsadi diniy holatni payg'ambar davridagi ko'rinishga qaytarish, ya'ni, din, musulmonchilik o'sha davrda qay holatda bo'lgan bo'lsa, bugun ham shunday qolishi kerak, degan da'voda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday tuzum bugun qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini «Tolibon» harakati Afg'onistonda olib borgan siyosati va uning oqibatlari ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

**Diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyati.** Mintaqamizda faoliyat yuritishga intilgan uyushmalar qatorida eng avvalo «Islom lashkarları», «Adolat», «Tablig'chilar», «Akromiylik», «O'zbekiston islomiy harakati» kabilarni aytib o'tish mumkin. Ularning ba'zilari butunlay yo'q qilingan bo'lsa, ayrimlarining qoldiqlari bugungi kunda boshqa harakat, tashkilotlar tarkibiga singib ketganini ta'kidlash zarur. Xususan, 1990–1992-yillarda Namangan viloyatida «Adolat» harakati faollari 20–30 kishidan iborat guruqlar tuzib, huquq-tartibot idoralarini vazifalarini o'z zimmalariga olishga harakat qildilar. Odamlarni asossiz ravishda u yoki bu jinoyatlarda ayplash, shariat qoidalariga asoslangan holda kishilarni gunohkor deb e'lon qilish orqali turli jazolarni qo'llashga harakat qilgan mazkur uyushma faoliyati 1992-yil aprel oyining oxirlarida butunlay tugatildi.

1996-yilda tashkil topgan «O'zbekiston islom harakati» («O'IH») tarkibiga 1992–1993-yillarda faoliyati tugatilgan qator diniy-ekstremistik tashkilotlarning sobiq faollari kirgan, O'IH a'zolari Birlashgan tojik muxolafati (BTM) tarafida fuqarolar urushida ishtirok etdi. O'IH dala qo'mondonlari nizo hal qilinishi jarayonida Tojikiston hukumati va BTM o'rtasida imzolagan bitim shartlarini bajarishdan bosh tortdilar va ular Tojikistonni tark etib, Afg'oniston hududiga o'tib ketdilar.

Jahoning qator mamlakatlarda O'IH rasmiy ravishda terrorchilik tashkiloti deb tan olingan. Chunonchi, u AQSH davlat departamenti tomonidan tayyorlangan va Kongress tasdiqlagan xorijiy terrorchilik tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan. Shundan kelib chiqib, tashkilotning aniqlangan barcha moliyaviy hisoblari «muzlatilgan». Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi va Bosh prokururaturasi ham o'zining 2003-yil 14-fevraldag'i qarori bilan uni terrorchilik tashkiloti sifatida e'tirof etgan.

Harakat Markaziy Osiyo hududida «Buyuk islom xalifaligi»ni tiklashni, unga musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya

Federatsiyasining Volgabo‘yi respublikalarini ham qamrab olish maqsadini ilgari suradi. Unga erishishda qo‘poruvchilik, terrorchilik harakatlarini amalga oshirish, harbiy harakatlar uyuştirish, odamlarni garovga olish orqali O‘zbekistondagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish asosiy vazifa qilib belgilangan.

2001-yilda terrorizmga qarshi ittifoqning Afg‘onistonda boshlagan jangovar amaliyotlari natijasida O‘IH ning asosiy kuchlari va bazalari yo‘q qilindi. Harakat tuzilmasi butunlay barbod qilindi hamda uning jangovarlik qobiliyati susaytirildi.

**Nurchilar.** Asoschisi turkiyalik Sayyid Nursiy Badiuzzamon bo‘lgan mazkur tashkilotning asl maqsadi — mayjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o‘ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Oqim vakillari o‘zlariga yangi a‘zoni jalb etishda birinchi navbatda, nurchilar jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq degan fikrni singdirishga harakat qiladilar. Aslida bu bir niqob bo‘lib, ularning faoliyati negizida aynan siyosatga aralashuv yotadi.

Hozirgi kunda «Nurchilik» harakati Turkiyadagi eng nufuzli oqimlardan biri bo‘lib, ta’lim sohasida Turkiya milliy ta’lim vazirligidan keyingi mavqeni egallaydi. Harakat ta’lim sohasi bilan birga, mamlakatdagi OAV hayotida ham kuchli mavqega ega bo‘lib, turk va ingлиз tilida chiquvchi 14 ta jurnal, «Zamon» kundalik ro‘znomasi, «Somon yo‘li» televizion kanali va 2 ta radiostansiya faoliyatini nazorat qilib boradi.

Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g‘oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma‘naviy ko‘magida yetkazilgan. Respublikamizda nurchilar yig‘iladigan manzillar aniqlanib, lozim bo‘lgan choralar ko‘rilgan. Ayni damda ular maxfiy tarzda harakat olib borishga urinmoqdalar.

«Nurchilik» harakati saflarining asosini yoshlar tashkil etadi, harakat tomonidan chop etilgan da‘vat varaqalarini tarqatish yo‘li bilan ularning saflari kengaymoqda. Mazkur oqim a‘zolari Hindiston, Pokiston va Malayziya mamlakatlarida ham paydo bo‘lgan. Shuningdek, Amerikada tahsil oluvchi turk talabalari orasida nurchilar da‘vatiga ergashuvchilar borligi sababli bu harakat AQSH hududida ham tarqalmoqda.

**«Xalifalik» tushunchasi.** «Hizbut-tahrir» kitoblarining asosiy mavzusi «xi洛fat» (xalifa saylash) masalasi bo‘lib, ularda «Hozirgi kunda musulmonlarning zimmalaridagi dolzarb vazifa xalifa saylashdir, toki ular bu ishni ado etmas ekanlar, ularning boshqa ibodatlari befoydadir», degan g‘oya targ‘ib qilinadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda bu da‘voning asossiz va noto‘g‘ri ekanini anglab olish nihoyatda muhim. Ular odatda o‘z qarashlarini asoslash uchun payg‘ambarimizning «Kimki imomsiz, ya’ni xalifasiz hayotdan o‘tsa, u johiliyat zamonida o‘tganlardek o‘libdi», — degan hadislarini hujjat-dalil sifatida keltiradilar.

Ushbu hadisning tarixi va mazmun-mohiyatini «bilmaslikka» olib, o‘z yo‘llariga yurmaganlarning barchasini kufrga hukm qilladilar. Shunday ekan, «xalifa»ning ma’nosini va qanday shaxs xalifalikka loyiqligini anglab olish bu hadisda ular uchun hech qanday hujjat yo‘qligini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng avvalo, yuqoridagi hadis barcha zamonlardagi insonlarga taalluqli emas; balki musulmonlarning ustilarida xalifa mavjud bo‘lib, unga itoat qilishga bay’at qilmagan kishilargagina xosdir. Aks holda necha asrlardan beri kelayotgan musulmonlar va ular orasidagi ulamolar, xudoning xos bandalari barchasi johiliyatda o‘lganlari haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Payg‘ambarimizning quyidagi hadislari ularning bu da’volari o‘rinsiz ekaniga dalil bo‘ladi: «Mendan keyin xalifalik o‘ttiz yil bo‘ladi, undan keyin tishlab tortilgan amirlik va podshohliklarga aylanadi». Bu hadis mo‘jiza sifatida aytilgan hadis edi. Vafotlaridan keyin xalifalik qilgan Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning xalifalik muddatlarini bir-biriga qo‘sksak, yigirma to‘qqiz yarim yil bo‘ladi. Hazrati Alining katta o‘g‘li Imam Hasan olti oy xalifalik qilgan. Shu bilan o‘ttiz yil komil bo‘lgan.

Hadisdagi «...undan keyin tishlab tortilgan amirlik va podshohliklarga aylanadi», degan gapning ma’nosи shuki, Shom (Suriya)da xalifalik qilgan Muoviya ibn Abu Sufyon o‘z o‘rniga tentak sifat o‘g‘li Yazid ibn Muoviyani xalifa qilib qoldirmoqchi bo‘ladi. Ya’ni, bu paytga kelib odamlar hokimiyatga tish-tirmog‘i bilan yopisha boshlagan edi, tentak bo‘lsa ham o‘rnimga o‘g‘lim qolsin, boshqa kishi hokimiyat tepasiga kelmasin, deyila boshlagan edi.

«Hizb»chilar, shuningdek, ular islomiy da’vatni butun olamga yoyish lozim, degan asossiz da’voni ilgari suradilar. Zero, islom ta‘limoti Yer yuzining deyarli barcha joyiga yetib borgani isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bordiyu, uni yetkazish zarurati tug‘ilsa, bu ish hizbchilar qilayotgani kabi turli portlashlarni amalga oshirish, begunohlarni o‘ldirish yo‘li bilan emas, tinchlik yo‘li bilan, o‘z xulqu odobimizni namuna qilib ko‘rsatish, islomning insonlarga foyda ekanini o‘rgatish yo‘li bilan amalga oshirilmog‘i lozim.

«Hizbut-tahrir» partiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan ulamolar islom dunyosida juda ozchilikni tashkil etadi. Aksincha, uni inkor etadiganlar son-sanoqsiz. Bu partyaning g‘oyasi va dasturi hanuzgacha dunyoning birorta mamlakatida ma’qullanmagan. Uning o‘zi rasmiy tashkilot sifatida tan olinmagan, balki ilk ta’sis topgan maskanidan tortib, dunyo mamlakatlarining hammasida uning faoliyati taqiqlangan. Islomda esa, ozchilikning emas, ko‘pchilikning fikriga qo‘shilishga buyurilgan. «Mening ummatim yoppasiga adashib, zalolatga tushib qolmaydi, qachonki, ular orasida qarama-qarshilikni ko‘rsalaringiz, sizlar ko‘pchilik tomonida bo‘lingiz!», — degan sahih hadis ham fikrimiz dalili bo‘la oladi. Demak, payg‘ambarimizning ushbu vasiyatlariga qaraganda, zamonamiz mu-

sulmonlari ozchilikni tashkil etuvchi hizbchilarga emas, ularning g'oyasiga qo'shilmay kelayotgan ko'pchilik ulamolarning safida bo'lishlari kerak.

**Yoshlar va xotin-qizlar orasida ekstremistik g'oyalarning tarqalish sabablari.** Keyingi paytlarda turli terrorchilik harakatlarini sodir etish ishlariga ayollar ham aralashib qolmoqdalar. Bellariga portlovchi moddalar bog'lab, o'zini nobud qilayotgan ayollar soni ortib bormoqda. Bu kabi ishlarga qo'l urishlari, o'z jonlariga qasd qilishlari, umuman, terrorizm yo'liga kirib qolishlarining asosiy sababi, ularning na diniy, na dunyoviy bilimga ega emasliklari, turli oqimlarga nisbatan sof islam dinining munosabatini bilmasliklaridir.

Ba'zi kishilar ayollarning terror yo'liga kirib qolishlarini moddiy qiyinchilik, oiladagi yetishmovchilik, ishsizlik, kam ta'minlanganlik, alamzadalik, siyosatdan norozilik kabi qator ijtimoiy holatlar bilan bog'lashga intiladilar.

Aslida esa, ekstremistlar ayollarning turli oqimlarga kirib, o'zlarini o'ldirish darajasigacha borishlarida ularning ma'naviy-ruhiy olamiga xos xususiyatlardan ustalik bilan foydalanayotganliklarini ko'rish mumkin. Xususan, ma'lumotlar Falastin va Kavkazda aldab yoki zo'r lab nomusiga tegish orqali uni ma'naviy-ruhiy jihatdan boshi berk ko'chaga kiritib qo'yish, so'ng esa bu gunohni yuvish yo'li sifatida «shahidlik»ni taklif etish va asta-sekin o'z-o'zini portlatishga tayyorlash usulidan keng foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Amaliyot, ayni paytda, xotin-qizlar aka-ukalarning ta'sirida ham bunday harakatlarni sodir etish darajasiga kelganliklarini ko'rsatadi. Jumladan, erkaklar o'zining diniy ilmlardan bexabar, har ishda itoatkor ayoliga turli oyat-hadislarni noto'g'ri talqinda tushuntirishi, qo'poruvchilik harakati uchun jannat bilan mukofotlanishini va'da qilishi, ayolning jannatga kirishi ernenigina bog'liqligini doimiy uqtirishi oqibatida ayollarning o'zini va begunoh kishilarni o'ldirib, jinoyatga qo'l urishlari aniqlangan.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafli ishga qo'l urgan bo'lsan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», — degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Yoshlar va ayollar o'zlariga xos bo'lgan yuqoridaq kabi ruhiy xususiyatlarni yaxshi biladigan va o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida

ustalik bilan foydalanayotgan, xalifalik tuzsak barcha muammolarimiz hal bo‘ladi deb yurgan hizbchilarning safsatalariga uchib, aldanib qolmoqdalar. «Al-Va'y» («Ong») kabi manbalarda chop etilayotgan turli fatvolarga ishonib, o‘zlarini portlatib, «shahid» bo‘ldim, deb hisoblamoqdalar. Bu kabi harakatlarning mutlaqo noto‘g‘ri ekani «shahid» atamasining mazmuni izohida yanada oydinlashadi.

**«Shahid» tushunchasi.** Islom ta’limoti bo‘yicha shahidlik oliy maqom sanalib, uni musulmonlarni qirib tashlash niyatida ularga qarshi e’lon qilingan kurashda dinni himoya qilish, uni saqlab qolish yo‘lida halok bo‘lgan kishiga beriladi. Xuddi shu yo‘lda halok bo‘lganlarni oxirat shahidi deyiladi. Ular yuvilmaydi, o‘z kiyimida, kafanlanmay, janzoza o‘qilmay dafn qilinadi. Yuvilmasligining sababi shuki, ularning badanlaridan oqqan qonlari qiyomatda mushki anbarga aylanib, xushbo‘y hid taratadi. Janzoza o‘qilmasligi esa, Alloh ularning barcha gunohlarini mag‘firat qiladi. Janzoza o‘qishdan maqsad — ko‘pchilik bo‘lib uning gunohini Allohdan so‘rashdan iborat.

Shuningdek, bir kishi biror falokat tufayli halok bo‘lsa, Payg‘ambarimiz hadislariga binoan uni dunyo shahidi deb ataladi. Abu Hurayra rivoyatiga ko‘ra, «Shahidlar besh xil bo‘ladilar: vabodan, ichketar kasalidan o‘lganlar shahiddir, suvgaga g‘arq bo‘lgan, imorat yoki devor bosib o‘lganlar va Alloh yo‘lida jon bergenlar shahiddir».

Abu Hurayra rivoyat qilgan boshqa bir hadisda yana shunday deyiladi: Bir kuni Rasululloh (s.a.v.) bizlardan «Kimlarni shahidlar deb hisoblaysizlar? — deb so‘radilar. Biz: «Alloh yo‘lida o‘lganlarni shahid deb bilamiz», — deb javob berdik. Unday bo‘lsa, mening ummatimdan shahidlar juda kam bo‘lar ekan, deb javob berdilar Payg‘ambar. Unda yana kimlarni shahid deb bilaylik, yo Rasululloh? deb so‘radik. U kishi: «Kimki Alloh yo‘lida o‘ldirilgan bo‘lsa, u shahiddir. Kimki Alloh yo‘lida o‘lgan bo‘lsa, u shahiddir. Kimki vabodan o‘lgan bo‘lsa, u shahiddir. Kimki ichketar kasalidan o‘lgan bo‘lsa, u shahiddir va suvgaga cho‘kib o‘lgan kishi shahiddir», deb javob berdilar».

Hidisda zikr qilingan «Alloh yo‘lida o‘ldirilgan yoki Alloh yo‘lida o‘lgan kishi»gina oxirat shahidi, qolganlari dunyo shahidi hisoblanadi.

Keyingi paytlarda shahidlik tushunchasi noto‘g‘ri talqin qilinmoqda. O‘zingni portlatsang shahid bo‘lsan, degan fatvolar e’lon qilinmoqda. Albatta, bu fatvolarni e’lon qiluvchilar ongi va bilim saviyasi zaif kishilar qo‘li bilan o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga yetishni ko‘zlagan kishilar ekani hammaga ma‘lum.

Qur‘oni karimda o‘z joniga qasd qilish eng katta gunohlardan ekani ta’kidlangan: «...o‘z qo‘llaringiz bilan o‘zlarining halokatga tashlamangiz! (Barcha ishlarni) chiroyli qilingiz. Albatta, Alloh chiroyli (ish) qiluvchilarni yaxshi ko‘radi» («Baqara», 195).

Kim bo‘lishidan qat’i nazar, begunoh kishilarni halok etish ulkan gunoh ekani haqida quyidagi oyat xabar beradi: «Biror jonni o‘ldirmagan yoki Yerda (buzg‘unchilik va qaroqchilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni o‘ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o‘ldirgan kabidir («Moida», 32).

Abu Hurayra rivoyat qilgan hadisi sharifda esa o‘zini o‘ldirgan kishining jazosi yanada ravshanroq yoritilgan: «Kim o‘zini bir temir parchasi bilan o‘ldirsa, qiyomat kunida jahannam o‘tida temir parchasi qo‘lida, abadiy ravishda u bilan o‘zini o‘ldirib azoblanib yotadi. Kim zahar ichib o‘zini o‘ldirsa, doimiy ravishda zaharlanib jahannam o‘tida azoblanadi. Kim o‘zini tog‘dan tashlab yuborsa, doimiy ravishda jahannam o‘tida o‘zini tog‘dan tashlab o‘ldirib azoblanadi».

Shunday ekan, islom ta’limotiga binoan, o‘zini o‘zi o‘ldirgan kishi shahid emas, balki do‘zaxiy bo‘lib qolishini, qaysi usulda, nima yordamida o‘ldirgan bo‘lishidan qat’i nazar, dinimiz uni og‘ir jazolar belgilanadigan gunohi azim deb hisoblashini hech qachon yoddan chiqarmaslik zarur.

**Jaholatga qarshi ma’rifat.** Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham begunoh kishilarning qoni to‘kilishi, obod joylar vayron bo‘lishi, aholi o‘rtasida vahima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo‘lganlarga qarshi qat’iy kurash olib borilmoqda. Bu kurashning mohiyati jumladan, Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», — degan g‘oyada ham o‘z ifodasini topgan.

Xo‘sh, jaholatning o‘zi nima? U qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda? Jaholat — arabcha «jahila» fe’lining o‘zagi bo‘lib, bilmaslik ma’nosini anglatadi. Islom dinidan oldingi davrni «johiliyat davri» deb atalishining sababi ham shunda. Kishilar bilimsizligi, johilligi tufayli qiz bolalarni tiriklay ko‘mganlar, ayollarni odam o‘rnida ko‘rmaganlar, ularning hech qanday haq-huquqlari bo‘lmasligi, jamiyat shirk botqog‘iga botgan zamon bo‘lgan. Islom dini kelgach, jaholat o‘rnini ma’rifat egalladi. U ayol-qizlar sha’nini ko‘klarga ko‘tardi, uch qiz tarbiyalab, ularni turmushga bergen ona jannatiy bo‘lishi, jannat onalar oyog‘i ostida ekanini baralla aytди. Kishilar ma’rifatli bo‘la boshladilar.

Afsuski, bugungi kunda ham jaholat turli ko‘rinishlarda o‘zligini namoyon qilmoqda. Shulardan biri, diniy bilimsizlikdir. Diniy savodxonligi pastroq bo‘lgan kishilar o‘zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko‘rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallahni maqsad qilib qo‘ygan turli oqim vakillarining quruq va’dalariga aldanib qolmoqdalar, hatto, o‘zlarini qurban qilishgacha yetib bormoqdalar.

Bunday mudhish oqibatlarni keltirib chiqaruvchi bilimsizlikning oldini olishga davlatimiz katta e'tibor qaratayotganini ta'kidlash zarur. Haqiqiy diniy bilim olaman deganlarga keng imkoniyatlar yaratilgani — madrasalar, Toshkent islom oliy ma'hadi va Toshkent islom universiteti kabi o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatayotgani ham jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish borasida aniq amaliy ishlar qilinganining yorqin ifodasıdir.

Johillik ham mutaassib oqimlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardandir. Respublikamiz hududiga yashirin tarzda olib kirilayotgan ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, tarqatilayotgan varaqalardan ta'sirlanayotgan va to'g'ri yo'lidan adashayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi.

Buning oldini olish maqsadida joylarda ekstremistik oqimlarning g'arazli maqsadlarini tushuntirishga bag'ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlari o'tkazilmoqda, teleko'rsatuvarlar, radioeshittirishlar berib borilmoqda. Fuqarolarimizning ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish uchun qilayotgan ishlarmizni yanada takomillashtirish talab etiladi.

O'zini portlatish orqali begunoh kishilarning halok bo'lishiga, qanchadan-qancha bolalarning yetimga aylanishiga sabab bo'ladigan jafokorlik ham jaholatning o'ziga xos ko'rinishidir.

Bunday jafokorlik eng og'ir gunohlardan hisoblanadi. Qur'oni karimning «Kimdakim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g'azab qilgay, la'natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo'ygay», — degan oyati ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Qayd etilganlar ham jaholat og'ir oqibatlarni keltirib chiqarishini ko'rsatadi. Shunday ekan, odamlar ongi va qalbida ma'rifatning mutlaq ustuvor bo'lishiga erishish, kishilar tafakkurini boyitish, ularda sog'lom va sobit e'tiqodni shakllantirish uchun kurash, bu yo'ladi nazariy va amaliy ishlarning hozirjavobligini ta'minlash, ta'sirchanligini oshirish dolzarb vazifalardan bo'lib qolaveradi. Zero, Yurtboshimiz o'rinchil ta'kidlaganlaridek, odamning o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlar, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lishi har turli mafkuralarning bosimi, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishining asosiy sharti hisoblanadi.

## **VIII bob. DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING XALQARO SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik.**

Xalqaro terrorizm – eng og‘ir jinoyat bo‘lib, u uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Unga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934-yilda Madridda bo‘lib o‘tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag‘ishlangan konferensiya terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo‘q qilish maqsadida biror bir visitani qo‘llash» degan ma’nodagi ta’rifi qabul qilinishiga erishilgan edi.

1937-yilda 20 dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi. Unda terrorizm «davlatga qarshi qaratilgan, muayyan shaxslar yoki aholi o‘rtasida qo‘rquvni keltirib chiqarish maqsadini ko‘zlagan jinoiy faoliyat» deya ta’riflangan edi. Davlat boshliqlari, ularning huquqidan foydalanuvchi, ular tayinlagan yoki merosxo‘r bo‘lgan kishilar, qayd etilgan shaxslarning ayollari hayoti, sog‘lig‘i, ozodligiga tajovuz qilish, jamoat mulki yoki boshqa davlatning mulkiga zarar yetkazish, ommaviy xavf tug‘dirish bilan odamlarni halok qilish niyatini ko‘zlash, ko‘zlagan jinoyatlarini sodir etish maqsadida qurol-yarog‘ va portlovchi moddalar sotib olish, saqlash va yetkazib berish ana shunday jinoyat sirasiga kiritilgan edi.

Ayni paytda, terrorchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun 13 davlat suveren tenglikni chegaralovchi «Xalqaro jinoiy sudni tashkil etish» haqidagi Konvensiyani imzoladi. Shunday bo‘lsa-da, bu hujjalarda xalqaro terrorchilarni tutib berish masalasi umuman qo‘yilmagan, terrorizmning ta’rifi esa haddan tashqari kengayib ketgan edi. Yuqorida qabi qator kamchiliklari tufayli nomlari zikr qilingan konvensiyalar zarur miqdordagi ratifikatsiyalarni to‘play olmadni va kuchga kirmay qolib ketdi. Shunga qaramay, ular bu sohadagi davlatlararo hamkorlikka ozmi-ko‘pmi ijobjiy ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz, albatta. Chunki ularning asosiy qoidalaridan terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi milliy qonunlarni mukammallashtirishda foydalanildi.

1972-yilning may va sentabr oylarida sodir bo‘lgan voqealardan keyin xalqaro hamjamiyat bu dolzarb va xavfli hodisaga yana o‘z e’tiborini qaratdi. Terrorizm haqidagi umumiyl tushuncha va terrorchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni jazolash choralarini belgilab beruvchi

huquqiy aktlar ishlab chiqildi. O'nlab davlatlarda terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar imzolandi. Qurolli to'qnashuvlar vaqtida terrorchilik harakatlarini qo'llash xalqaro guumanitar huquq me'yorlariga, xususan, 1949-yilda imzolangan Urush paytida oddiy fuqarolarni himoya qilish haqidagi Jeneva Konvensiyasiga, 1977-yilda qabul qilingan Qo'shimcha protokollar qoidalariga ko'ra man etilgan.

Urushdan keyingi davr terrorchilik guruhlarining son va sifat jihatidan o'sishi bilan farqlanadi. Ularning ichida «Shtern», «Irgun» (Isroiil), «Yahudiylarni himoya qilish ligasi» (AQSH), «Tamil Ilam»ni ozod qiluvchi yo'lbarslar», «Baader-Maynxos», «Qora internatsional», «Butun dunyo natsional-sotsialistik ittifoqi», «Armanistonni ozod qilish maxfiy arman armiyasi» kabi uyushmalar ko'pchilikka ma'lum edi. Shuning-dek, hozirda dunyoning 60 ga yaqin mamlakatlarda shunday guruhlar mavjud. Jumladan, Yevropada ham «Qizil brigadalar» (Italiya), «Qizil Armiya fraksiyasi», «Jangari kommunistik guruhlar» (Belgiya), «Aksion direkt» (Fransiya), «ETA» (Ispaniya) kabi ko'p sonli terrorchilik uyushmalari faoliyat olib bormoqda.

Ayni paytda, terrorchilik nafaqat siyosiy, balki katta miqdorda pul talab qilish va boshqa oddiy jinoiy maqsadlarda ham amalga oshirila boshlaganini ta'kidlash zarur. Natijada, nafaqat xalqaro muhofazadan foydalanuvchilar, balki oddiy fuqarolar ham jabr ko'ra boshladi. Ularga, aholi zich yashaydigan joylar, aeroportlari, metro bekatlari, restoran va ibodatxonalarda amalga oshirilgan portlatishlarni kiritish mumkin.

Bunday jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda. Jumladan, BMT huzurida xalqaro terrorizm bo'yicha tashkil etilgan Maxsus qo'mita terrorizm sabablarini o'rganish, bartaraf qilish va unga qarshi kurash borasida davlatlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanmoqda.

1973-yilning dekabrida BMT Bosh Assambleyasi xalqaro muhofazadan foydalanadigan shaxslar, jumladan, diplomatik agentlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish va jazolash bo'yicha Konvensiyani qabul qildi. Uning 1-moddasiga muvofiq xorijiy mamlakatda bo'lib turgan davlat va hukumat boshliqlari, tashqi ishlar vaziri, ularga hamrohlik qilayotgan oila a'zolari; maxsus muhofaza huquqi bo'lgan davlat vakili yoki mansabdor shaxs; hukumatlararo xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsi yoki agenti va ular bilan birga yashovchi oila a'zolari xalqaro muhofazada bo'ladigan shaxslar qatoriga kiritilgan.

Odam o'ldirish, o'g'irlash yoki shaxs va uning erkinliklariga boshqa bir shaklda tajovuz qilish; erkinligi yoki shaxsiyatiga xavf tug'dirgan holda rasmiy idoralarga yoki shunday shaxslarning transport vositalariga

zo'ravonlik bilan bostirib kirish, egallab olish; tahdid, qasd qilish va shunga o'xhash bosqinchilikda ishtirok etishdek qasddan qilingan harakatlar esa xalqaro jinoyat sifatida e'tirof qilinadi.

Terrorchini o'z hududida qo'lga olgan davlat amaldagi qonunlariga ko'ra uni jinoiy javobgarlikka tortish yoki boshqa davlatga shu maqsadda tutib berish uchun zarur choralarни ko'radi. Ayni paytda, ko'rilgan choralar haqida manfaatdor davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarga ma'lum qiladi. Bunday jinoyatlar:

- jinoyat shu davlat hududida yoki shu davlatda ro'yxatga olingan transport vositasi (kema, samolyot va sh.k.) bortida amalga oshirilganda;

- gumon qilinayotgan jinoyatchi shu davlat fuqarosi bo'lganda;

- jinoyat shu davlat nomidan rasmiy vazifani bajarayotgan va xalqaro muhofazadan foydalanadigan shaxsga qarshi sodir etilganda davlatlarning yurisdiksiyasi amalga oshiriladi.

Qayd etilgan harakatlarga qarshi kurash bo'yicha siyosiy kelishuvlar Yevropa xavfsizlik va hamkorlik Kengashi ishtirokchilarining Xelsinki, Madrid, Vena, Parijda qabul qilgan yakunlovchi aktlarida o'z ifodasini topgan.

Ayni paytda, terrorchilik xurujlarining oldini olish va uni sodir etganlik uchun jazolash to'g'risidagi Amerika davlatlari tashkiloti (1971-y.), Yevropa davlatlari (1976-y.) va Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorligi assotsiatsiyasi (1987-y.) tomonidan qabul qilingan uchta mintaqaviy Konvensiya ham mavjudligini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tarkibida terrorizm bo'yicha Tashqi ishlar vazirlari Qo'mitasi ham faoliyat ko'rsatayotganini ta'kidlash zarur.

Bu yo'naliшда hamkorlik qilishga intilish musulmon dunyosi mamlakatlariga ham xosdir. Ko'plab arab-musulmon davlatlari Ichki ishlar va Adliya vazirlari tomonidan 1998-yilda imzolangan terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Arab bitimini qabul qilishgan.

Fors ko'rfazidagi arab davlatlari hamkorlik Kengashiga a'zo bo'lgan mamlakatlar ham hozirda shunga o'xhash Bitimni yaratish ustida ishlamoqdalar. Bu mamlakatlar tomonidan terrorizm bilan kurashni tashkil etish, noqonuniy yo'llar bilan topilgan pullarni legallashtirish, shubhali tadbirdarga pul yig'ishning oldini olishga qaratilgan bir qator choralar ko'rilgan. Ko'plab qo'shni davlatlar bilan xavfsizlikni ta'minlash sohasida bir qator bitimlar ratifikasiya qilingan. Bu bitimlar ekstremizm va terrorizm bilan kurash, shuningdek, jinoyatchilarni tutib berishga aloqador qoidalarni qamrab oladi.

Bundan tashqari, Jazoirda teraktlardan aziyat chekkan fuqarolarga moddiy yordam ko'rsatish, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash qurboni bo'lganlarga tovon puli to'lash masalalariga bag'ishlangan hujjatlar qabul qilingan.

Biroq hali ham xalqaro terrorizm tushunchasining mohiyati, huquqiy tabiatи va uni sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi yagona universal kelishuv ham, xalqaro terrorchilik xurujlarini xarakterlovchi to‘la ro‘yxat ham yo‘q.

Xalqaro bitimlarni tahlil qilish:

- elchixonalar, xalqaro tashkilotlarning missiyalari yoki vakolatxonalari shtab-kvartiralarini portlatish;
- mulkka zarar yetkazish yoki yo‘q qilish, odamlarni jarohatlash va o‘ldirish maqsadida ko‘chalar, aeroportlar, vokzallar, madaniyat markazlari, sanoat inshootlari, savdo-sotiq va kasbiy faoliyat uchun mo‘ljallangan binolarda sodir etiladigan qo‘poruvchilik harakatlari;
- yuk, banderol, xat va pochta orqali yuboriladigan boshqa narsalarga portlovchi moslamalarni o‘rnatib, qasddan foydalanish;
- jamoat binolariga nisbatan sodir etilgan har qanday qo‘poruvchilik harakati;
- xalqaro terrorchilik harakatlarini amalga oshirish maqsadida fitna yusushtirish va uning har qanday ko‘rinishida ishtirok etishni xalqaro terrorchilik xurujlari qatoriga qo‘shish imkonini beradi.

Boshqa manbalarda esa, odamlarni garovga olish, qaroqchilik, fuqarolar aviatsiyasiga qarshi yo‘naltirilgan hodisa, shuningdek, yadroviy xom-ashyolarni noqonuniy qo‘lga kiritish va ishlatish kabilar ham xalqaro terrorchilik amaliyotlari qatoriga kiritilgan.

Xalqaro terrorizm katta xavf tug‘dirishi, keng tarqalgани va amalga oshirish shakllarining xilma-xilligi tufayli ham davlatlar unga qarshi kurashish uchun maxsus konvensiyalar qabul qilishda davom etmoqdalar va bunday xurujlarni xalqaro jinoyat deb ta‘rif bermoqdalar.

Kishilik jamiyatni rivojining hozirgi bosqichida terrorizm, jumladan, diniy-siyosiy mohiyatga ega ekstremizm va terrorizmning globallashuvi, ularning tobora xalqaro miqyosdagi voqelikka aylanib borayotgani dunyo hamjamiyatining mazkur muammoga bo‘lgan e’tiborini yanada oshirmoqda, unga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirmoqda.

Mazkur muammoning BMT, YEXHT, NATO kabi nufuzli xalqaro institutlar faoliyatidagi o‘rni uzlusiz oshib bormoqda. Terrorizmga qarshi kurashni faollashtirish, uning samarasini oshirishga qaratilgan o‘nlab huquqiy hujjalari, shartnomalar, bitimlar, konvensiyalar qabul qilinmoqda, tashkilotlar hamda ijro tizimi yaratilmoqda. Xususan, BMT Xavfsizlik Kengashining oxirgi yillarda qabul qilingan 1368, 1373 va 1377-qarorlari mazkur muammoning turli qirralarini qamrab olgan bo‘lib, dunyoning mutlaq ko‘pchilik davlatlari tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ularda belgilangan maqsadlarga erishishning amaliy yo‘llari izlanmoqda. MDHning Aksilterror markazi hamda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tuzilmalari shunday institutlardan bo‘lib,

ularning yaratilishi va bugungi faoliyati, ko‘p jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi tashabbuslari samarasidir.

Terrorizmga qarshi kurashning huquqiy asoslarini mustahkamlash bu kurashda ilg‘or hisoblangan mamlakatlar tajribasida ham alohida o‘rin tutmoqda. Masalan, 1958–1999-yillar davomida AQSHda qabul qilingan 40 ta huquqiy hujjat u yoki bu darajada terrorizmga qarshi kurashning huquqiy zaminini mustahkamlashni ko‘zlaydi. Ularning eng muhimlari qatoriga maxsus «Prezident direktivasi» (1995-y.) va «Terrorizmga qarshi kurash haqidagi qonun»ni (1996-y.) kiritish mumkin.

Diniy-siyosiy ekstremizm va terrorizmdan katta talafot ko‘rayotgan ayrim boshqa davlatlar, jumladan, Isroil, Rossiya, Misr va O‘zbekiston ham ana shu yo‘ldan bormoqda. Ushbu mamlakatlarda qabul qilinayotgan qonunlar hamda boshqa huquqiy hujjatlar tegishli davlat idoralari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish muassasalarining tayyorlanayotgan qo‘poruvchilik xurujlarini aniqlash va ularning oldini olishdagi imkoniyatlarini kengaytirishni ko‘zlaydi. Mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribaning amaliy natijalari maxsus aksilterror harbiy bo‘linmalarini tuzish, alohida ahamiyatga ega ob’ektlar, jumladan, yadroviy muassasalar, yirik suv havzalari, ommaviy jamoat joylari himoyasini kuchaytirish, garovga olinganlarni ozod etishning muzokara yo‘llarini yaratish va muntazam takomillashtirishga qaratilgan texnologiyalarning tug‘ilayotganida o‘zini namoyon etmoqda.

**Odamlarni garovga olish** bilan bog‘liq jinoyatlarning keskin o‘sishi munosabati bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979-yilning 17-dekabrida maxsus konvensiya qabul qilingan edi. Unda, odamlarni garovga olish xalqaro jinoyat sifatida qayd etilgan. Mazkur konvensiyadan tashqari davlatlarning odamlarni garovga olishga qarshi kurash bo‘yicha hamkorligi qator mintaqaviy bitimlar orqali ham tartibga solinadi. Xususan, bunday mintaqaviy kelishuv xorijlik diplomatlari va ularning oila a‘zolari garovga olinishidan birinchilardan bo‘lib jabr ko‘rgan Amerika qit’asi davlatlari tomonidan qabul qilindi. Amerika davlatlari tashkilotlari (ADT) Doimiy qo‘mitasi tovon olish maqsadida odam o‘g‘irlashni qoralovchi rezolyutsiya qabul qildi va bunday xatti-harakatlami insoniyatga qarshi jinoyat sifatida baholadi.

Shuningdek, 1971-yilda Vashingtonda ADTning Bosh Assambleyasi tomonidan konvensiya qabul qilinganini ham ta‘kidlash zarur. Unda odam o‘g‘irlash, o‘ldirish, tovon talab qilish va xalqaro muhofazada bo‘lgan shaxslarga qarshi kuch ishlatalishga qarshi qaratilgan qonunchilik me‘yorlarini unifikasiyalash nazarda tutilgan. Qanday maqsadda sodir etilganidan qat’iy nazar, qayd etilgan jinoyatlar xalqaro ahamiyatga ega jinoyat sifatida ko‘riladi.

Odamlarni garovga olishga qarshi kurash yuzasidan muayyan kelishuvlarga erishish Yevropa Kengashi doirasida ham muhokama qilingan edi. 1973-yilda uning Maslahat Assambleyasi o'zining 703-sonli tavsiyanomasida davlatlarga odamlarni garovga olish yoki hayotlariga xavf tug'dirishni og'ir jinoyatlar qatoriga kiritishni taklif qildi. Yevropa Kengashida uzoq davom etgan muhokamalardan so'ng 1977-yilda Strasburgda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Konvensiya imzolandi. Unda boshqa hodisalar qatorida odamlarni har qanday shaklda garovga olish, o'g'irlash yoki noqonuniy ravishda erkini cheklash ham xalqaro terror-chilik xurujni sifatida ta'riflangan.

Garovga olganlik uchun jinoiy javobgarlik yuqorida qayd etilgan xalqaro terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar hamda Urush paytida aholini himoya qilish bo'yicha 1949-yilda qabul qilingan Jeneva Konvensiyasi va 1977-yilda imzolangan, uni to'ldiruvchi Qo'shimcha protokollarda ham nazarda tutilgan.

1979-yildagi Konvensianing 1-bandiga binoan garovda ushslash deganda – odamni zo'rlik bilan qo'lga olish, ushlab turish orqali uni noqonuniy ravishda erkinligidan mahrum etish yo'lli bilan uchinchi taraf (davlat, boshqa shaxs yoki tashkilotlar)ni muayyan harakatlarni majburan amalga oshirish yoki amalga oshirmslik evaziga ozodlikka chiqarish tushuniladi.

Garovga olish ob'ekti sifatida nafaqat xalqaro muhofazada bo'lgan shaxslar, balki jinoyatchini ozod qilishi maqsadida qo'lga olingan jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyati vakillari, tovon olish niyatini ko'zlab garovga olingan yirik sanoatchilar va tijoratchilar, ularning oila a'zolari ham chiqishi mumkin.

Garovga olishdan ko'pincha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatdan qasd olish vositasi sifatida ham foydalaniadi. Masalan, 1980-yillarda aqidaparastlar Isroiuning Yaqin Sharqdagi siyosatini qo'llab-quvvatlovchi AQSH va boshqa davlatlardan qasd olish maqsadida Bayrut va boshqa shaharlarda bir qator shaxslarni o'g'irlab ketib, ularning ko'pchiligini bir necha yil tutqunlikda saqlab keldilar.

Jinoyatchilar tomonidan garovga olingan kishilar ushlab turilgan hududdagi davlat ularning ahvolini yengillashtirish, xususan, ozodlikka chiqarish va ozod etilganidan keyin o'z yurtiga yetib olishini ta'minlash bo'yicha barcha zarur choralarни ko'rishi shart.

Konvensianing 5-moddasida universal yurisdiksiya tamoyili mustahkamlab qo'yilgan. Garovga olish:

- a) davlat uning hududida yoki uning hududida ro'yxatga olingan suv transporti bortida sodir etilganda;
- b) davlat fuqarosiga nisbatan amalga oshirilganda;
- v) davlatni qandaydir harakatlarni amalga oshirish yoki oshirmslikka majurlaganda;

g) garovga olingen odam shu davlat fuqarosi va guman qilingan jinoyatchi ham shu hududda bo'lganda davlat o'zining yurisdiksiyasini amalga oshiradi.

Siyosiy qarashlari, irqiy, diniy mansubligi uchun ta'qib qilish va jazolashga urinish alomatlari bo'lganda jinoyatchini da'vogar davlatga berish man etiladi.

Garovga olish to'g'risidagi xalqaro huquqiy me'yorlarning milliy qonunchiligidan aks etishi O'zbekiston Respublikasi hududida bunday jinoyatlarga qarshi kurashga qo'shilgan muhim hissa hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 245-moddasida, biror bir shaxsni garovga olish shunday ta'riflanadi:

«Garov sifatida tutqunlikka olingen shaxsni ozod qilish sharti bilan davlat, halqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakat sodir etish yoki biron-bir harakat sodir etishdan o'zini tiyib turishni talab qilish maqsadida shaxsni garov tariqasida tutqunlikka olish yoki tutqunlikda ushlab turish, ushbu Kodeksning 155, 165-moddalarida nazarda tutilgan alomatlar bo'limasa, besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan; b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa; v) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi».

Biroq yuqoridagi kabi jinoyatlarni xalqaro ahamiyatga molik shunga o'xshash jinoyatlardan farqlash kerak. Garovga olish: a) jinoyatchilar va ularning qurbanlari bir yoki turli davlatning fuqarolari bo'lib, jinoyat ushbu davlatlardan tashqarida amalga oshirilganda; b) xalqaro muhofazada bo'lgan kishilar garovga olinganda; v) jinoyat bir davlatda tayyorlanib, boshqa davlat hududida amalga oshirilganda; g) jinoyatchilar boshqa davlatda boshpvana topgan va ularni berish masalasi ko'ndalang bo'lgan paytlarda xalqaro jinoyat sifatida ko'rildi. Bu shartlar, hech istisnosiz xalqaro terrorchilik xurujlarining barchasiga tegishlidir.

**Havo kemalarida sodir etiladigan jinoyatlar** 1960-yillar oxiridan boshlab keng tarqala boshladi. Bungacha sodir etilgan ayrim shunday jinoyatlar «havo qaroqchiligi» deb baholanar edi. Bu atama dengiz huquqidan olingen bo'lib, uning qaroqchilikka hech qanday aloqasi yo'q. Qaroqchilik fuqarolar va ekipaj a'zolari mulkini egallab olishdek shaxsiy maqsadlarni ko'zlaydi. Bosqinchilik, samolyotlarni olib qochish, garovga olish, samolyotlarni vayron qilishdekkarakatlar bilan birgalikda kechadi. Havo kemalarida amalga oshiriladigan jinoyallarning maqsadi ham boshqacha bo'ladi.

Havo kemalarida sodir etiladigan qonunbuzarliklar va boshqa shunga o‘xshash harakatlar yuzasidan 1963-yilda qabul qilingan va 1969-yildan kuchga kirgan Tokio Konvensiyasida havo kemasini garovga olish «Havo kemasida uchayotgan shaxs, noqonuniy ravishda, kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo‘rqtish orqali havo kemasi parvozini boshqarishga, qo‘lga olishga yoki boshqa usullar bilan nazoratga olishga urinish» sifatida ta‘riflangan. Biroq bunday harakatlar jinoyat sifatida baholanmagan, balki davlatlarga tegishli tavsiyalar berilgan edi.

1970-yilda havo kemalarini noqonuniy ravishda qo‘lga olishga qarshi kurash bo‘yicha Gaaga Konvensiyasi imzolandi va bunday harakatlar xalqaro jinoyat sifatida ko‘riladi.

1971-yilda fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo‘naltirilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash haqidagi Montreal Konvensiyasi qabul qilindi. Unda havo kemasida sodir etiladigan va jinoiy javobgarlikka tortilishga olib keladigan jinoyatlar soni ancha kengaytirilgan. Konvensiyaning 1-moddasiga binoan uni imzolagan davlatlar:

— havo kemasida bo‘lgan shaxsga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilgan va bu harakat havo kemasi xavfsizligiga tahdid solganda;

— foydalanilayotgan havo kemasini vayron qilish yoki uning ishdan chiqishga yoki parvoziga xavf tug‘diruvchi nosozliklar keltirib chiqarilganda;

— havo kemasiga uni vayron qiluvchi, ishdan chiqaruvchi yoki parvoziga xavf tug‘diruvchi har qanday buyum va qurilmalar olib kirilganda;

— havo kemasi parvoziga jiddiy zarar keltiradigan aeronavigatsiya jihozlari buzilganda va undan foydalanishga aralashilganda;

— yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish bilan havo kemasiga xavf tug‘dirilganda, bunday jinoyatlarni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan bosqinchilik va havo kemalarini olib qochishda qo‘llangani kabi qattiq choralarни ko‘rish majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

Yuqorida qayd etilgan harakatlarni sodir etishga urinish hamda ularda ishtirok etish jinoyat hisoblanadi. Mazkur Konvensiya fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy ravishda aralashishga qarshi kurashni samarali tashkil etishga xizmat qilgani uchun davlatimiz uning faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Havo kemasini bosib olib qochish — «xaydjeking» eng ko‘p ijtimoiy xavf tug‘diruvchi hodisa hisoblanadi.

Bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfi ularning davlatga katta zarar keltirishi, nafaqat samolyotning o‘zida, balki avariya natijasida yerda ham ko‘plab odamlarning halok bo‘lishiga olib kelishi bilan belgilanadi. Havo transportini olib qochish, uni boshqarishdagi qiyinchiliklar, yoqilg‘i tugab qolishi xavfi bo‘lgan sharoitda amalga oshiriladi. Ko‘pgina

hollarda bunday parvoz vaqtida otishmalar, gunohsiz kishilarni o'ldirish, talonchilik kabi harakatlar sodir etiladi. Bunday jinoyatlar kishilarda fuqaro aviatsiyasi kemalarida uchishning xavfsizligiga ishonchni yo'qotadi.

Biroq havo kemasini olib qochish, havoda uni noqonuniy boshqarish va qayd (registratsiya) qilingan davlatiga qo'ndirishdek fuqarolik jinoyatini ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soladigan va xalqaro jinoyat sifatida baholanadigan havo kemasini olib qochishdan farqlash zarur. Oxirgi holatda havo kemasini olib qochish uni noqonuniy qo'lga olish va fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashishdek harakatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Samolyotlarni olib qochuvchi xalqaro jinoyatchilarni shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lish mumkin:

- samolyot olib qochuvchilar sodir etgan jinoyatlari uchun davlat oldidagi javobgarlik yoki o'zlarining jinoyatchi sheriklaridan qutulish maqsadida eki paj va yo'lovchilargaqurol bilan tahdid qilgan holda samolyot yo'naliшини o'zgartirish va boshqa davlat hududiga qo'ndirishni talab qiladilar;

- mazkur reysda uchayotgan muayyan yo'lovchi yoki davlat yoki biror bir tashkilot yoki boshqa shaxslardan yo'lovchilarni tirik, samolyotni esa beshikast qoldirish sharti bilan tovon olish uchun olib qochish. Sodda qilib aytganda, olib qochish ta'magirlik maqsadida sodir etiladi. Oxirgi yillarda bunday jinoyat turi keng tarqalmoqda;

- jinoyatchilar xalqaro nizo chiqarish yoki davlatlararo aloqalarni chigallashtirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar.

Terrorchilik niyati bilan amalga oshirilgan bunday harakatlar xalqaro miqyosdagi eng xavfli jinoyatlardan hisoblanadi. Ular bilan kurashni Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IAAO), Uchuvchilar uyushmasining xalqaro federatsiyasi (IFALPA) va Havo transportining xalqaro assotsiatsiyasi (IATA) kabi tashkilotlar amalga oshirib kelmoqda.

Shunday qilib, jinoyatchilar havo kemasini qo'lga olish va olib qochishda undan noqonuniy tarzda harakat vositasi sifatida foydalanish va uning yo'naliшини o'zlariga kerak tomonga o'zgartirishdek maqsadni ko'zlaydilar. Qayd etilgan konvensiyalar havo kemalari qo'ndirilgan davlatlarni olib qochilgan havo kemasi va yukni qonuniy egalariga qaytarish hamda zudlik bilan yo'lovchilar va eki pajga o'z yo'naliшлиари bo'yicha uchishga ruxsat berish majburiyatini yuklaydi.

Gaaga Konvensiyasining 1-moddasida havo kemasini zo'ravonlik, qo'rqtish yoki uning boshqa har qanday ko'rinishini amalga oshirish orqali egallab olish yohud shunday harakatlarni sodir etishga urinish va unda ishtirok etish uni olib qochishning ob'ektiv tomoni sifatida qayd etiladi. Bunda havo kemasining uchish yoki qo'nish joyi u qayd (registratsiya) qilingan hududdan tashqarida bo'lishi kerak.

Gaaga Konvensiyasining oltinchi va yettinchi moddalariga muvofiq havo kemasini olib qochgan jinoyatchi paydo bo'lgan har qanday davlat o'z milliy qonunchiligiga tayanib, dastlabki tergov ishlarini olib borish uchun uni hibsga olishi yoki boshqa ehtiyyot choralarini ko'rishi va o'rganish natijalarini manfaatdor davlatlarga yetkazishi mumkin. Agar davlat jinoyatchilarni tutib berishdan bosh tortgan hollarda ularga qarshi jinoyat ishi qo'zg'ashi shart.

Qayd etilgan jinoyatlarga nisbatan jinoiy yurisdiksialarni chegaralashda barcha havo kemalari: havo yo'li orqali fuqarolarni tashish, aviatsiya xizmatlari, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa ehtiyojlarni qondirish maqsadida davlat reyestriga kiritilgan – fuqaro hamda harbiy, bojxona va politsiya xizmatlarida foydalaniladigan davlat havo kemalari kabi ikki guruhga bo'linadi.

Yuqorida qayd etilgan konvensiyalar faqat fuqaro havo kemalariga taalluqlidir. Jinoyat davlat havo kemasida sodir etilgan hollarda milliy yurisdiksiya (bayroqning mustaqilligi) tamoyili amal qiladi. Shuning uchun ham, davlat havo kemasini olib qochgan jinoyatchilar havo kemasi qayd (registratsiya) qilingan davlatga topshirilishi shart.

1988-yilda Montreal Konvensiyasi xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi aeroportlarda noqonuniy zo'ravonliklarga qarshi kurash Protokoli bilan to'ldirildi. Bunda Konvensianing I-moddasida «Ataylab va noqonuniy tarzda moslama, narsa yoki qurol ishlatgan har qanday shaxs:

a) aeroportda xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatayotgan shaxsning o'limiga yoki og'ir tan jarohatiga olib keluvchi zo'ravonlikni sodir etganda;

b) xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi aeroport binosi yoki uskunasini buzganda yoki ularga jiddiy zarar keltinganda, aeroportda turgan foydalanilmayotgan havo kemasiga zarar yetkazganda, uning xavfsizligiga xavf tug'dirganda yoki tug'dirishi mumkin bo'lgan darajada aeroport xizmati ishini buzganda jinoyat sodir etgan hisoblanadi», – degan bandlar bilan to'ldirildi.

Montreal Konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan davlatlarga jinoyatchi uning hududida bo'lsa va uni topshirmoqchi bo'lmasa, unga nisbatan o'z yurisdiksiyasini qo'llash majburiyati yuklatilgan.

IKAO doirasida fuqaro aviatsiyasini terrorchilik va boshqa noqonuniy xurujlardan himoya qilishga qaratilgan yangi uslublar ishlab chiqilmoqda. Masalan, davlatlar noqonuniy aralashishlarga javoban axborotlar almashish tartibi, xavfsizlik masalalari bo'yicha shaxsiy tarkibni o'qitish va tayyorlash, yerda va havo kemasida xavfsizlikni ta'minlash va sh.k. masalalarda kelishib oldilar. Ishlab chiqilgan tavsiyalar IKAO tomonidan

nashr etilgan «Fuqaro aviatsiyasini noqonuniy aralashuvdan himoya qilish bo'yicha yo'riqnomalar»da jamlangan.

Havo transportida qayd etilgan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida Montreal Konvensiyasi ishtirokchi davatlarga o'z milliy qonunchiligidagi bu jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilashni taklif etadi.

Havo kodeksi havo kemasi komandiriga o'z harakatlari bilan uchish xavfsizligiga raxna soluvchi shaxslarga nisbatan barcha choralarini, zarur hollarda hatto, quroq ishlatish majburiyatini ham yuklaydi.

**Yadroviy materiallarini o'g'irlash bilan bog'liq jinoyat** 1980-yil 3-martda qabul qilingan Yadroviy materialni himoya qilish haqidagi Konvensiyaga binoan xalqaro jinoyat hisoblanadi. Unda ta'kidlanishicha, yadro texnikasi va yadroviy materiallar ishlab chiqarishning rivojlanishi oqibatida uni davlatlar, xalqlar va atrof-muhitga ziyon keltirish maqsadida o'g'irlash, noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Konvensiyada bunday jinoyat ob'ektlari, tarkibiy qismlari, ularni sodir etuvchilarini javobgarlikka tortish tartiblari belgilangan. Davlatlar:

- har qanday shaxsning o'limi yoki sog'lig'iga, shaxsiy mulkiga jiddiy zarar yetishiga olib kelish mumkin bo'lgan yadroviy materialni ishlab chiqarish, egalik qilish, foydalanish, birovga berish, ko'rinishini o'zgartirish, yo'q qilish yoki parchalash;

- yadroviy materialni o'g'irlash yoki bosqinchilik yo'li bilan qo'lga kiritish;

- yadroviy materialni aldov yo'li bilan qo'lga kiritish yoki o'zlashtirish, qo'rqtish yoki boshqa shakldagi tahdid orqali uni berishga majbur qilish;

- yadroviy materiallarni yuqorida qayd etilgan maqsadda ishlatish bilan tahdid solish, davlat, uning yuridik yoki jismoniy shaxslarini qo'rqtish orqali o'g'irlash kabi qonunbuzarliklarni ruxsatsiz, qasddan sodir etilgan va javobgarlikka tortiluvchi harakatlar deb e'lon qildilar.

Yuqoridagi maqsadlarda amalga oshirilgan harakatlar va ularda ishtirok etish jinoyat hisoblanadi. Bunday hollar yuz berganda har qaysi davlat sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfliligi va u keltirib chiqargan oqibatlarning darajasiga qarab jazo belgilaydi.

Harbiy maqsadlarda ishlatiladigan yadroviy materiallar juda qattiq qo'riqlanishini hisobga olib, Konvensiya qoidalari faqat tinch maqsadlarda foydalaniladigan yadroviy materiallarga taalluqlidir. Konvensiyaning I-moddasida, seziy, plutoniyl, uran izotoplarning ayrim konsentratsiyalari kabi yadroviy materiallarning asosiy turlari sanab o'tilgan. Konvensiya yadroviy materiallarni saqlash va tashish standartlarini belgilagan holda uning yuqori darajadagi himoyasini

ta'minlaydi. Shunga qaramasdan, yadroviy materiallarni o'g'irlash hollari mavjud. Masalan, 1992-yil avgustda yirik jahon axborot agentliklari Moskvada bir guruh fuqarolarning qo'lga olingani haqida xabar berdilar. Ular 3 kg hayot uchun o'ta xavfli bo'lgan seziy – 137 izotopini 1,5 million dollarga sotishga uringanlar. Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) esa 1993-yilda 600 dan ortiq yadroviy materiallar oldi-sottisi amalga oshirilganini qayd qilgan.

Qayd etilgan misollar ham bunday harakatlarning naqadar xatarli ekanini ko'rsatadi.

Yadroviy material o'g'irlangan, bosqinchilik yoki boshqa ko'rinish-dagi noqonuniy harakatlar natijasida qo'lga kiritilganda yoki shunday harakatning real xavfi bo'lganda Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatlar o'z milliy qonunchiligidan kelib chiqib hamkorlik qiladilar va yordam so'rab murojaat qilgan davlatga bunday materialni qaytarish va himoya qilishga ko'maklashadilar. Bunday jinoyat ekstraditsion jinoyat hisoblanadi va davlatlar yadroviy materiallarni himoya qilish to'g'risi-dagi Konvensiyani jinoyatchilarni berish uchun huquqiy asos sifatida qarashlari mumkin.

Jinoyat davlatda yoki uning hududida qayd (registratsiya) qilingan kema yoki samolyotda sodir etilganda yoki gumon qilinayotgan jinoyatchi uning fuqarosi ekanı aniqlanganda ham davlat yurisdiksiyasi qo'llaniladi. Boshqa konvensiyalarda bo'lgani kabi bu yerda ham gumon qilinayotgan jinoyatchi qaysi davlat hududida bo'lsa, shu davlatning yurisdiksiyasi amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 254-moddasida radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

**Yollanish bilan bog'liq jinoyat** BMTning qator rezolyutsiya va qarorlarida xalqaro jinoyat sifatida qayd etilgan. Birinchi navbatda BMT Xavfsizlik Kengashining 1961-yil 24-noyabrdagi rezolyutsiyasida BMT qo'mondonligi ostida bo'Imagan har qanday harbiy va yarim harbiy odamlarni, yollan-ganlarni zudlik bilan qo'lga olish va chiqarib yuborish uchun eng samarali, shu jumladan, kuch ishlatishga asoslangan choralarни ko'rish zarurligi qayd etilganini ta'kidlash lozim. 1967–1977-yillarda qabul qilingan rezolyutsiyalarda ham o'z hududida jangarilarni yollash va saqlashga ruxsat bergen davlatlar qat'iy qoralangan. Xavfsizlik Kengashi o'zining 405-rezolyutsiyasida davlatlardan o'z hududini jangarilarni yollash uchun bermaslik, o'z fuqarolarini ularni shakllantirish, yollash yoki ularni boshqa davlatlarga tashlash jarayonida ishtirok etishga ruxsat bermaslikni talab qiladi.

BMT Bosh Assambleyasining 1968-yilda qabul qilingan 2465-rezolyutsiyasi (XXIII) yollanganlardan foydalanish amaliyoti jinoiy javobgarlikka tortiladigan faoliyat ekanini, yollanganlarning o'zi esa jinoyatchi hisoblanishini va qonundan tashqarida ekanini belgilab berdi. Shuningdek, unda barcha davatlarda o'z hududida jangarilarni yollash,

ularni mablag‘ bilan ta’minlash va o‘qitishni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida baholaydigan va o‘z fuqarolariga yollanma jangchi sifatida xizmat qilishni man etadigan qonunlar qabul qilish zarurligi ta’kidlangan.

BMT Bosh Assambleyasining Xalqaro huquq tamoyillari Deklaratsiyasida (1970-y.) davlatlarga boshqa davlat hududiga bostirib kirish uchun doimiy harbiy kuch yoki qurollangan guruhlar, shu jumladan, yollanma jangarilikni tashkil etish yoki tashkil etishni rag‘batlantirish va o‘z hududida ushlab turishdek harakatlardan tiyilish tavsiya etilgan. Shu bilan birga, yollanma jangarilarni xalqaro jinoyatchi sifatida jazolash kolonial va xorijiy hukmronlikka hamda irqchilik tuzumlariga qarshi kurashayotgan «Kombatantlar huquqlarining asosiy prinsiplari» (1970-y.)da ham ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Bosh Assambleya boshqa bir davlatga nisbatan qurolli kuchlarni qo‘llaydigan yollanma jangchilarni o‘zga mamlakatlar hududiga yuborishni tegishli xalqaro-huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan xuruj, deb ta’riflagan edi.

Yollanishning jinoiy jihatini mintaqaviy xalqaro tashkilotlar qarorlarida ham o‘z aksini topgan. Ular qatoriga Afrika birligi tashkiloti (ABT)ning Lagosda bo‘lib o‘tgan vazirlar kengashining favqulodda VII sessiyasining rezolyutsiyasini, ABT Assambleysi tomonidan 1967-yilda qabul qilingan yollanma jangchilar to‘g‘risidagi rezolyutsiyani, 1971-yilda Addis-Abebada ABT tomonidan qabul qilingan Afrikadagi yollanma jangchilar haqidagi Deklaratsiyani ko‘rsatish mumkin.

«Yollanish» tushunchasining mazmuni birinchi marta Urush paytida fuqaro aholini himoya qilish to‘g‘risidagi Jeneva Konvensiyasiga 1977-yilda qabul qilingan Qo‘srimcha protokolning 47-moddasida ta’riflab berilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 154-moddasida yollanishning mohiyati va bunday harakatlar uchun qo‘llaniladigan jazo aniq belgilab qo‘yilgan: «Yollanish, ya’ni nizolashayotgan davlatning fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi hisoblanmagan yoxud nazorat qilinib turgan nizolashayotgan davlat hududida doimiy yashamaydigan yoki hech qanday davlat tomonidan qurolli kuchlar tarkibida rasmiy topshiriqni bajarish vakolati berilmagan shaxsning moddiy manfaatdorlik yoki boshqa biron shaxsiy manfaatni ko‘zlab, o‘zga davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli to‘qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashish uchun yollanishi – besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi».

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155-moddasida esa terrorizmning mohiyati va bunday harakatni sodir etganlik uchun qo‘llaniladigan jazolar tavsiflab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasi 6-qismiga muvofiq «Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek, boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi».

Oxirgi paytlarda dunyoning ko'plab mintaqalarini qamrab olgan ekstremizm bilan bog'liq muammolar faol muhokama qilinmoqda. Diniy ekstremizmga qarshi kurash Markaziy Osiyo uchun ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida shunday deyiladi: «Davlat turli dirlarga, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutas-siblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi».

Shu bilan bir qatorda, hozirda «ekstremizm» va «diniy ekstremizm» tushunchalarining mazmunini belgilashda turlicha yondashuvlar mavjudligini ta'kidlash zarur. Demak, ushbu tushunchalarning huquqiy mazmunini aniq belgilab olish mazkur ko'rinishdagi harakatlarni to'g'ri baholash va ularning oldini olishga o'z hissasini qo'shishi aniq.

**Terrorizmga qarshi kurashning masifikasiy hamda ma'naviy-tarbiyaviy asoslari.** Ushbu soha diniy ong radikallashuvining oldini olish hamda aholida diniy-masifikasiy immunitetni hosil qilishning asosiy vositalaridan biri hamda ekstremizm va terrorizmnинг oldini olishdagi hayotiy va ta'sirchan omillardan biri sanaladi. Ko'pchilik mamlakatlarda masifikasiy va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimi dunyoviy mohiyatga ega ta'llim-tarbiya muassasalarida yoshlarga din haqida ilmiy asoslangan bilimlar berish va diniy muassasalar imkoniyatlaridan diniy-ma'naviy tarbiyaning muhim o'chog'i sifatida foydalanishdek jihatlarni qamrab oladi. Ularni ro'yobga chiqarishda turli, shu jumladan, anchagina qismi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega bo'lgan nohukumat, notijorat tashkilotlar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Diniy-siyosiy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning oxirgi yillardagi xalqaro tajribasida dinlararo bag'rikenglik g'oyasi targ'iboti alohida o'rinn tutmoqda. Bugun uni targ'ib qilayotgan o'nlab tashkilotlar dunyo bo'ylab faoliyat yurgizmoqda. Ularning orasida YUNESKO kabi global miqyosda amal qilayotgan nufuzli xalqaro muassasalar bor.

Bu yo'naliishda olib borilayotgan ishlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy zaminini mustahkamlash bilan birga, uning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini kuchaytirish jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

## **IX bob. O'ZBEKISTONNING DINIY EKSTREMIZM VA XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASHI**

**Xalqaro maydondagi qat'iy siyosat.** Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqt tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990-yilda Namangan va Andijonda, 1990—1996-yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999-yili 16-fevralda Toshkent shahrida, 1999—2001-yillari Qirg'izistonning Botken, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004-yilning mart—aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida hamda 2004-yilning iyul oyida Toshkent shahrida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari timsolida o'zini ko'rsatdi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati birqalikda unga qarshi kurashishi lozimligi to'g'risidagi g'oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e'lon qildi. To'g'risini aytish kerak, O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining mohiyatini rivojlangan mamlakatlar va dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari kechroq anglatdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1993-yil 28-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma'-ruzasida jahon hamjamiyatini Afg'oniston muammosini izchil o'rganish va yechishga chaqirdi. «Tolibon» harakatining diniy mutaassib va jangarilik faoliyati haqidagi ushbu haqqoniy fikr faqat AQSHdagi 2001-yil 11-sentabr fojialaridan so'ng tan olindi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998-yilda tashkil topgan «6+2» guruhining BMT rahbarligida 1998—1999-yillarda olib borgan faoliyati Afg'onistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'lganini ta'kidlash zarur. Bu guruh Afg'oniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, O'zbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqaga tashqarisidan Afg'onistondagi vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan ikki davlat — AQSH va Rossiyaning yuqori darajadagi vakillaridan tashkil qilingan edi. Bu guruh bir qator majlislar, muhokamalar va muzokaralar o'tkazib, ularga Afg'onistonda bir-biri bilan kurashayotgan kuchlar vakillarini jaib qilib, «Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan bartaraf

etishning asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi Toshkent Deklaratsiyasini va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha bir qator boshqa hujjatlarni ishlab chiqdi. 1999-yilning 28-iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi majlisida «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi yakunlari yuksak baholandi.

2001-yilning 28-sentabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373(2001)-sonli rezolyutsiyani qabul qilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasini tuzdi. Ushbu qo‘mitaning tuzilishi va faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, Yurtboshimiz 1999-yilning noyabrida Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining (YEXHT) Stambulda bo‘lib o‘tgan Sammitida va 2000-yilning 7—8-sentabr kunlari Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik sammiti»da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifi bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus ro‘yobga chiqqanidan so‘ng, O‘zbekiston 2001-yil dekabr oyida va 2002-yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezolyutsiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasiga ma’ruzalar taqdim etdi.

O‘zbekistonning AQSH yetakchiligidagi tashkil etilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibidagi ishtiroki uning bu sohadagi ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir. O‘zbekiston xalqaro aksilterror koalitsiyasining faol ishtirokchisi sifatida AQSH harbiy havo kuchlarining transport samolyotlari va vertolyotlariga Afg‘onistonda qidiruv-qutqaruv va insonparvarlik yordamini amalga oshirish uchun o‘z havo hududini ochib berdi va Xonoboddagi harbiy aerodromning bir qismini AQSH harbiy havo kuchlariga vaqtincha foydalanishga berdi.

O‘zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustaqilligi va ravnaqi, xalqining erkin farovon hayotini ta’minlashdir.

Ekstremizm va terrorizmnинг oldini olish va unga qarshi kurash haqida gap ketar ekan, O‘zbekiston Afg‘onistonda tinchlikka erishishda BMTning faolligini kuchaytirish, Afg‘oniston ichki ishlariga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish va qurol-yarog‘ olib kirishni taqiqlash, ekstremizm va xalqaro terrorizmnинг moliyaviy manbayi bo‘lgan narkobiznes va narkotrafikk qarshi xalqaro miqyosda kurash kabi masalalarda ham e’tiborga molik takliflarni ilgari surganini ta’kidlash zarur.

O‘zbekiston bu tashabbuslar amalga oshishi uchun o‘zining ichki siyosatida ham tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 1998-yili I-mayda tasdiqlangan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunda mazkur yo'nalishdagi faoliyatning huquqiy asoslari mujassam etilgan.

Respublikamiz ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat'iy siyosat olib bormoqda. 1999-yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi, 2000-yilda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilingani hamda «Eksport nazorati to'g'risida» va «Pulni noqonuniy o'zlashtirish to'g'risida»gi Qonun loyihalari tayyorlangani fikrimizni tasdiqlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi tizimli va tadrijiy kurash olib bormoqda. Bu kurash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish va inson huquqlarini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

**Xalqaro shartnomalarda ishtirok etish.** Respublikamiz terrorizmga qarshi qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalarda o'zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta Konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozirda O'zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Ular qatorida 1971-yildagi fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash; 1973-yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf qilish; 1979-yildagi garovga olish harakatlariga qarshi kurash; 1980-yildagi yadroviy materiallarning himoyasi; 1988-yildagi dengiz kemalari harakati xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash; 1997-yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash; 1999-yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konvensiyalari borligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda BMT tomonidan «Yadroviy terrorizm xurujlariga qarshi kurash to'g'risida»gi xalqaro konvensiya va «Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha yalpi konsepsiya» loyihalari tayyorlanayotgani O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi tashabbuslariga hamohangdir.

O'zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 xalqaro shartnomani imzolagan. Ularning ichida 1977-yildagi terrorizmning oldini olish; 1978-yildagi shaxslarning

o'qotar qurollarni sotib olish va ularning saqlashini nazorat qilish; 1983-yildagi zo'ravonlik bilan amalga oshirilgan jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarga kompensatsiyalar berish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyalari hamda 1957-yildagi ekstradiksiya to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi 1975 va 1978-yildagi qo'shimcha protokollari va 1959-yildagi jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasining 1978-yildagi qo'shimcha protokoli bilan imzolanganini alohida qayd etish lozim.

Qayd etilgan konvensiya va protokollarda mustahkamlab qo'yilgan qoidalar respublikamizda qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ham izchil ifodasini topayotganini ta'kidlash zarur.

**Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash.** Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustaqilligiga erishganlaridan so'ng xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash ularning har biri uchun birlamchi masalaga aylandi. Mintaqa aholisining qariyb 45 foizi yashaydigan O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik respublikadir. Respublikamizning jahon geosiyosiy tizimidagi o'mni va geostrategik salohiyati uning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi mavqeyining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes kabi xavflarga qarshi kurashga Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Jumladan, Afg'oniston va Tojikistondagi o'ta murakkab vaziyat mintaqada xavfsizligi uchun jiddiy tahdid ekanidan kelib chiqib, O'zbekiston rahbariyati ularni hal qilishda ishtirok etishga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda ushbu mamlakatlarda u yoki bu darajada barqarorlikka erishilgan ekan, bunda O'zbekistonning salmoqli ijobiy hissasi bo'lganini ta'kidlash zarur.

2002-yilning oktabr oyida BMT va YEXHT bilan hamkorlikda «Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanishi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik» mavzuida Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferensiya ham bu yo'nalishdagi ishlar ko'lamidan dalolat beradi. 70 ta mamlakat va 40 ta xalqaro tashkilotdan ekspertlar ishtirok etgan mazkur anjuman xalqaro terrorizmga qarshi kurash strategiyasiga umumiyligi yondashuvlar borasida amaliy takliflar tayyorladi.

Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti doirasida ham O'zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o'zaro hamkorlikda bartaraf etish bo'yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro'yobga chiqarib kelmoqda. 2000-yil 21-aprelda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari

terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hamda tomonlarning barqarorligiga xavf tug‘diradigan boshqa tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikda harakat qilish haqida shartnomaga imzolagani ham buning isboti bo‘la oladi.

Ayni paytda, O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari tomonidan 2004-yili 19-noyabrda Buxoroda imzolangan bir qator shartnomalarda ham ikki davlat orasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash hamda Markaziy Osiyo mintaqasida terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik ham nazarda tutilganini qayd etish zarur.

I.A.Karimov 1993-yilning 28-sentabrida BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma’ruzasida Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratish borasidagi tashabbusni ilgari surgan edi. Diniy ekstremistlar va xalqaro terrorchi kuchlar ommaviy qirg‘in qurollariga ega bo‘lishga intilayotgan hozirgi davrda yadro quroli yaratilishi uchun zarur bo‘lgan materiallar tarqalmasligiga qaratilgan ushbu harakat BMT va jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. BMT Bosh Assambleyasining 1997-yilning 9-dekabrida bo‘lib o‘tgan 52-sessiyasida «Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratish» to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qilindi.

Qayd etilgan misollar, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilikning global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka tahdid ekanini chuqur anglagan holda ilgari surayotgan tashabbuslari va amaliy faoliyat O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim bo‘g‘ini ekanidan dalolat beradi.

**O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha mintaqaviy tashkilotlardagi ishtiroki.** O‘zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatida ham yorqin namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston YEXHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi (MDH), Shaxsay Hamkorlik tashkiloti (SHHT), Markaziy Osiyo Hamkorligi (MOH) tashkiloti kabi bir qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasining ushbu shartnomalarda qatnashishi uning ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir.

O‘zbekiston MDHdagi aksilterror markazi ishida ham faol qatnashmoqda. SHHT doirasidagi Aksilterror markazining Toshkent shahrida joylashtirilishini esa respublikamizning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi faolligining e’tirofi sisatida qarash mumkin.

MOH tashkiloti ish rejalarida xavfsizlikning umumiy muhitini mustahkamlash, shu jumladan, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash chora-tadbirlari ham aks etgan.

2004-yil 17–18-oktabrda Dushanbeda MOH tashkilotiga a'zo davlatlarning rahbarlari kengashida, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan, Rossiya Federatsiyasi ushbu tashkilot ta'sischilari safiga qo'shildi. Ushbu anjumanda Markaziy Osiyoda suv-energetika, oziq-ovqat va transport konsorsiumlarini tashkil qilish va umumiy bozorni shakllantirish, Afg'onistonni tiklash ishlarida MOH tashkilotiga a'zo davlatlarining hamkorligini faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ekstremistik va terroristik tashkilotlar, ularning rahbarlari va a'zolarining ro'yxatini tuzish MOH tashkilotiga a'zo davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari va maxsus xizmatlariga topshirildi.

O'zbekistonning yuqorida qayd etib o'tilgan mintaqaviy tashkilotlarning ishida faol ishtiroti, tashabbuslari va takliflari global xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning tutgan o'rni muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Keng qamrovli islohotlar – jamiyat barqaror rivojlanishining asosiy omili.** Jamiyatning barqaror rivojlanishida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshiriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, tub, sifatiy o'zgarishlarning asosini tashkil etadi. O'zbekistonda bunday islohotlar respublika Prezidenti I.A. Karimov tomonidan bataysil bayon qilingan iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchiligi, jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishdek besh tamoyilga asoslanadi.

Huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo'nalishda katta yutuqlarga erishildi. Xalqaro andozalarga javob beradigan va milliy o'zligimizni aks ettiradigan Konstitutsiya qabul qilindi. O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e'tirof etilgan ko'plab xalqaro deklaratsiya, konvensiya va hujjalarga qo'shildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me'yoriy tizimni rivojlantirish jarayonida inobatga olinmoqda. Lekin bu borada hali muayyan muammolar ham mavjud. Chunki qisqa vaqt mobaynida bunday har tomonlama va chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish juda qiyin. Ayni paytda, inson huquqlari va erkinliklarining qamrov doirasi kengayib, rivojlanib borayotganini va har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur.

Barcha rivojlangan davlatlar demokratiya, insonparvarlik va dunyoviylik tamoyillariga amal qiladi. Ularda vijdon erkinligi huquqiy kafolatlangan bo‘lib, bag‘rikenglik hal qiluvchi tamoyil sifatida e’tirof etiladi.

Tolerantlik (bag‘rikenglik) munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etilishi mumkin. Shu sababli inson huquq va erkinliklari, o‘zligini anglashi va namoyon qilishini ta’minalash dunyoviy demokratik davlat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, dunyoviy davlatni o‘z ideali tarkibiga asos qilib qabul qilmaydigan ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar davlat hokimiyatiga erishish uchun bo‘ladigan demokratik, ko‘ppartiyaviy raqobatda qatnashish huquqiga ega bo‘lmasligi kerak. Aks holda, insonparvarlik tamoyili buzilishi uchun «qonuniy» yo‘l saqlanib qolgan bo‘ladi. Bunday vaziyatning yorqin misoli sifatida Jazoirda yuzaga kelgan fojiali voqelikni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlangan. Jahon huquqshunoslik fani tajribasi asosida qabul qilingan bu qoida davlatimizda milliy va diniy asosda nizo paydo bo‘lishining oldini olish uchun xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir.

Jamiyat barqarorligiga to‘siq bo‘luvchi illatlarning yana biri terrorizmdir. Nega inson uni dunyoga keltirgan Ona Yurti, Vatani, millatiga qarshi chiqadi? Nega g‘ayriinsoniy faoliyat yuritib, o‘z yurtdoshlarini o‘ldiradi, butun xalq mehnati bilan yaratilgan binolarni, inshootlarni vayron qiladi? Bunday vahshiyona faoliyat ko‘pincha siyosiy maqsadlarda – hokimiyatni egallash uchun amalga oshiriladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bozor iqtisodiyotini shakllantirishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dunyoviy demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishga qaratilgan siyosiy-huquqiy hamda vatanparvarlik, milliy istiqlol g‘oyasi va komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar – yuqoridaq kabi holatlarning oldini olish, barqaror rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi.

**Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish.** Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga muayyan darajada erishilgan bo‘lsa-da, uni yanada takomillashtirish jarayoni davom etmoqda. Fuqarolik jamiyati tushunchasi asosida inson erkinligi, uning barcha ko‘rinish va munosabatlarda namoyon bo‘lishi g‘oyasi yotadi. Xususan, u iqtisodiy sohada xususiy mulkka ega bo‘lish,

siyosiy sohada siyosiy hayotda ishtirok eta olish, huquqiy sohada teng huquqlilik, ijtimoiy sohada uyushmalarga birlashish, diniy sohada – vijdon erkinligi, madaniy sohada – madaniy xilma-xillik, millatlararo va irqlararo munosabatlarda – millatlar, irqlarning tengligi va tolerant munosabatda bo‘lishi, kommunikatsiya sohasida – axborotlarni erkin ayirboshlash va so‘z erkinligi, mafkuraviy sohada – g‘oyaviy xilma-xillik, plyuralizm, migratsiya sohasida – insonning yashash joyini erkin tanlash, ruhiy sohada – inson hurfikrliligi va fikrlarning teng huquqli raqobati asosida rivojlanishi orqali amalga oshadi, deb e’tirof etiladi.

Vogelikda bu sohalarning barchasida ideal holatga erishish imkoniyati chegaralanmagan. Lekin tarixiy tajriba ushbu ideal maqsadga amaliyotda muayyan darajada yaqinlashish mumkinligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng dunyoda eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish hamda fuqarolik jamiyatni hamda dunyoviy, demokratik adolatli huquqiy davlatni shakllantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ydi. Shundan kelib chiqib, hozirgi zamon sivilizatsiyasiga xos siyosiy faoliyat va uyushuvning o‘zimizga mos tizimlari, yangi siyosiy institutlar va texnologiyalar, jamiyat siyosiy hayotida qatnashishning asosiy shakllari (ikki palatali parlament, demokratik saylovlar, referendumlar, umumxalq muhokamalari) yaratildi. Bu borada jahonda ishlab chiqilgan, rivojlangan demokratik davlatlarga xos bo‘lgan ko‘ppartiyaviylik tizimi, nodavlat tashkilotlarning faolligi va jamiyat hayotida har tomonlama qatnashishi mamlakatimizning o‘ziga xos vaziyatiga mos ravishda ro‘yobga chiqmoqda.

Yaqin o‘tmishda xususiy mulk taqiqlangan va oqibatda iqtisodiy faoliyat erkinligi yo‘q qilingan edi. Inson faoliyati va mohiyati yaxlitligi nuqtayi nazaridan iqtisodiy erksizlik boshqa sohalardagi erkinliklarning ham shakllanishiga to‘siq bo‘ldi. Shuning uchun ham, yaqin o‘tmishda e’lon qilingan erkinliklar ko‘p jihatdan ro‘yobga chiqmay deklaratsiya shaklida qolib ketdi. Shu sababli respublikalar mustaqillikka intildi va oqibatda istiqlolga erishdi. Davlatimiz mustaqilligi millatimizning eng yuksak ne’mati va milliy erkinligimizning asosidir.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish o‘tish davri qiyinchiliklarini mumkin qadar kamaytirish, turli ijtimoiy illatlar, adolatsizliklarning oldini olish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston boshqa davlatlar kabi fuqarolik jamiyatni qurishda insoniyat avval bosib o‘tmagan, yangi yo‘ldan bormoqda. Bu yo‘lda totalitar tuzum davridagidan farqli ravishda inson faolligi, erkinligi, tashabbusi va ijodkor kuchini rivojlantirish asosida fuqarolik jamiyatni qurilishi mo‘ljalananmoqda.

**Din sohasidagi ilmiy asoslangan siyosat.** Bugungi kunda ekstremizmning eng keng tarqalgan shakli bu diniy ekstremizmdir. Diniy tafakkurning siyosiylashuv jarayoni global miqyosda, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida din sohasidagi siyosat qonuniylik, demokratiya, dunyoviylik va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillari asosida olib borilmoqda. Konstitutsiya hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda dinning davlatdan ajratilgani, vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlangani hamda diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari ifodalangan.

Konfessiyalararo munosabatlarda inson erkinligini ta'minlash uchun vijdon erkinligi va tolerantlik tamoyili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyatida har bir inson istagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi mumkin. Bu inson ruhiy erkinligining hal qiluvchi tamoyili va ajralmas xususiyatidir. Shu sababli fuqarolik jamiyatini quruvchi barcha davlatlarda vijdon erkinligi tamoyili Konstitutsiya darajasida kafolatlangan. O'zbekiston Konstitutsiyasida ham bunday kafolatlarning ta'minlangani mustaqil mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

Mamlakatimizda fuqarolarning o'z diniy huquqlarini amalga oshirishlari uchun yaratilgan sharoitlarni diniy tashkilotlar misolida ham ko'rish mumkin. Hozirda respublikamizda 2186 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ularning faoliyati tom ma'noda tiklandi va rivoj topmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan, diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha bilim beriladigan Toshkent islom universitetining faoliyat ko'rsata boshlashi esa bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan bo'ldi.

Bundan tashqari fuqarolarga islom dinining ezgu mohiyatini tushuntirish maqsadida O'zbekiston musulmonlari idorasining «Hidayat» oylik jurnali va «Islom nuri» gazetalari muntazam chop etilmoqda. Respublika televideniyesi orqali «Ziyo» studiyasi va «Hidayat sari» ko'rsatuvlari muntazam berib borilmoqda.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda ko'plab qadimgi diniy-madaniy obidalar tiklandi, ta'mirlandi, qayta qurildi, yangi yodgorlik majmualari yaratildi. Buyuk mutafakkirlarimizning yubileyлari mamlakatimiz va jahon miqyosida keng nishonlandi. Ro'za va Qurbon haytlari bayram kunlari deb e'lon qilindi. Davlat tomonidan haj safariga borish uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratildi.

Islom dini millionlab kishilarning dunyoqarashi mazmunini tashkil etgan holda ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga

yetkazishda beqiyos ahamiyatga egadir. Diniy ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siriga berilgan kimsalar har qancha urinmasinlar muborak islam dini, xalqimizning kelajakka bo'lgan ishonchi, e'tiqodini, tinchligimizni oyoqosti qilolmaydilar hamda o'zbek xalqini o'zi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yo'lidan qaytara olmaydilar. Zero, xalqimiz islam dinidan o'zlarining qabih siyosiy maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan buzg'unchi kuchlarning asl maqsadini anglab yetdi va mamlakatimizda olib borilayotgan vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik va demokratiyaga asoslangan dunyoviy davlat qurish siyosatini to'la qo'llab-quvvatlamoqda.

**Fuqarolarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.** Tarix o'zga hududlarni zabit etish maqsadida ishlatalidigan urush qurollari uzlusiz takomillashib borganini ko'rsatadi. U nayzalardan tortib avtomatik qurollargacha, zambaraklardan tortib Yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit'alararo ballistik raketalargacha bo'lgan uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga hududlarni zabit etish uchun ularning aholisini mahv etish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabit etilgan, qarash va kayfiyatlari «ma'qul» yo'nalishga o'zgartirilgan yerlik aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriinsoniy va g'ayriislomiy g'oyalarini tarqatishga harakat qilayotgan diniy ekstremistlar ham ana shunday g'arazli maqsadlarni, ya'ni yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishga intiladilar.

Yuqorida mulohazalardan ham kishilar qalbi va ongini egallash g'oyaviy kurashning bosh maqsadiga aylanganini anglab yetish mumkin. «Bugungi kunda, — deb yozadi Yurtboshimiz, — insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf — insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzlusiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim».

Shunday sharoitda mohiyatan g'ayriinsoniy, shu jumladan, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi tura olish uchun kishilarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish markaziy masalalardan biriga aylanmoqda.

Immunitet (lot. immunitas — ozod bo'lish, qutulish) deganda tibbiyotda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli, shu jumladan, zararli ta'sirlardan himoya qilishga qodir bo'lgan

xususiyatlari majmuyi tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infektion kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi.

Insonning tug‘ma bo‘lgan ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlashga (immunitetga ega bo‘lmagan chaqaloqlarning uzoq yashay olmasligini eslaylik) xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet tizimining, asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko‘p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafдорлари ham muayyan «bilim»larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob‘yekтив bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu, bir tomonidan. Ikkinchisi tomonidan, bu bilimlar o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo‘lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mafkuraviy immunitetning ikkinchi asosiy unsuri ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo‘lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo‘lida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Qayd etilgan mulohazalar asl islom haqida muayyan bilimlarga ega bo‘lish, uning bayrog‘i ostida taqdim etilayotgan g‘oyalar, qarashlar va harakatlarni to‘g‘ri baholash, ularning mohiyatan islomiy qadriyatlarga butunlay zid ekanini anglab yetishga xizmat qiladi, degan xulosani chiqarish imkonini beradi. Bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to‘liq ifoda eta olmaydi. Zero, mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalardagi mo‘ljal va maqsadlar tizimi bilan bog‘liq. Ana shunday aniq tizim bo‘lmash ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo‘lsin, goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g‘oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o‘rnini katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ishlar majmuyini, to‘g‘ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasi ruhi bilan yo'g'rilgan ana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr da'vatlariga hozirjavobligini ta'minlash esa har birimiz va hammamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdид soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmonlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar».

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni kuchli maskuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashimizning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

## I L O V A L A R

### O'ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDAN<sup>1</sup>

**18-modda.** O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

**31-modda.** Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

**57-modda.** Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqланади.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqланади.

---

<sup>1</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI<sup>1</sup>

## «VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA»GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISHLAR VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, №8, 186-modda; 1993-yil, №9, 334-modda) o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahriri tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasining  
Prezidenti

I. KARIMOV

Toshkent shahri,  
1998-yil 1-may,  
№618-1

---

<sup>1</sup> Qarung: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 2001. -376 bet.

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

## **VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKIOTLAR TO'G'RISIDA (Yangi tahriri)**

### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

### **2-modda. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlardan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida vijdon erkinligini va diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlashga oid munosabatlar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llaniladi.

### **3-modda. Vijdon erkinligi huquqi**

Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusmlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lif olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

#### **4-modda. Fuqarolarning dinga munosabatidan qat'iy nazar teng huquqliligi**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyyaratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Qonunga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lgan bir vazifani diniy e'tiqodi tufayli boshqasi bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

#### **5-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi**

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'matilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har-

qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘limgan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ‘ibotiga oid faoliyatini mablag‘ bilan ta’minlamaydi.

O‘zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo‘limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ‘ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg‘otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviylar totuvalikni buzishda, bo‘hton vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o‘rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi.

Davlat hokimiyyati va boshqaruven organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o‘tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiqilanadi.

## **6-modda. Davlat organlarining va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabat borasidagi vakolatlari**

Davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o‘zaro munosabatlari muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita zimmasiga yuklanadi. Qo‘mitaning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tegishli hududlarda vijdon erkinligini va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun qonun bo‘yicha javobgardirlar.

## **7-modda. Ta'lif tizimi va din**

O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi dindan ajratilgan. Ta'lif tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lif olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar ta'min etiladi.

## **8-modda. Diniy tashkilotlar**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari; masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi.

Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'Imagan fuqarolar tashabbusi bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvosiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organlari (bundan keyin – markaziy boshqaruv organlari deb yuritiladi) tuzilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasining kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) faoliyat ko'rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning ro'yxatga olingan diniy tashkilotlari vakillari ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) tomonidan tuziladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari bo'lishlari mumkin. Diniy tashkilotlar rahbarligiga O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'Imagan shaxslarning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinadi.

## **9-modda. Diniy o'quv yurtlari**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv

yurtlari tuzishga haqli. Diniy o‘quv yurtlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ladi.

Oliy va o‘rtta diniy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq umumiy majburiy o‘rtta ta’lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy o‘quv yurtlarida diniy fanlarni o‘qitayotgan shaxslar diniy ta’lim olgan bo‘lishlari va o‘z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim.

Xususiy tartibda diniy ta’lim berish man etiladi.

## **10-modda. Diniy tashkilotning ustavi**

Diniy tashkilotning ustavi quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak:

- diniy tashkilotning nomi, turi, joylashgan manzili, qaysi dinga mansubligi;
- maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari;
- faoliyatni tashkil etish va tugatish tartibi;
- tuzilishi va boshqaruv organlari;
- mablag‘lari manbayi hamda ushbu tashkilot ichidagi, shuningdek undan tashqaridagi mulkiy munosabatlar;
- ustavga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish tartibi;
- ushbu diniy tashkilotga taalluqli boshqa ma’lumotlar.

Markaziy boshqaruv organlariga ega bo‘lgan diniy tashkilotlarning ustavlari mazkur boshqaruv organlari bilan kelishilgan bo‘lishi kerak.

## **11-modda. Diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlarini ro‘yxatga olish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarning esa tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari bo‘lgan, yuz nafardan kam bo‘ligan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan ariza;
- diniy tashkilotning ustavi;

- ta'sis yig'ilishining bayoni;
- tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;

ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organini ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning raisi va kotibi imzo qo'ygan ariza;

— diniy tashkilotlar markaziy boshqaruv organining ustavi;

— ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning bayoni;

— ta'sischilar vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar;

— rahbar organ joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;

— ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlar hamda ularning markaziy boshqaruv organlari ni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

Adliya organlari qo'shimcha materiallar talab qilib olishga hamda tegishli organlarning ekspert xulosasini olishga haqli. Bunday holda qaror ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch oylik muddatda qabul qilinadi.

Diniy tashkilotning ustaviga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar diniy tashkilotni ro'yxatga olish kabi tartib va muddatlarda ro'yxatga olinishi lozim.

Diniy tashkilotlar rahbarlarining tashkilot ustavini davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati o'z ustaviga muvofiqligini nazorat qilish diniy tashkilotni ro'yxatga olgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## **12-modda. Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olishni rad etish**

Agar diniy tashkilot ustavining qoidalari va boshqa hujjatlari ushbu Qonun yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining talablariga zid bo'lsa, uni ro'yxatga olish rad etilishi mumkin.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olish rad etilganda rad etish asoslari ko'rsatilgan qaror yozma ravishda arizachilarga yuboriladi. Diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari ustavlarini qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirganlaridan so'ng, ustavni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan tegishli tarzda O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligiga yoki uning joylardagi organlariga qaytadan murojaat etish huquqiga ega.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olishni rad etilganligi yoxud adliya organlari tomonidan ushbu qonun talablari buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

### **13-modda. Diniy tashkilotning faoliyatini tugatish**

Diniy tashkilotning faoliyati u o'zini o'zi tarqatib yuborganda yoki ushbu Qonunning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining qoidalari buzilgan taqdirda tugatilishi mumkin.

Diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatga olgan organ tomonidan qabul qilinadi. Ushbu qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **14-modda. Diniy urf-odatlar va marosimlar**

Diniy tashkilotlar ibodat qilish yoki diniy rasm-rusmlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ularni saqlab turish, shuningdek ziyoratgohlarni saqlab turish huquqiga egadir.

Ibodat, diniy rasm-rusmlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzildagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyorlariga binoan ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, keksalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy rasm-rusumlar shu yerdagи fuqarolarning iltimoslariga binoan o'tkaziladi.

Diniy marosim va ibodat binolaridan tashqarida o'tkaziladigan ommaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar va marosimlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarda yurishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar dindorlardan majburiy pul yig'imlari va to'lovlar undirishga, shuningdek, ularga nisbatan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kansituvchi choralarни qo'llashga haqli emas.

### **15-modda. Diniy tashkilotlarning mulki**

Diniy tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingen yoki yaratilgan, fuqarolar, jamoat birlashmali ehson qilgan (vasiyat qilib qoldirgan) yoxud davlat tomonidan berilgan, shuningdek, chet elda

joylashgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingen, o‘z faoliyatlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan binolar, imoratlar, ibodat qilish anjomlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy va xayriya inshootlari, pul mablag‘lari va boshqa mol-mulklar ularning mulki bo‘lishi mumkin.

Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi.

## **16-modda. Davlat mulki bo‘lgan mol-mulkdan foydalanish**

Diniy tashkilotlar o‘z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar ob’yektlari va buyumlarini diniy tashkilotlarga foydalanish uchun berish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlar uchun yer ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **17-modda. Ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruvi organlari ustavdagagi maqsadlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, noshirlik, ishlab chiqarish, ta’mirlash-qurilish, qishloq xo‘jalik korxonalari va boshqa korxonalarni, shuningdek, xayriya muassasalarini (etimxonalar, kasalxonalar) ta’sis etishga haqlidir.

## **18-modda. Faoliyatini tugatgan diniy tashkilotlarning mol-mulkini tasarruf etish**

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgandan keyin ularga foydalanim turish uchun berilgan mol-mulk o‘z egalariga qaytariladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgan taqdirda, ularga qarashli mol-mulkka egalik qilish ularning ustavi va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Kreditorlarning talablarini qondirish uchun undirish qaratilishi mumkin bo‘limgan ibodatga oid mol-mulk ro‘yxati diniy tashkilotlarning taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Huquqiy vorislari bo‘limgan mol-mulk davlat mulki hisobiga o‘tadi.

## **19-modda. Diniy adabiyot va diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar**

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir.

Chet elda nashr etilgan diniy adabiyotlarni olib kelish va tarqatish, ularning mazmuni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari tegishli litsenziya olganidan so‘ng diniy ibodat buyumlarini ishlab chiqarish va tarqatish huquqiga faqat ular ega bo‘ladilar.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan matbaa nashrlarini, kino-, foto-, audio-, video-mahsulotlarini va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

## **20-modda. Diniy tashkilotlarning xayriya faoliyatি**

Diniy tashkilotlar xayriya va mehr-muruvvat faoliyatini amalga oshirishga haqlidir.

## **21-modda. Diniy tashkilotlarda mehnatga oid huquqiy munosabatlar**

Diniy tashkilotlarda mehnat shartnomalari (kontraktlari) bo‘yicha ishlayotgan fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari tatbiq etiladi.

## **22-modda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalarи**

Diniy tashkilotlar muqaddas joylarni ziyorat qilish yoki boshqa diniy tadbirda ishtirok etish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro aloqalar o‘rnatish va olib borishga haqlidir.

## **23-modda. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING QARORI**

## **YANGI TAHRIRDAGI «VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA»GI O'ZBEKISTON RES- PUBLIKASI QONUNINI AMALGA KIRITISH TARTIBI HAQIDA**

### **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:**

1. Yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran amalga kiritilsin.
2. Belgilab qo'yilsinki, qonun hujjatlari yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq holga keltirilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining ushbu Qonunga zid bo'limgan qonun hujjatlari qo'llanilaveradi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlari yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiqlashtirsin, vazirliklar hamda idoralar o'zlarining mazkur Qonunga zid bo'lgan normativ hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi uch oy muddat ichida yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq diniy tashkilotlar qayta ro'yxatdan o'tishini ta'minlasin.

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisining Raisi**

**E.XALILOV**

Toshkent shahri,  
1998-yil 1-may,  
№ 619-1

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEKSIDAN<sup>1</sup>

## 145-modda. Vijdon erkinligini buzish

Diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qilish –

eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitish –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Fuqarolarning o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlariga yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga to'sqinlik qilish bilan, dindorlardan majburiy yig'im undirish va soliq olish bilan yoxud shaxsning sha'ni va obro'sini kamsituvchi chora-tadbirlar qo'llash bilan yoki diniy ta'lif olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog'liq diniy faoliyat yuritish, shuningdek diniy marosimlar o'tkazishni tashkil etish shaxs badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, –

eng kam ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(*Ikkinci va uchinchi qismlar O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may Qonuni tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6сон, 102-modda*).

## 154-modda. Yollanish

Yollanish, ya'ni nizolashayotgan davlatning fuqarosi yoki harbiy xizmatchisi hisoblanmagan yoxud nazorat qilinib turgan nizolashayotgan davlat hududida doimiy yashamaydigan yoki hech qanday davlat tomonidan qurolli kuchlar tarkibida rasmiy topshiriqni bajarish vakolati berilmagan shaxsning moddiy manfaatdorlik yoki boshqa biron shaxsiy

<sup>1</sup> Qarang: *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 2001.*

manfaatni ko'zlab, o'zga davlat hududida yoki uning tarafini olib qurolli to'qnashuvda yoxud harbiy harakatlarda qatnashish uchun yollanishi – besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolana-di. (*O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda* – *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2001-yil, 9-10-son, 165-modda).

## 155-modda. Terrorizm

Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish. urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqtish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatalish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lismeni, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta'minlashga. terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat –

sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish yoxud siyosiy yoki bosh-qa ijtimoiy faoliyatga to'sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish –

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) odam o'lishiga;

b) boshqa og'ir oqibatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lsa, –

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi bilan jazolanadi.

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish va boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa, basharti bu shaxsning

harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. (*O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-son, 165-modda*).

### **156-modda. Milliy, irqiy yoki diniy adovat qo‘zg‘atish**

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab, aholi guruhlariga nisbatan adovat, murosasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida milliy sha’n-sharaf va qadr-qimmatni kamsitishga, diniy e’tiqodiga yoki dahriyiligiga qarab, fuqarolarning his-tuyg‘ularini haqoratlashga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar, shuningdek, milliy, irqiy, etnik mansubligi yoki dinga munosabatiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash yoxud ularga bevosita yoki bilvosita afzalliliklar berish – besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O’sha harakatlar:

a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda;

b) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda;

v) fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo‘rlik ishlatib ko‘chirgan holda;

g) mas’ul mansabdor shaxs tomonidan;

d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, –

besh yildan o’n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

### **159-modda. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish**

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo‘ylgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da‘vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatish –

eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-son, 165-modda*).

Hokimiyat konstitutsiyaviy organlarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki ularni Konstitutsiyada nazarda tutilmagan parallel hokimiyat tuzilmalari bilan almashtirishga qaratilgan zo‘ravonlik harakatlari, shuningdek, davlat hokimiyati vakolatli organlarining O‘zbekiston Konstitutsiyasida nazarda tutilmagan tartibda tuzilgan

hokimiyat tuzilmalarini tarqatib yuborish to‘g‘risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik —

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlagan holda sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hokimiyatni bosib olish yoki O‘zbekiston Respublikasi konsitutsiyaviy tuzumini ag‘darib tashlash maqsadida fitna uyuhtirish —

o‘n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-son, 165-modda*).

Fitna to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar bergen shaxs, basharti, ko‘rilgan choralar natijasida fitnaning oldi olingen bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi.

## **216-modda. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xi洛f ravishda tuzish**

G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xi洛f ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash, shuningdek bunday birlashmalar yoki tashkilotlar faoliyatida faol qatnashish —

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may, 1999-yil 15-aprel Qonunlari tahririda — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 102-modda; 1999-yil, 5-son, 124-modda*).

## **216<sup>1</sup>-modda. G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash**

O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, —

eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti

oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may Qonuni bilan kiritilgan, 1999-yil 15-aprel Qonuni tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 102-modda; 1999-yil, 5-son, 124-modda*).

## **216<sup>2</sup>-modda. Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun huijjatlarini buzish**

Nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishi, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a‘zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘ilishlari, shuningdek diniy marosimiga aloqasi bo‘lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to‘garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o‘tkazish, shunday qilmishlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may Qonuni bilan kiritilgan – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 102-modda*).

## **217-modda. Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyuştirish, o‘tkazish tartibini buzish**

Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyuştirish yoxud o‘tkazish tartibini ularning tashkilotchisi tomonidan buzish shunday harakatlari uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, –

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yetmish bes baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Diniy yig‘ilishlar, ko‘cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o‘tkazish qoidalalarini buzish, shunday harakatlari uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may Qonuni tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 1998-yil, 5-6-son, 102-modda).

## **229<sup>2</sup>-modda. Diniy ta'lomitdan saboq berish tartibini buzish**

Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'lomitdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'lomitdan saboq berish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may Qonuni bilan kiritilgan – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 1998-yil, 5-6-son, 102-modda).

## **242-modda. Jinoiy uyushma tashkil etish**

Jinoiy uyushma tashkil etish, ya'ni jinoiy uyushma yoxud uning bo'linmalarini tuzish yoki unga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat –

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Uyushgan qurolli guruh tuzish, shuningdek unga rahbarlik qilish yoki unda ishtirok etish –

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi*, 2001-yil, 9-10-son, 165-modda).

## **244<sup>1</sup>-modda. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish**

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, –

eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma'lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish, xuddi shuningdek fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariiga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida dindan foydalanish, —

eng kam ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida ko'rsatilgan harakatlar:

- a) oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan;
- b) xizmat mavqeyidan foydalanib;
- v) diniy tashkilotlardan, shuningdek chet el davlatlari, tashkilotlari va fuqarolardan olingan moliyaviy yoki boshqa moddiy yordamdan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.  
*(O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-may Qonuni bilan kiritilgan, 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 102-modda; 2001-yil, 9-10-son, 165-modda).*

## **244<sup>2</sup>-modda. Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish**

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish —

besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, —  
o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Basharti shaxs taqiqlangan tashkilotlar mavjudligi to'g'risida o'z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoyatni ochishga yordam bergen bo'lsa, u ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat uchun

javobgarlikdan ozod qilinadi. (*O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 15-aprel Qonuni bilan kiritilgan, 2001-yil 29-avgust Qonuni tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 124-modda; 2001-yil, 9-10-son, 165-modda*).

## 246-modda. Kontrabanda

Kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli, zaharovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog<sup>4</sup>, o'qotar qurol yoki o'q-dorilarni, shuningdek giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish –

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.


Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, shuningdek giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda kontrabanda qilish – o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (*O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgust, 1998-yil 1-may, 1998-yil 29-avgust 2001-yil 29-avgust Qonunlari tahririda – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 9-son, 144-modda; 1998-yil, 5-6-son, 102-modda; 9-son, 181-modda; 2001-yil, 9-10-son, 165-modda*).

## FOYDALANISH TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: «O'zbekiston», 2003.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri)». O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: Adolat, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maf-kura. 1-jild. - T.: «O'zbekiston», 1996.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. - T.: «O'zbekiston», 1996.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. - T.: «O'zbekiston», 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4- jild. - T.: «O'zbekiston», 1996.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. - T.: «O'zbekiston», 1997.
8. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. - T.: «O'zbekiston», 1998.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7-jild. - T.: «O'zbekiston», 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8- jild. - T.: «O'zbekiston», 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. - T.: «O'zbekiston», 2001.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. - T.: «O'zbekiston», 2002.
13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'riyiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11- jild. - T.: «O'zbekiston», 2003.
14. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. - T.: «O'zbekiston», 2004.
15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: «O'zbekiston», 2005.
16. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqa izohli tajribaviy lug'at). - T.: Yangi asr avlod, 2002.
17. Abdullajonov O. Diniy aqidaparstlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. - T.: Akademiya, 2000.
18. Abdullatif qori Hoshimjon qori o'g'li. Zalolatga ketmang! Hizbut-tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. - T.: Mavarounnahr, 2003.
19. Azimov A. Religiozniy ekstremizm i fundamentalizm. - T.: 1998.

20. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. - T.: 2002.
21. Jo'zjoni A.Sh. Islom huquqshunosligi. - T.: Toshkent islam universiteti, 2002.
22. Jo'rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. - T.: 2000.
23. Zakurlayev A. G'oyalar kurashi. - T. Mavarounnahr, 2000.
24. Inson huquqlari: Universal xalqaro hujjatlar to'plami. - T.: 1996.
25. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. - T.: Ma'naviyat, 2000.
26. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. - T.: Universitet, 1998.
27. Islom va dunyoviy davlat (xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari). - T.: 2003.
28. Islom ziyosi o'zbekim siyosida. - T.: «Toshkent islam universiteti» nashriyoti, 2001.
29. Islom ma'rifati. - T.: «Toshkent islam universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.
30. Islom. Ensiklopediya. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
31. Karimov A. Dunyoviylik dahriylik emas yoxud «Hizbut-tahrir» ning da'volari xususida mulohazalar. - T.: «Toshkent islam universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.
32. Komilov N. Islom – ma'rifat dini. - T.: Ma'naviyat, 2000.
33. Mejreligioznoye soglosiye – vajnoye usloviye uglubleniya demokraticeskix protsessov v stranax Sentralnoy Azii (Na primere Respubliki Uzbekistan). Materiali mejdunarodnoy konferensii. - T.: 2002.
34. Obidov R., Abdullayev S., Azimov A. Hidoyat va zalolat. - T.: 2004.
35. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. - T.: 2001.
36. Ochilidiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlari. - T.: «O'zbekiston», 2004.
37. Radjapova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. - T.: 2000.
38. Rahmatov O. Ogohlik – muqaddas burch. - T.: Mavarounnahr, 2000.
39. Saidov A.X. Religioznaya tolerantnost i svetskoye gosudarstvo v Uzbekistane. - T.: 2002.
40. Taroziy A.M. Olam uzra tarqalgan islam. - T.: 2001.
41. Xorun Yahyo. Islom terrorni qoralaydi. - T.: Mavarounnahr, 2003.
42. Ekstremizm, terrorizm, guruhiy jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari. // Ilmiy- amaliy anjuman materiallari. - T.: 1999.
43. Yakubov O. Qashqirlar galasi: Terrorizmnning qonli izi. - T.: 2000.

44. Yunusov A. Dinimiz dushmanlari. - T.: Movarounnahr, 2000.
45. Yunusova A.T. Religiya i zakon. - T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
46. O'zbekiston yoshlari dunyoqarash uyg'unligining shakllanishi muammolari. - T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
47. Qaltis savollarga xolis javoblar. - T.: Movarounnahr, 2001.
48. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. - T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.
49. Husniddinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. - T.: Movarounnahr, 2000.
50. Husniddinov Z.M., Abdusattorov A. Islomdagi oqimlar: xorijiylik va shialik. - T.: Toshkent islom universiteti, 2003.



## M U N D A R I J A

|  |     |
|--|-----|
| Kirish.....  | 3   |
| I bob. Davlat va din. O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati .....                                  | 5   |
| II bob. Jahon dinlari tizimida islam.....  | 16  |
| III bob. Islomning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni va ahamiyati: tarix va hozirgi zamon .....                                 | 25  |
| IV bob. Zamonaviy musulmon olami .....   | 38  |
| V bob. Diniy ekstremizm va terrorizm – jamiyat barqarorligiga tahdid.....  | 57  |
| VI bob. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashi .....  | 71  |
| VII bob. Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavf - sizlikka tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar..... | 100 |
| VIII bob. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari.....                                | 109 |
| IX bob. O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashi.....  | 123 |
| Ilovalar.....  | 135 |
| Foydalanish tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.....   | 155 |

**DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA  
QARSHI KURASHNING  
MA'NAVIIY-MA'RIFIY ASOSLARI**

«Toshkent islom universiteti»  
nashriyot-matbaa birlashmasi  
Toshkent – 2005

Nashriyot-matbaa birlashmasi

Bosh muharirri *O.Rahimov*

Muharrir *N.Muhamedov*

Musahhih *U.Insonboyeva*

Badiiy muharrir *K. Axunov*

Texnik muharrir *N.Sorokina*

Kompyuterda sahifalovchi *M.Aslonov*

Terishga berildi 10.02.2005. Bosishga ruxsat etildi 04.04.2005. Bichimi

84x108 1/<sub>32</sub>

Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Nashr tabog'i 9,85. Adadi 8000 nusxa. Buyurtma №17

Bahosi shartnomaga asosida.

“Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi.

700011, Toshkent. A.Qodiriy ko‘chasi, 11.

Shartnomaga № 09-09-05.

MCHJ «Noshir» bosmaxonasida chop etildi.

Navoiy ko‘chasi, 30.

**D 53** **Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari:** (To’plam)/(Mas’ul muharrir Z. Husniddinov); O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Toshkent islom universiteti. -T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa bir-lashmasi, 2005. -160 b

BBK 66.4(0)+86.38

